**M. UMAROVA, SH. HAKIMOVA**

# O'QISH KITOBI

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARINING 3-SINFI UCHUN DARSLIK**

*To'ldirilgan o'ninchi nashri*

***O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan***

***Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi***
***Toshkent — 2010***

**Mas'ul muharrir:**
**Naim Karimov,** filologiya fanlari doktori, professor.

**Taqrizchilar:**
**Safo Matjonov,** pedagogika fanlari doktori, professor;
**N. Ahmedova,** Respublika Ta'lim markazi boshlang'ich ta'lim bo'limi boshlig'i;
**M. Rahmonova,** Toshkent shahar 223-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

## Shartli belgilar:

— *savollar*

— *topishmoqlar*

— *topshiriqlar*

— *maqollar va tez aytishlar*

— *savol va topshiriqlar*

— *dars tugadi*

— *uyga vazifa*

Ushbu nashrga doir barcha huquqlar himoya qilinadi va nashriyotga tegishlidir. Undagi matn va rasmlarni nashriyot roziligisiz to'liq yoki qisman ko'chirib bosish taqiqlanadi.

**«Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijara uchun chop etildi».**

$U.,H. \frac{4306020400 - 17}{360\ (04) - 2010} - 2010$

ISBN 978-9943-05-177-5

**© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008- y.**
**© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010- y.**

***Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir.***

*Islom Karimov,*
*«Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch»*
*kitobidan*

# ONA BITTA, VATAN YAGONA

## BAYRAMINGIZ QUTLUG‘ BO‘LSIN

1991- yilning 31- avgusti Vatanimiz tarixi sahifalariga oltin harflar bilan yozildi. Chunki shu kuni O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi e’lon qilindi. 1991- yil 1- sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi kuni deb belgilandi. Shu yildan boshlab 1- sentabr umumxalq bayrami sifatida butun mamlakatimizda keng nishonlanib kelmoqda.

Mustaqillik bizlarga, eng avvalo, o‘z yerimiz, o‘z yurtimizga o‘zimiz ega bo‘lish huquqini, erkin fikrlash, mustaqil harakat qilish imkoniyatini berdi. Mustaqillik tufayli Vatanimiz dunyoda tan olindi, o‘z o‘rni, obro‘-e’tiboriga ega bo‘ldi.

Matndan nimalarni bilib oldingiz?

# SALOM, MAKTAB!

*Shuhrat*

Salom, maktab, jon maktab,
Gul bog'laring chiroyli.
Eshiging och kattaroq,
Endi kirib boraylik.

Yoz oylari o'ynadik,
Dala, qir va tog'larda.
Kattalarga qarashdik,
Polizlarda, bog'larda.

Daryolarda cho'mildik,
Tog'ga chiqdik chirmashib.
Gerbariylar to'pladik,
Shahar o'tib, qir oshib.

Soya-salqin bog'larda,
O'ynab yig'dik kuch-quvvat.
«Yana a'lo o'qiymiz!»
Bu bizdagi zo'r niyat.

1. She'rni ifodali o'qing va yod oling.
2. She'rdan o'zingizga yoqqan bandni yod oling.
3. Yoz oylari qanday ishlarni bajardingiz?
4. Siz yozda qayerda dam oldingiz?

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BAYROG‘I



### I

O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o‘tkazilgan VII sessiyasida 1991- yil 18- noyabr kuni tasdiqlangan.

Davlat bayrog‘i va uning ramzi bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda respublikaning milliy-madaniy an’analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

1. Bayroq rasmini kuzating. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining tuzilishini rasmdan foydalanib so‘zlab bering.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qachon tasdiqlangan?

### II

1. Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu –

yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhrat va sadoqatni bildiradi. Binobarin, Amir Temur davlati bayrog'ining rangi ham moviy rangda edi.

2. Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg'uborlik, soflik, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli.

3. Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

4. Qizil chiziqlar – vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.

5. Navqiron yarim oy tasviri bizning tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda u qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi.

6. Yulduzlar barcha uchun ruhoniy, ilohiy timsol sanalgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'idagi 12 yulduz tasviri ham tarixiy an'analarimiz, qadimgi yilnomamizga bevosita aloqador. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tiborimiz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida nujum ilmi taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi.

Davlat bayrog'imizdagi 12 yulduz tasvirini o'zbek xalq madaniyatining qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'iga saodatga intilishi ramzi sifatida tushunish lozim.

1. Bayroqda qanday belgilar bor? Ular nimalarni bildiradi?
2. Davlat bayrog'idagi 12 ta yulduz tasviri qanday ma'noni anglatadi?

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT GERBI

I

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X sessiyasida 1992- yil 2- iyul kuni tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi gullagan vodiy uzra charaqlab turgan quyosh tasviridan hamda so‘l tomonida bug‘doy boshoqlari, o‘ng tomonida ochilgan paxta chanoqlari surati tushirilgan chambardan iborat. Gerbning yuqori qismida respublika jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz tasvirlangan: sakkiz qirra ichida joylashgan yarim oy va yulduz musulmonlarning qutlug‘ ramzidir.

Gerb markazida himmat, oliyjanoblik va fidoyilik timsoli bo‘lgan afsonaviy Humo qushi qanotlarini yozib turibdi. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik,

yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbning pastki qismidagi respublika Davlat bayrog'ini ifodalovchi uch rangdagi chambar bandiga «O'zbekiston» so'zi bitilgan.

1. O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qachon tasdiqlangan?
2. Gerbdagi ramz va timsollardan nimalarni bilib oldingiz?

## II

«Gerb» so'zi nemischa «herbo» so'zidan olingan bo'lib, shohlar va hukmdorlarga davlat, sarhad, hudud va boshqa nasldan-naslga meros qoluvchi mulk belgisini anglatadi.

Bundan 2500 yil muqaddam ulkan sarhadda hukm surgan qadimgi turk xoni O'g'uzxon davrida ham turkcha «tamg'a» so'zi aynan shu ma'noni bildirar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Rashididdin Hamadoniy «Tanlangan tarixlar» kitobida shahodat berishicha, O'g'uzxon o'z mol-mulklarini o'g'illariga ulus sifatida kichik davlatlarga bo'lib, in'om etgan. Ushbu davlatlar hukmdorlari ham o'zlarining xonlik tamg'alariga ega edi.

Ko'rinib turibdiki, «tamg'a» so'zining ma'nosi nemischa «herbo» so'zining ma'nosiga to'la mos keladi.

1. «Gerb» so'zi qanday ma'noni anglatadi?
2. «Gerb» so'zining tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz?

## VATANNI SUYMAK

*Abdulla Avloniy*

Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakati uning Vatanidir. Har bir kishi tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq ko‘radi. Hatto, hayvonlar ham. Agar birorta hayvon o‘z Vatanidan — uyuridan ayrilsa, o‘z yeridagidek rohatda yashamaydi.

Biz, turkistonliklar, o‘z Vatanimizni sevamiz. Arablar ham Arabistonlarini, qumlik, issiq cho‘llarini, o‘z yerlarini boshqa yerlardan ziyoda ko‘radilar. Agar sevmasalar edi, o‘z Vatanlarini tashlab ketar edilar.

Bobolarimiz: «O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha, o‘z yurtingda gado bo‘l», — deydilar.

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun kishilar o‘z Vatanlarini sevadilar?
3. Sizning Vataningiz qayer? U avval qanday atalgan?
4. Siz o‘z Vataningizni sevasizmi? Nima uchun?
5. Matn oxiridagi maqoldan nimani bilib oldingiz? Aytib bering.
6. Matndagi *ziyoda* so‘zi o‘rnida yana qanday so‘z ishlatish mumkin?

## VATAN MO‘TABARDIR

*Xurshid Davron*

Inson uchun havo, quyosh, suv, non, ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, Vatan ham shunchalik mo‘tabardir.

Vatan ona tuproqdan boshlanadi. Vatanga muhabbat uning dalalari, qir-adirlari, moviy rang tog‘lari, dasht-u sahrolariga bo‘lgan muhabbatdan boshlanadi.

Qadimda dushmanlar turk davlatining xoqoni O‘g‘uzxondan unga qarashli tashlandiq, hech narsa bitmaydigan bir parcha yerni talab qilishadi.

Bobomiz shunda: «Vatan yolg‘iz bizning mulkimiz emas. Mozorda yotgan otalarimiz va endi tug‘ilajak avlodlarimizning bu muborak tuproqda haqlari bordir.

Vatandan ozgina bo‘lsa ham, bir qarich bo‘lsa ham yer bermakka hech bir kimsaning haqqi yo‘qdir», — deb javob beradilar.

Biz Vatanni sevmoqni dono bobolarimizdan o‘rganmog‘imiz kerak. Inson uchun Vatandan ortiq mehrigiyo bormi? Yo‘q, albatta! Vatan ona kabi yagonadir. Yagonaligi bilan muqaddas va bebahodir!

1. Vatan nimadan boshlanadi? Vatanga bo‘lgan muhabbat-chi?
2. O‘g‘uzxon Vatanni qanday e’zozlagan?
3. Nima uchun biz Vatanni sevishni bobolardan o‘rganamiz?

## Maqol

- Ona yerning tuprog‘i ona sutidek aziz.

# ONA-VATAN

*Muhabbat Hamidova*

Biz yashayotgan go‘zal, bepoyon mamlakat O‘zbekiston deb ataladi. O‘zbekiston serunum tuproqli yerlar, o‘rmonlar bilan qoplangan. Unda yuksaklikka bo‘y cho‘zgan tog‘lar, mavjlanib oqadigan daryolar bor.

Uning yerosti boyliklari behisob: oltin, gaz, tuz, neft, ko‘mir, oltingugurt va boshqalar.

O‘zbekistonda ko‘rkam binolar, mehmonxonalar, istirohat bog‘lari, oromgohlar ko‘p. Yerosti temiryo‘li – metro qurilgan. Asaka shahrida ulkan avtomobil zavodi ishga tushgan. U yerda «Matiz», «Damas», «Neksiya», «Lasetti» kabi yengil avtomobillar, Samarqanddagi SamAvto zavodida esa mikroavtobuslar ishlab chiqarilmoqda. Ularning hammasi xalq uchun xizmat qiladi.

Biz o‘zimiz yashab turgan mamlakatni ona-Vatan deb ataymiz. Buning sababi nimada? Bu yerda qadimdan bizning ota-bobolarimiz yashagan. Biz ham shu yerda tug‘ildik, shu yerda o‘smoqdamiz.

Vatanimiz bizni onamiz kabi o‘zining issiq bag‘rida mehr bilan erkalaydi, sevib ardoqlaydi, voyaga yetkazadi, kamol toptiradi. Shu sababli ham biz Vatanimizni onamiz kabi sevamiz, ardoqlaymiz. Uning nomini ona-Vatan deb ataymiz.

Dunyoda mamlakatlar, shaharlar ko‘p. Lekin inson uchun tug‘ilib o‘sgan joyi – ona-Vatani hammasidan ham yaxshidir.

1. Siz yashayotgan mamlakat qanday nomlanadi?
2. Vatanimizda qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda?

3. «Ona-Vatan» so‘zining ma’nosini tushuntirib bering.
4. Vatanni qadrlash deganda nimani tushunasiz?

## TOSHKENTIM – ONAM

Toshkent ona-Vatanimizning poytaxtidir. U juda qadimiy va go‘zal shahar. Ko‘chalari keng, ozoda. Hammayoqda elektr chiroqlari charaqlab turadi. Poytaxtda turli millat kishilari yashaydilar va mehnat qiladilar. Toshkent ko‘chalarida avtobus, tramvay, trolleybuslar qatnaydi. Bulardan tashqari, metropoliten — yerosti temiryo‘li yo‘lovchilarning uzog‘ini yaqin qilmoqda.

Toshkentda O‘zbekiston havo yo‘llari aviakompaniyasi, ikkita temiryo‘l vokzali, avtovokzallar bor.

Toshkent aeroportidan dunyoning turli shaharlariga samolyotlar uchadi. Poytaxtimizga har kuni chet ellardan, viloyatlardan ko‘plab mehmonlar keladi.

Toshkent do‘stlik, tinchlik va birodarlik shahri sifatida butun dunyoga mashhur. Bu shaharda fanning turli sohalari bo‘yicha xalqaro anjumanlar o‘tkazib turiladi.

Poytaxtimizda ko‘p qavatli osmono‘par binolar, istirohat bog‘lari bor. Temuriylar tarixi davlat muzeyi, «O‘zbekiston», «Chorsu», «Interkontinental» mehmonxonalari qad ko‘targan. Ayniqsa, Mustaqillik maydoni shahar chiroyiga chiroy qo‘shib turibdi.

2007- yilda Toshkent Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilindi. 2009- yilda Toshkentning 2200 yilligi nishonlandi.

1. Poytaxtimiz qanday shahar? Uning ko'rinishi haqida so'zlang.
2. Toshkentning 2200 yilligi qachon nishonlandi?
3. Nima uchun Toshkent do'stlik shahri deb ataladi?
4. Muzey, mehmonxona, maydonlar nomini yozing va imlosini bilib oling.

## O'ZBEGIM

*(Parcha)*

*Erkin Vohidov*

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbegim.
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbegim.

Al-Beruniy, al-Xorazmiy,
Al-Forob avlodidan,
Asli nasli balki O‘zluk,
Balki Tarxon, o‘zbegim.

Mir Alisher na’rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She’riyat mulkida bo‘ldi
Shohu sulton, o‘zbegim.

Qayga bormay, boshda do‘ppim,
Shuhratim, qadrim buyuk.
Olam uzra nomi ketgan,
O‘zbekiston, o‘zbegim!

She’rni ifodali o‘qishni mashq qiling.
She’rni ifodali o‘qing.

## MUSTAQILLIK AHILLIKDAN

*Po‘lat Mo‘min*

Mustaqillik deganin,
Bilib qo‘y ne ekanin.
Eng avval mustaqillik,
Bo‘lmoq puxta, ahillik.

Bu xil sifat insonda,
Fazilatdir har onda.
Tanib ol haq-huquqing,
Saqlagil odob-xulqing.

Sevgil ona yurtingni,
Ketkazma lafz-burdingni.

Mag‘rur tutgil boshingni,
Oldirmagil oshingni.

Har jabhada chiniqqil,
Bahslarda yengib chiqqil!
Gar bo‘lsang uddaburon,
Ishlaring ko‘char oson.

Mustaqillik – dadillik,
Tenglik ila ahillik.
Ochiq gap, ko‘pdir sharti:
Eng avval bo‘l el mardi!

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Siz mustaqillikni saqlash uchun nima qilmoqchisiz?
3. She’rni yod oling.

## MATONATLI USTOZ

### I

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov 1929-yil Qo‘qon shahri yaqinidagi Oxunqaynar qishlog‘ida tavallud topdi. Toshkent shahridagi 14-maktabni oltin medal bilan tugatdi. U O‘zbekiston Milliy universiteti (sobiq O‘rta Osiyo davlat universiteti)ning filologiya fakultetida o‘qidi. So‘ngra Moskvadagi Jahon adabiyoti instituti aspiranturasida tahsil oldi.

Ozod Sharafiddinov butun umri davomida Milliy universitetda ishladi. Olim minglab talabalarga bilim berdi. Uning ma’ruzalarini tinglaganlar umr bo‘yi «Bizni Ozod Sharafiddinov o‘qitgan», deb g‘ururlanib yurishadi. Ozod Sharafiddinov ustozlarni juda hurmat qilgan.

Masalan, ustozi Abdulla Qahhorga sadoqatli bo‘lgan. Abdulla Qahhorni o‘z davrida istiqlol yo‘lida faol kurashgan o‘tyuraklardan biri deb bilgan.

1. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov qachon, qayerda tug‘ildi va qayerlarda bilim oldi?
2. Ozod Sharafiddinovdan kimlar g‘ururlanib yuradi?
3. Ozod akaning ustozlarga munosabati qanday bo‘lgan?

## II

Olim hayotining ko‘p qismi shifokorlar nazoratida, tibbiy muolajalar ostida o‘tdi. 1997-yilning yoz oylarida qand kasalligi zo‘rayib og‘ir operatsiyani boshdan o‘tkazdi. Shifokorlar uning hayotini saqlab qolish uchun bir oyog‘ini kesishga majbur bo‘lishdi. Biroq Ozod aka tushkunlikga tushmadi, ilmiy va ijodiy faoliyatdan to‘xtamadi.

1997-yilda «Jahon adabiyoti» jurnali ta’sis etildi. Yurtboshimiz jurnalga muharrirlik qilish vazifasini Ozod Sharafiddinovga topshirdilar. Olim jurnalga butun aqlu zakovatini bag‘ishlab ishladi. Jurnalni oyoqqa turg‘izdi. Keyinchalik kasallik yanada kuchayib ikkinchi oyog‘idan ham ayrildi. Matonatli olim og‘ir betob kunlarida ham ijodni davom ettirdi. U kasalxonada ham, uyda ham

o'n-o'n ikki soatlab chet el adabiyoti namunalarini tarjima qilar, maqola, risolalar yozar edi.

Yillar o'tib, Ozod Sharafiddinovning ko'zlari xiralashdi. U jurnal materiallarini lupa yordamida o'qib, tahrir qilib bordi. Respublikamizning vaqtli matbuotida, radio-televideniyeda mustaqillikni mustahkamlashga oid ko'plab chiqishlar qildi. Bir necha kitoblar yozdi.

Olim-adib ikki yuksak orden va O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi. Qahramonlik unvoni olim va ustoz Ozod Sharafiddinovga yonib-yashab o'tgan butun umri uchun berildi. Yengilmas irodali ustozning umr yo'li yoshlar uchun hamisha ibratdir.

*«Adabiyotga baxshida umr» kitobidan*

1. 1997-yilning yoz oylarida Ozod aka hayotida qanday voqea yuz berdi?
2. 1997-yilda qaysi jurnal ta'sis etildi va unga kim muharrirlik qila boshladi?
3. Ozod Sharafiddinovning umr yo'li haqida so'zlang.

## TIL QUDRATI

*(Rivoyat)*

Qadim o'tgan zamonda ikki farishta — olim bo'lgan ekan. Ular farzandga ilm berish haqidagi fikrlarini oqil va odil bir kishiga aytibdilar. Undan bu borada qay birlari haq ekanligini so'rabdilar.

Farishtalardan biri farzand ko'rsa riyoziyotdan, falakiyotdan saboq bermoqchi, ajnabiy tillarni o'rgatmoqchi bo'libdi.

Ikkinchi farishta ham farzand ko'rsa unga avloddan avlodga meros qoladigan asosiy boylik — til ekanini tushuntirmoqchi bo'libdi. Ona tili uchun jonini ham fido qilishni o'rgatmoqchi, tilga xiyonat qilmaslikni uqtirmoqchi ekan.

Shuning uchun qo'shiq, ertak, dostonlar aytib bermoqchi bo'libdi. Bu gaplarni eshitgan birinchi olim qah-qah urib kulibdi. Raqibini aqlsizlikda ayblabdi. O'rtadagi tortishuv janjalga aylanibdi.

Oqil kishi: – Yurtda ulug' donishmand bor. Hozir huzuriga boramiz, hammasi o'sha yerda hal qilinadi, — debdi.

Shundan so'ng ular donishmand oldiga borishibdi. U nizo qo'zg'agan barcha gap-so'zlarni tinglabdi.

Oxiri ikkinchi farishtaga qarab: «Farzandga bilim o'rgatishdagi sening fikrlaring ma'qul», — debdi.

1. Olim — farishtalarning istagi nimalardan iborat edi?
2. Nima uchun oqil kishi donishmandning huzuriga borishga maslahat berdi?
3. Donishmand qaysi farishtaning fikrini ma'qulladi? Nega?
4. Siz o'z tilingizni sevasizmi? Nima uchun?

## ONA TILIM

*Tursunboy Adashboyev*

Buyuk Temur jahon bo'ylab,
O'z dovrug'in solgan tilim.
Mir Alisher bobomlardan,
Meros bo'lib qolgan tilim.

Bobur Mirzo she’rlaridan,
Rang va qiyos olgan tilim.
Shunday tildan tonar bo‘lsam,
Qiyma-qiyma bo‘lsin tilim.
Alla bo‘lib jaranglagan,
Ona tilim — jon-u dilim.

She’rni yod oling.

## VATAN IFTIXORI

*Asror Mo‘min*

### I

Rustam Qosimjonov 1979-yil 5-dekabrda Toshkentda tug‘ilgan. 5 yoshidan shaxmat o‘ynaydi. Poytaxtimizdagi 76-maktabda o‘qigan. O‘zbekiston milliy universitetida tahsil olgan.

Rustam bolaligidan o‘ta qiziquvchanligi bilan ajralib turadi. U bolaligidan ko‘p narsaga qiziqardi. O‘zini qiziqtirgan narsani kitoblardan o‘qib, chuqur o‘rganardi. Bolaligidan matematikaga qiziqdi. Bu esa shaxmatni tez o‘rganishiga yordam berdi.

Rustam shaxmatni o‘rganishga qiziqdi. U shaxmat o‘yinida yutqizsa ham, qayta-qayta o‘ynardi.

Rustam 2-sinfda o‘qiyotganida 15-bolalar va o‘smirlar sport maktabidagi to‘garakka qatnay boshladi. Bolalar murabbiysi Aleksandr Grushevichdan shaxmat sirlarini o‘rgana boshladi. Rustamning mehnatsevarligi, intizomi, xotirasi kuchliligi ustoziga yoqib qoldi.

Yozgi ta’til boshlangach ustozi Rustamga N. Juravlyovning «Qadamma-qadam» kitobini o‘qishga berib, aniq vazifalarni topshirdi. Rustam vazifalarni a’lo darajada bajardi. Buni ko‘rib, ustozining mehri Rustamga yana ham ortdi. Hatto biror sabab bilan Rustam mashg‘ulotga qatnasha olmasa, ustozi u bilan uyida alohida shug‘ullanardi. Bu harakatlar o‘z samarasini berdi. Rustam 11 yoshida yoshlar o‘rtasida O‘zbekiston chempioni bo‘ldi.

1. Rustam Qosimjonov qachon, qayerda tug‘ilgan?
2. Rustamning shaxmatni tez o‘rganishiga nima sabab bo‘ldi?
3. Rustam qachondan boshlab to‘garakka qatnashdi, u qanday fazilatlarga ega edi?
4. Rustam qanday qilib 11 yoshida O‘zbekiston chempioni bo‘ldi?

## II

Rustam shu davrda maktabda ham barcha fanlardan a’lo baholarga o‘qidi. Jamoat ishlarida faol qatnashdi. Kitob o‘qishga qiziqishi yana ham ortdi. U har xil tillarda, asosan, o‘zbek, rus, ingliz, nemis tillarida yozilgan kitoblarni juda ko‘p o‘qir edi. Rustamning ko‘p tillarni bilishi shaxmatdagi parvoziga zamin hozirladi.

Rustam shaxmat bilan astoydil shug‘ullandi. U ustozining tavsiyasiga ko‘ra murabbiy Sergey Pinshik mashg‘ulotlariga qatnadi. Musobaqalarda qatnashdi, tajribasi oshdi. Yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan Osiyo chempionatida qatnashib, chempionlikni, Jahon birinchiligida esa bronza medalini qo‘lga kiritdi.

Yosh shaxmatchining bu g'alabasini taqdirlab Yurtboshimiz unga kompyuter sovg'a qildi. Kompyuterda shug'ullanish Rustamni parvozga chorladi. Rustam Qosimjonov dunyo bo'yicha shaxmat qirollarining o'n yettinchisidir. U bu unvonga erishish uchun salkam 20 yil tayyorgarlik ko'rdi.

Birgina Tripolida o'tgan Jahon chempionatida Rustam dunyoning ko'plab mamlakatlaridan chempionatda qatnashayotgan toj da'vogarlarini yengib, finalga chiqdi. Hal qiluvchi o'yinda angliyalik Maykl Adamsdan ustun keldi.

Xullas, Rustam 2004-yil 18-iyundan 13-iyulgacha, ya'ni 26 kunda 28 ta o'yinda muvaffaqiyatli dona surdi. Bunaqasi hali shaxmat tarixida bo'lmagan edi.

1. Rustam kimlar yordamida bronza medalini qo'lga kiritdi?
2. Dunyo bo'yicha shaxmat qirollarining o'n yettinchisi kim?
3. Rustam shaxmat tarixida bo'lmagan qanday yutuqlarni qo'lga kiritdi?

## O'QITUVCHINING O'GITLARI

*Anvar Obidjon*

Ey o'quvchi, bilki, har so'z
Nondek aziz, nondek uvol.
Til boyligin bir bog' desak,
Har bitta so'z — bitta nihol.

Ulg‘ayib yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.

Shunda, mening qutlug‘ tilim —
Navoiyning she’ri, degil.
Yurtim — Ulug‘beg-u Bobur,
Amir Temur yeri, degil.

Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlar-u qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy bilim-u kasbing bilan.

Ey o‘g‘il-qiz, obro‘yingni —
Baland tutmoq qo‘lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

1. O‘qituvchi ona tilimizning boyligini nega bog‘ bilan qiyosladi?
2. O‘qituvchi dunyoga dong taratgan ulug‘ ajdodlarimiz nomini nima maqsadda tilga olib o‘tdi?
3. Yurtimiz kelajakda yanada qudratli bo‘lishi uchun bugungi o‘quvchilardan nimalar talab qilinadi?
4. Vatanimiz va millatimizga kerakli kishilar bo‘lib yetishishimizda maktabning nechog‘lik ahamiyati bor deb o‘ylaysiz?
5. O‘qituvchi bu o‘gitlari orqali o‘z o‘quvchilarini qanday fazilatlarga ega bo‘lishga chorlamoqda?

## MUAZZAM SAN'AT KOSHONASI

O'zbek milliy akademik drama teatri san'atimiz ramzidir. Teatrning avvalgi binosi hozirgi zamon talablariga mos kelmay qoldi.

Shuning uchun Yurtboshimiz tashabbusi bilan bu inshoot butunlay milliy ruh va zamonaviy qiyofada qaytadan qad ko'tardi.

Hashamatli teatr binosining bugungi qiyofasini ko'rib ko'z quvnaydi.

Bu dargohda madaniyatimiz ko'zgusi bo'lgan Mannon Uyg'ur, Yetim Bobojonov, Abror Hidoyatov, Shukur Burhonov, Olim Xo'jayev, Sora Eshonto'rayeva, Nabi Rahimov, Zaynab Sadriyeva, G'ani A'zamov singari san'atimizning buyuk namoyandalari yetishib chiqqan.

Qanchadan qancha sahna asarlari aynan mana shu san'at koshonasida tomoshabinlar e'tiboriga havola etilgan.

Inshootning tashqi ko'rinishi juda salobatli. Uning old qismidagi o'nta ustun o'zbek teatr san'ati zabardast vakillarining ramziy ifodasi. Teatr binosi qurilishida milliy va zamonaviy me'morchilik go'zal did bilan uyg'unlashgan. Me'moriy an'analar o'zining yorqin ifodasini topgan.

Teatr zalidagi ko'rkam osma gumbaz nafis qandillar bilan bezatilgan. Unda tasvirlangan osmon aksi o'ziga xos yoritilish xususiyatiga ega.

Teatr sahnasi ham ancha keng. Bu yerda o'rnatilgan texnik jihozlar dunyodagi eng zamonaviy teatrlarning jihozlaridan sira ham qolishmaydi.

Tomosha zalidagi yumshoq va bejirim o'rindiqlarni ko'rib ko'zingiz quvonadi.

Milliy teatrda rang-barang asarlar yaratilmoqda. Bu asarlarni san'atsevar xalqimiz hayrat va hayajon, zavq va shavq bilan tomosha qilmoqda.

*«Gulxan» jurnalidan*

1. Nima uchun O'zbek milliy akademik drama teatri qaytadan qad ko'tardi? Kimning tashabbusi bilan?
2. Bu dargohda kimlar yetishib chiqqan? Nomma-nom ayting.
3. Inshootning tashqi ko'rinishi haqida so'zlang.
4. Teatrning zali, sahnasi haqida nimalarni bildingiz?
5. *«Milliy teatrda rang-barang asarlar yaratilmoqda»* gapidagi *«yaratilmoqda»* so'zi o'rnida qanday so'z ishlatish mumkin?
6. Uyda Milliy akademik drama teatrida yetishib chiqqan buyuk san'atkorlarning ismi, sharifini daftaringizga yozing va yozilishini bilib oling.

## Maqollar

Vatani borning — baxti bor,
Mehnati borning — taxti.

Ona yurting omon bo'lsa,
Rangi ro'ying somon bo'lmas.

# XALQ OG‘ZAKI IJODI

## QO‘SHIQ

Chaman-chaman ochilar,
Bahor chog‘i gul-lola.
Gulni yaxshi ko‘radi,
Katta-kichik har bola.

Hilolajon, Hilola,
Tog‘ boshi to‘la lola.
Qani chiqib bir dona
Terib olgin-chi, bola.

* * *

Tom ustida nelar bor, hey lola,
O‘rdak bilan g‘ozlar bor, hey lola.
O‘rdak ketib, g‘oz qolsin, hey lola,
Dushman ketib, do‘st qolsin, hey lola.

# BOTIR MERGAN VA CHAQIMCHI

*(O‘zbek xalq ertagi)*

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, tog‘ oralig‘ida, qirq uyli ovulda Botir degan o‘tyurak mergan yigit o‘tgan ekan. Bir yili qish qattiq kelib, ovulning moli qirilibdi. Doni tugab, odamlari och qolibdi. Odamlarning og‘ir ahvolda qolganini ko‘rgan Botir mergan podshoning mollaridan keltirib, odamlarga so‘yib beraveribdi. Shu bilan xalq qishdan eson-omon chiqib olibdi.

Shu ovulda bir chaqimchi kishi bo‘lgan ekan. U podshoga borib, Botir merganni chaqibdi.

– Olampanoh, Botir degan yigit sizning mollaringizni o‘g‘irlayapti, — debdi.

Podsho Botir merganni olib kelish uchun navkarlarni yuboribdi. Ammo navkarlarga Botir mergan rad javobini beribdi. Mergan navkarlarni jo‘natib, podshoning oldiga o‘zi boribdi. Podsho Botir merganni so‘ramaynetmay dorga osmoqchi bo‘libdi. Shunda mergan podshoga:

— Taqsiri olam, Sizga savollarim bor. Shularga javob bering, so‘ngra dorga ossangiz roziman, — debdi.

Podsho:

— Qanaqa savollar? — deb so‘rabdi.

Botir mergan podshoga:

— Taqsir, bola och qolsa, kimdan non so‘raydi? — debdi.

Podsho o‘ylab turib:

— Otasi bilan onasidan so‘raydi, — debdi.

— Bola kimga erkalik qiladi? — deb so‘rabdi yana mergan.

— Ota-onasiga, — deb javob beribdi podsho.

— Unday bo‘lsa, taqsir, men sizning molingizni yolg‘iz o‘zim o‘g‘irlab yeganim yo‘q. Qirq uyli ovulimni qishdan sog‘-salomat olib chiqdim. Ularni o‘limdan saqlab qoldim. Xalq qirilib ketsa, kimga podsholik qilardingiz? Farzand och qolsa-yu, otasidan non so‘rasa, gunohmi? Siz el-yurt otasisiz. Ayting-chi, biz, fuqarolar, nonni sizdan boshqa kimdan so‘raylik?— debdi Botir mergan.

Bu gaplarni eshitib hayron bo‘lgan podsho:

— Chaqimchini chaqiring, — debdi.

Navkarlar chaqimchini olib kelibdilar. Podsho:

— Botir merganni yomonlagan bu chaqimchi bir kuni boshqa kishini ham yomonlaydi. Buni dorga osing, — deb buyuribdi. Podsho Botir merganga to‘n kiygizib, ovulga oqsoqol etib tayinlabdi. Botir mergan ovulda katta obro‘ topib, murod-maqsadiga yetibdi.

1. Botir mergan podshoning oldiga nima uchun o‘zi bordi?
2. Podsho bilan Botir merganning suhbatini o‘qing.
3. Podsho chaqimchini nima uchun jazoladi?
4. Ertak qahramonlaridan qaysi biri sizga yoqdi? Nima uchun?

**Odamlar orasini buzadigan chaqimchilikdan saqlaninglar.**

*«Hadis»dan*

## HALOLLIK

*(O'zbek xalq ertagi)*

O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning kambag'al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yerini sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerning bir chekkasini kambag'al oshnasiga sotibdi.

Yerni olgan odam bir qalin og'aynisidan qo'sh ho'kiz olib kelib, yer haydayotganida, omochning tishi bir nimaga tegibdi. Dehqon parvo qilmay hayday beribdi. Qaytib o'sha yerga kelganida omochning tishi yana haligi narsaga urilibdi. Kambag'al dehqon: «Ilgari bu yerda daraxt bo'lgan, uning to'nkasi qolib ketgan shekilli», – deb o'ylabdi.

U ketmon olib kelib, omoch tishiga qadalgan narsani kovlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni ochib qarasa, ichi to'la tilla emish. Dehqon yerning qolgan qismini ham haydab, urug' sepibdi. So'ng ho'kizlarni egasiga topshiribdi. Xumchadagi tillani ko'tarib, to'g'ri yer sotgan dehqon oshnasining uyiga boribdi. U oshnasiga:

— Sizdan olgan yerimni haydayotgan edim, mana shu xumchani topib oldim, ichidan tilla chiqdi. Uni o'zingizga olib keldim, — debdi.

Dehqon kambag'alga:

— Men sizga yerni sotganman. Demak, u yerda nimaiki bo'lsa, sizniki bo'ladi. Men yer tagida nima borligini bilmaganman. Sizga xudo beribdi. Bolachaqangiz bilan maza qilib yashang, — deb xumchani olmabdi.

Kambag‘al dehqon esa: «Bu boshqa kishining noni. Uni olsam, o‘g‘ri, jinoyatchi bo‘lib qolaman», — deb o‘ylab, xumchani yana boy dehqonga uzatibdi. Ikkalasi hech kelisha olmabdi.

Nihoyat, namozi asr o‘qilayotganda masjidga boradigan, u yerdagi odamlardan so‘rab, bu ishni hal qiladigan bo‘lishibdi...

Masjiddagilar: «Qishloqdagi yetim-yesir va beva-bechoralarga bo‘lib beringlar», – deb maslahat berishibdi.

Bunga dehqon ham, kambag‘al ham rozi bo‘libdi.

Shunday qilib, ular tillani qishloqdagi beva-bechoralarga, kambag‘al, yetim-yesirlarga tarqatishibdi.

Kambag‘al dehqon esa o‘z mehnati bilan halol kun ko‘rib, murod-u maqsadiga yetibdi.

1. Boy dehqon nima uchun o‘z yerini sotibdi?
2. Kambag‘al dehqon va uning oshnasi nima uchun masjidga borishdi? Masjiddagilar qanday maslahat berishdi?
3. Ular masjidga bormaganlarida nima bo‘lardi?
4. Siz kambag‘al dehqon o‘rnida bo‘lganingizda nima qilar edingiz?

## DONISHMAND YIGIT

*(O‘zbek xalq ertagi)*

Qadim zamonlarda bir podsho o‘tgan ekan. U hukm chiqarishda gunohkor va gunohsizlarni chek tashlash yo‘li bilan aniqlar ekan. Gunohkor deb hisoblangan

odamni podsho o‘z oldiga chaqirib, bir qutini ko‘rsatar ekan. Uning ichida ikkita qog‘oz bo‘lib, biriga «O‘lim», ikkinchisiga esa «Ozodlik» degan so‘zlar yozilgan bo‘lar ekan. Gunohkor «Ozodlik» so‘zi yozilgan qog‘ozni olsa, ozod bo‘lar ekan, «O‘lim» so‘zi yozilgan qog‘ozni olsa, o‘limga hukm qilinar ekan.

Kunlardan bir kuni hasadgo‘ylardan bir nechtasi to‘planib, bir donishmand yigitni gunohkor qilib ko‘rsatishibdi. Yigitning dushmanlari qutidagi ikkala qog‘ozga ham «O‘lim» degan so‘zni yozib, solib qo‘ygan ekanlar. Yaqinlari yigitni bu sir-asrordan xabardor qilishibdi.

Podsho odati bo‘yicha gunohkorni chaqirib, qutidagi qog‘ozlardan birini olishni buyuribdi. Yigit esa qog‘ozlardan birini qo‘liga olibdi-yu, yutib yuboribdi. Podsho esa qutida qolgan qog‘oz orqali hukmni bilishga qiziqibdi. U qutini ochib qarasa, unda «O‘lim» degan so‘z yozilgan qog‘oz qolibdi.

Podsho yigit yutgan qog‘ozda «Ozodlik» degan hukm bo‘lsa kerak, deb gunohsiz donishmandni ozod qilib yuboribdi. Donishmand yigit aql-zakovati tufayli o‘limdan qutulib qolgan ekan.

1. Podshoning gunohkorlarni qanday jazolashini so‘zlab bering.
2. «Hasadgo‘ylar» deganda kimlarni tushunasiz?
3. Donishmand yigit qanday qilib o‘limdan qutulib qoldi?
4. Ertakning xulosa qismini toping va mazmunini tushuntirib bering.

# DOSTONLAR

## RUSTAMXON

*(Parcha)*

### I

Oqtosh viloyatida Sultonxon degan kimsa yashagan ekan. Oylar, kunlar o'tibdi. Suyukli rafiqasi Huroyim farzand kuta boshlabdi. Sultonxon esa: «Quvonganimdan yuragim yorilib o'lmay», — deb safarga otlanibdi. Yurtni boshqarishni esa Huroyimga topshiribdi. «O'g'il tug'ilsa, otini Rustamxon qo'y»,— deb ta'kidlabdi. O'zi esa o'g'li o'n to'rt yoshga to'lganida qaytishini aytibdi.

Endi Oqtosh mamlakatida Huroyim podsholik qilib, Sultonxondan ziyoda ish yurita boshlabdi.

### II

Huroyim o'g'il tug'ibdi. Otini Rustamxon qo'yibdi. «Zamon Huroyimniki bo'ldi»,— deb ikki kundosh Huroyimga g'ayrlik qila boshlashibdi.

Kundan kun, oydan oy o'tib ikki kundosh Momogul mastonning oldiga boribdi. Unga bir necha tilla tanga berib: «Huroyim bilan Rustamxonni o'ldirgin»,— debdi. Kampir rozi bo'libdi. So'ng kampir to'rt yuz tanga olib mullalar oldiga boribdi va Huroyimni yomonlab arznoma yozdiribdi. Arznomani olib, otiga minib, Sultonxon tomon jo'nabdi. Sultonxon xatni o'qib g'azablanibdi. «Huroyimning boshini kesib, ikki qo'lini orqasiga bog'lab, Oqtosh shahridan haydab borib, dorga osinglar», — deb farmon beribdi. Jal-

lodlar poytaxtga kelib, Huroyimning qo‘lini orqasiga bog‘lab, urib, dor tomon haydab boribdilar.

Rustamxon onasi haqidagi xabarni eshitibdi. U dor ostiga yetib borib, onasini qutqarib olibdi.

Endi ona-bola Oqtoshga bormay, Bahra tog‘iga qarab yo‘lga tushibdilar. U yerda hech kim yo‘q ekan. Ona-bola birga yashay boshlabdilar. Rustam ov ovlab kelar, onasi kuydirib-pishirardi.

1. Huroyim nima sababdan Oqtosh mamlakatiga podsholik qila boshladi?
2. Nima uchun Sultonxon Huroyimni jazolash uchun farmon berdi?

## III

Kundan kun, oydan oy o‘tibdi. Bir kuni onasi:

– Bolam, ust-boshimiz kir bo‘lib ketibdi. Tuzsiz ovqat yeb, qovoqlarimiz ham shishibdi. Tuz bilan sovun olib kelsang, – debdi. Rustam onasini Oqrabotda qoldirib, tuz, sovun axtarib ketibdi. Yo‘lda bir o‘tovga duch kelibdi. O‘tovning bo‘sag‘asidan qarabdi. U yerda jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko‘rsa, aqli ketib qolguday bir qizni ko‘ribdi. Uning ikki qo‘li orqasiga, sochi esa o‘tovning ustuniga bog‘langan ekan. Rustam hayron qolibdi. Shunda qiz debdi:

— Bizning shahrimizni ajdaho olgan,
Uy boshiga bir qizdan soliq solgan.
Men boylandim, bugun navbatim kelgan.
Ko‘p turmagin, ketgin bundan, begijon!

Rustam qizning so‘zini eshitib, uni tashlab ketgani ko‘zi qiymabdi. Ajdahoga bir begunohni bergisi kelmay, qizga shunday debdi:

— Ushbu damdir, o‘zga damni dam dema,
Ajdahodan sira meni kam dema...
Nasib etsa ot o‘ynatib borarman,
Ajdahoni necha bo‘lak qilarman.
Menga ko‘rsat ajdahoning yo‘lini.

Qiz: «Yaxshi yigit ekan, o‘lmasin», — deb ko‘p qaytaribdi. Shunda Rustam: «Mard so‘zidan, yo‘lbars izidan burilmaydi, degan gap bor. Menga ajdahoning yo‘lini aytgin», — debdi.

Qiz beldor qirni ko‘rsatib:
— Ajdaho shu tarafdan keladi, — debdi.

## IV

Shunda Rustam otiga qamchi urib, qirning ustiga chiqadi. Qarasa, ajdaho ko‘zi olovday yonib, har tarafga o‘t sochib, tog‘ning tagidan Charxinko‘lga suv ichgani tushib kelayotgan ekan.

Haybat bilan kelayotir ajdaho,
Yaqinladi Rustambekday zo‘ravon.
Ajdahoni qaysar Rustam o‘ldirdi,
Qirq bir g‘o‘la qilib kesib tashladi.
Bir g‘o‘ladan oldi uzun bir tasma,
«Ajdaho belgisi» dedi, jo‘nadi.

1. Dostonni rollarga bo‘lib o‘qing. Rustamning mardligi ifodalangan o‘rinlarni matndan aniqlang.
2. Rustamxon sizga yoqdimi? Nima uchun?
3. Matnda keltirilgan mardlik haqidagi maqolni o‘qing.

Doston mazmunini to‘liq so‘zlashga tayyorlanib keling.

# ALPOMISH

*(Parcha)*

Qo‘ng‘irot elida aka-uka Boysari bilan Boybo‘ri yashar edi. Olloh taolo Boybo‘riga o‘g‘il farzand ato etgan kuni Boysari xonadonida ham qiz tug‘ildi.

Boybo‘ri o‘g‘lini Hakimbek, Boysari boy qizining ismini Barchinoy qo‘ydilar.

Kundan kun, oydan oy o‘tib, bolalarning tili chiqdi. Hakimbek bilan Barchinoyni to‘rt yoshga yetganlarida madrasaga berdilar.

Boybo‘ri aytdi:

— Hakim bolam — Qo‘ng‘irotning avlodi,
Zurriyodimni endi sizga topshirdim.
O‘zbek deydi asli zoti,
Yozgin deydi, Hakim otin.
Saboq bering har tomondan,
O‘lsam boshga panoh bo‘lsin,
Elga ota-ona bo‘lsin.

Ularning savodi chiqib, xat o‘qib-yozadigan mulla bo‘ldilar. Shunda Boybo‘ri: «O‘g‘limning savodi chiqib mulla bo‘ldi, endi shohlik, sipohilik ilmini o‘rgatayin», — deb uni kamon otish, nayza sanchish, kurash tushish amallarini o‘rgatuvchi dong‘i chiqqan ustozlar qo‘liga topshirdi.

Hakimbekni olti yoshga to‘lganda mashhur Qosim merganga shogirdlikka beradilar. Mergan bolaga yoy tortishni o‘rgatadi. Qosim Hakimbekka olti oy davomida merganlikdan saboq beradi.

Hakimbekning bobosidan qolgan o‘n to‘rt yarim botmonlik parli yoyi bor edi. Uni hech kim joyidan qo‘zg‘ata olmas edi. Bir kuni Hakimbek ana shu yoyni qo‘liga ushlab, ko‘tarib tortadi, so‘ng qo‘yib yuboradi. Yoyning o‘qi yashindek bo‘lib ketadi. O‘q Asqar tog‘ining katta cho‘qqisini yulib o‘tadi. Shundan so‘ng

Hakimbekning ovozasi olamga yoyiladi. Xalq yig'iladi. Ular ichidan bir donishmand chiqib:

— Dunyoda bir kam to'qson alp[1] o'tdi. Shu alplarning boshlig'i Rustami Doston edi, oxiri bu — Alpomish alp bo'lsin. Shunda u to'qson alpning qatoridan joy oladi, — dedi.

Shunday qilib, Hakimbek alp bo'lib, to'qson alpning biri bo'lib qatorga qo'shildi. Kunlarning birida Boybo'ri o'g'li Alpomishdan so'radi:

— Kishi nimadan baxil, nimadan saxiy bo'ladi?

Alpomish aytdi: — Vaqt-bevaqt olisdan otini yetaklab mehmon kelsa, mezbon uning ko'nglini olib jo'natsa, bul odam saxiydir. Bordi-yu, imkoni bo'la turib, mehmonga joy bermasa, bul odam baxildir.

---

[1] *Alp* — qomati katta, ulkan.

1. Boybo‘ri va Boysari xonadonidagi quvonch haqida gapiring.
2. Hakimbek va Barchinoy qachondan madrasaga bora boshladilar?
3. Boybo‘ri Hakimbekni qachon va nima maqsadda ustozlar qo‘liga topshirdi? Qosim merganga-chi?
4. Rasmda ko‘rganlaringizni so‘zlang. Shu rasmni matndagi tasviri bilan solishtiring.

«Alpomish» dostoni bizga vatanparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, o‘z yurtimizni, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st-u yorimizni, or-nomusimizni, ... har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi».

*Islom Karimovning «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch» asaridan*

## Maqollar

### Do‘stlik, ahillik haqida:

- Maslahatsiz ish
  Keltirar tashvish.

- Yaxshi ko‘rgan do‘stingdan
  Joningni ham ayama.

### Kitob haqida:

- Kitobdan yaxshi do‘st yo‘q.

- Kitob — bilim manbayi.

### Ilm-fan haqida:

- Bilagi zo'r birni yiqar,
  Bilimi zo'r mingni.

- Ko'p o'qigan ko'p bilar.

### Mehnat haqida:

- Inson qo'li — gul.

- Mehnat — baxt keltirar.

### Odob-axloq haqida:

- Yomondan qoch, yaxshiga yondash.

- So'ziga boqma, ishiga boq.

### Ota-ona va farzand haqida:

- Ota-onang — davlating.

- Bola aziz, odobi undan aziz.

1. Siz yana qanday maqollarni bilasiz?

## I B O R A L A R

### Suv quygandek jimjit

Suv yuqoridan pastlikka quyilsa, sharillab tusha-di. Ammo shudgorga quyilsa, jimjit oqadi. Suvning tovushi chiqmaydi. Suv quyilgan shudgorda hasha-

rotlarning tovushlari ham bo'lmaydi. Suvning ana shu xususiyatidan foydalanib, ko'chma ma'nodagi yangi ibora yaratilgan. Bir joyda tinchlik bo'lsa: «Suv quygandek jimjit» iborasi ishlatiladi.

Iboraning o'z va ko'chma ma'nosini tushuntirib bering.

## Bir mayizni teng bo'lib yeydi

Bir-birlaridan hech narsani ayamaydigan, doimo birga yuradigan, topganlarini o'rtaga qo'yib, birga baham ko'radigan, samimiy, chin do'stlarga nisbatan: «Ular bir mayizni teng bo'lib yeydigan o'rtoq» iborasi ishlatiladi.

*Sh. Shomaqsudov, S. Dolimov*

*«Bir mayizni teng bo'lib yeydi»* iborasi qanday kishilarga nisbatan ishlatiladi?

# MASALLAR

## Qaysar buzoqcha

*Olim Qo'chqorbekov*

Yaylovda bir buzoqcha
Arazlabdi to'dadan.
Ketib qolib uzoqqa,
Adashibdi podadan.

Yakka o'zi o'tlarkan,
Borib yaylov to'riga.
Buzoq shunda to'satdan
Duch kelibdi bo'riga.

Ma'rasa ham qancha u,
Bilmabdi do'stlari hech.

Maza qilib och bo‘ri,
Uni yebdi o‘sha kech.

Bobolar bu haqda der:
«Bo‘linganni bo‘ri yer».

1. Masalni ifodali o‘qing.
2. Nima uchun buzoq yirtqichga duch keldi?
3. Oxirgi bandning mazmunini so‘zlab bering.
4. Do‘stlik, ahillik haqida yana qanday maqollarni bilasiz?

## Chumoli va Tipratikan

Tipratikan shudgor yuqorisidagi uzumzordan bir bosh uzumni o‘g‘irlab, qo‘rqib-pisib iniga jo‘nabdi. U bolalariga uzumni berib, urug‘ini yutib yubormaslik kerakligini aytibdi.

Tipratikanning bolalari uzumni yeb, urug‘ini yerga tashlashibdi. Buni uzoqdan ko‘rib turgan Chumoli sekin o‘rmalab kelibdi-da, uzum urug‘ini olib ketishga ruxsat so‘rabdi.

– Olib ketaver, bizga kerak emas, — debdi Tipratikan.

Chumoli uzum urug‘ini iniga olib ketayotganda, Tipratikan va uning bolalari:

– O‘zi kichkina-yu, katta narsani olib ketmoqchi bo‘lib urinishini ko‘ringlar-a, obbo badnafs-e! — deyishibdi Chumolining ustidan kulishib.

Ularning bu so‘zlarini eshitgan Chumoli orqasiga qarab:

– Men buni sizlarga o‘xshab o‘g‘irlab olib ketayotganim yo‘q. Kuchim yetganicha sekin tortib ket-

yapman. O‘zlaringdan so‘rab, halollik bilan oldim. Halollik shunaqa, kuchga kuch qo‘shadi, — debdi.

Halol boylik qilar sheryurak,
O‘g‘irlik mol aylar jonsarak.

1. Masalni rollarga bo‘lib o‘qishga tayyorlaning va o‘qing.
2. *Badnafs* so‘zini qanday tushundingiz? Uning o‘rnida yana qanday so‘z ishlatish mumkin?
3. Tipratikan va uning bolalariga qanday baho berasiz?

## Topishmoqlar



Osmondan par tushadi,
Par emas, zar tushadi.



Eritadi muzni,
Qamashtirar ko‘zni.



Yum-yumaloq, jizzali,
Yesang  juda mazali.

Ustida yashil to‘ni,
Yoz-u qish yechmas uni.

O‘yinda raqiblarni
Yeldiradi izidan.
Terlatsa ham ularni,
Ter chiqmaydi o‘zidan.

- Ongimizga nur sochar,
  Sirlar eshigin ochar.

- Olsam o‘ng qo‘lga,
  Tushadi oq yo‘lga.

1. Siz yana qanday topishmoqlarni bilasiz?

## Tez aytishlar

- Qishda qatiq qattiq qotib qolibdi.

- Tolib tandir tagidan tanga topdi.

- San’at saroyi — saroylarning sarasi.

Tez aytishni mashq qiling.

### Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bo‘limda to‘g‘rilik haqida qanday asar o‘qidingiz?
2. Ishtirok etuvchilari sizga juda yoqqan masal nomini ayting.
3. O‘zingizga yoqqan masal mazmuniga mos rasm chizing.
4. Bo‘limda berilgan tez aytishlardan aytib bering.
5. Alpomish saxiy va baxil odam to‘g‘risida nima degan?
6. «Alpomish» filmini ko‘rganmisiz? Taassurotlaringizni so‘zlab bering.

# KUZ MANZARASI VA MEHNAT

## OLTIN KUZ

Kuz... Ona diyorimizga oltin kuz sepini yoygan. Kechalari salqin. Ertalab shudring tusha boshlaydi. Tog‘lardagi qoyalarda qirov. Paxta dalalarining ko‘rinishi o‘zgacha. Lo‘ppi-lo‘ppi ochilgan paxtalar quyosh nurida tovlanadi. Bu manzara kuz kelganidan darak beradi.

Kuzning birinchi oyida nok, olma, shaftoli, uzum, anjir va anorlar g‘arq pishadi. Sabzavot va qovun-tarvuzlar serob bo‘ladi. Yig‘im-terim ishlari boshlanadi.

Tuyoqli jonivorlarning hayotida ham o‘zgarish bo‘ladi. Ular ko‘k o‘tlar bilan birga, don ozuqasi, yovvoyi urug‘lar, mevalarni iste’mol qiladilar. Bu ularning qishga kuch to‘plab olishiga yordam beradi.

Kuz kelib, havo soviy boshlaganda turnalar, chug‘urchiqlar, qaldirg‘ochlar, uzunqanotlar, ko‘kqarg‘alar yurtimizdan issiq tomonlarga uchib ketadi.

*«Yilnoma»dan*

1. Matndan kuz manzarasiga oid parchani toping va o‘qing.
2. Matnda kuzning birinchi oyi haqida nima deyilgan?
3. Kuzda tuyoqli jonivorlar hayotida qanday o‘zgarishlar ro‘y beradi?
4. Qaysi qushlar issiq tomonlarga uchib ketishadi?

## KUZ KELGANDA

*Tolib Yo‘ldosh*

Kuz kelganda uyimizda to‘y bo‘ladi,
Qo‘zichog‘im o‘sib katta qo‘y bo‘ladi.
Uzumlarni pay uramiz, qovun osib,
Hammayoqni yoz ne’mati ketar bosib.
Qopda yong‘oq, xumda shinni qish bo‘yiga,
Ko‘zimiz to‘q, dimog‘lar chog‘ xush bo‘yiga.

1. She’rni ovoz chiqarmay o‘qing.
2. *«Yoz ne’mati»* deganda nimalarni tushunasiz? *«Hammayoqni yoz ne’mati ketar bosib»* misrasining mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.

# SO'NGGI AXBOROT

*Anvar Obidjon*

Bo'lib o'tdi qishloqda
Kecha zo'r shamol.
Natijada ro'y berdi
Anchayin kor-hol.

Uzum boshi aylanib,
Bo'p qoldi kasal.
Shoxdan yiqilib olma,
Yotibdi o'sal.

Hatto gilos lat yedi,
Bo'lsa ham abjir.
To'qnashuvda anorga
Chaplandi anjir.

Shamollatdi qornini,
Oshqovoq polvon.
Pachoq qildi burnini,
Mulla baqlajon.

Uyquchiroq bir tarvuz
Yumalab borib,
Uyg'onibdi qovunning
Boshini yorib.

Noklar yerga to'kildi,
Bo'lishib bir jom.
...Ammo zarar ko'rmadi
Sabzi va sholg'om.

1. Shamol nimalarga zarar yetkazdi?
2. Nima uchun qovunning boshi yorildi?
3. Nimalar zarar ko'rmadi? Nima uchun?
4. Bu kabi hodisalar qaysi faslda ro'y beradi?

## OLMA

*Mahmud Murodov*

**I**

Kuz. Yakshanba kuni edi. Uchinchi sinf o‘quvchilari olmazorga borishdi. Olmazor yonidagi tokzorda Qudrat ota toklarni chilpib yurgan ekan: «Kelinglar», — deb bolalarni xursand kutib oldi. Bolalar odob bilan otaga salom berishdi.

— Yashanglar, azamatlar, yashanglar. Olmalarni qaranglar, tagi bilan bitta bo‘lib to‘kilib yotibdi.

Bolalar otaning gapiga darrov tushunishdi. Ular qo‘llariga bittadan savatcha olishdi-da, olma terishga tushib ketishdi.

Ota o‘qtin-o‘qtin kelib, bolalardan xabar olib turdi. U so‘nggi marta kelganida:

— Yashanglar, azamatlar! — dedi. — Hammasini terib qo‘yibsizlar-ku! Rahmat, bolalarim.

— Yana bo‘lsa teramiz, — dedi Sodiqjon.

— Endi erta o‘tib, indinga kelinglar. Aytganday, anavi qoracha o‘rtog‘inglar kelmadimi? Oti Kamolmidi?

— Ha. Boshi og‘rib qolibdi.

— E, attang! Shamollagandir-da, — dedi Qudrat ota bosh chayqab. So‘ng bolalarga: — Olmadan olinglar, bo‘taloqlarim! — dedi.

— Uyimizda ham bor.

— Bor bo‘lsa ham olinglar. Mehnat singgani shirinroq bo‘ladi, — dedi Qudrat ota. Keyin tanlab-tanlab, har bir bolaga beshtadan olma berdi.

## II

Bolalar uylariga qaytishar ekan, Sodiqjon ularni to‘xtatib, bittadan olma oldi.

O‘zi ham bitta olma qo‘shib, ularni gazetaga o‘radi.

— Hozir buni Kamolga olib boramiz. Agar boshi og‘rib qolmaganda, u ham kelgan bo‘lardi. Olma terishardi, — dedi.

Bolalar birgalashib Kamolni ko‘rib chiqishdi. Kamolning buvisi ham, onasi ham bolalarning bir-biriga g‘amxo‘rligidan xursand bo‘lishdi. Kamol esa o‘zini tuzalib qolganday his qildi.

1. Hikoyadan nimalarni bilib oldingiz?
2. Hikoyaning ikkinchi qismini ovoz chiqarmay o‘qing va o‘z so‘zingiz bilan so‘zlab bering.
3. Hikoya qismlariga mos sarlavhalar toping.

Uyingizda matndagi rasmdan foydalanib insho yozing.

## KUZ

*Yusuf Shomansur*

Bizda yashab, qolmay armoni,
Uchib o'tar turna karvoni,
Yer-u ko'kni qoplab suroni:
Xush qol, kuz!..
Suvlar oqar sokin va tiniq,
Baliqlarning sharpasi aniq
Eshitilar, oqshom suvga chiq,
Go'zal kuz!
Bog'larda g'arq pishgan olmalar,
Yuzlarida shakar o'rmalar.
Terib olinadi tonnalar,
Har gal kuz!..
Hali bog'lar hosilga serob,
Chanoqlarda oltin behisob.
Demak, do'stlar, bizga ham shu tob,
Mahtal kuz!
G'ayrat qiling shundayin chog'da,
Hosil yig'ing dala-yu bog'da.
Qoldirmasin sizlarni dog'da,
Jadal kuz.

1. She'rdan kuzning belgilari tasvirlangan o'rinlarni topib o'qing.
2. *«Bog'larda g'arq pishgan olmalar, Yuzlarida shakar o'rmalar»* misralarining mazmunini qanday tushundingiz?
3. She'rdan mehnatga chaqiruvchi misralarni o'qing.

# MEHRJON SAYILI

*Malik Murodov*

Mehrjon bilan Navro‘z o‘zbeklarning eng go‘zal, eng tarovatli bayram sayillaridan hisoblanadi. Chunki ular xalqchil, hayotiy an’analardir.

Navro‘z bahor kirishi, qishning ayozli kunlaridan uzil-kesil qutulib, yangi kun, yangicha hayotning boshlanishini nishonlash bayramidir.

Mehrjon esa hosil ko‘tarib, qishga tayyorgarlik ko‘rishdir, to‘kin-sochinlikka shukronalik, hayotga muhabbat ramzidir.

Xalq kuzgi bayram sayilining nomini «Mehrjon» deb bilib qo‘ygan. U dehqon yil bo‘yi qilgan mehnatining lazzatini totib ko‘rayotgan paytda — 25- sentabrga o‘tar kechasi nishonlanadi.

Abu Rayhon Beruniy so‘zi bilan aytganda: Quyosh va Oy falakning ikki ko‘zi bo‘lganidek, Navro‘z bilan Mehrjon ham zaminning ikki ko‘zidir.

1. O‘zbeklarning qanday an’analarini bilasiz?
2. Navro‘z bilan Mehrjon sayilining farqini ayting.
3. Mehrjon sayili qanday paytda nishonlanadi?

## Maqollar

- Mehnat qilgan xor bo‘lmas.
- Mehnating — zeb-u ziynating.

## Topishmoqlar

- Uzoqdan qarasam, yaltir-yultir,
  Yoniga borsam, qulf-u zanjir. *(Anor)*

Dum-dumaloq cho‘tir tosh,
Ichi to‘la moyli osh.

*(Yong‘oq)*

## QO‘RIQCHINING SABOG‘I

*(Ertak)*

*Feruza Jalilova*

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Qadimda mehnatsevar, mirishkor bir dehqon yashagan ekan. Poyonini ko‘z ilg‘amas dalasida uzzu-kun mehnat qilarkan. Yetishtirgan qovun-tarvuzlari-yu karamlariga kishining qulochi bazo‘r yetarkan.

Bir kuni tushlik qilib dalasiga qaytsa, poliziga «o‘g‘ri» oralabdi. O‘g‘ri kim ekan deysizmi, shu yaqin atrofdagi o‘rmonda yashovchi jajji tipratikan va quyonchalar ekan.

Dehqonning jahli chiqib, ularga kesak otib, quvlabdi. «Xo‘sh, sen qayoqqa qarayapsan?» deya o‘dag‘aylabdi polizga tikilgan jonsiz qo‘riqchiga qarab...

Shu yili dehqonning dalasidagi ekinlar kasallikka chalinib, bor hosili nobud bo‘libdi. Uning erta bahordan kech kuzgacha qilgan mehnatlari zoye ketibdi. Xafa bo‘lib yotib, uxlab qolibdi va g‘alati bir tush ko‘ribdi. Tushida poliziga tutash o‘rmonda keksa bir donishmand tipratikan yasharmish. U jajji quyonchalar va tipratikanlarni bir yerga to‘plab, nasihatlar qilarmish. Karam, sabzi yegisi kelib polizga ketayotgan jonivorlarga, ekinlarni payhon qilib tashlamanglar, isrof qilmanglar, bobodehqon ranjiydi, deya tayinlarmish.

Dehqonning tunov kuni jahl bilan otgan kesagi mittigina quyonchaning oyog‘ini mayib qilgan ekan.

Quyoncha tipratikanga:«Biz axir ekinlarni payhon qilmasdan, aytganingizdek, bir donagina sabzini hammamiz baham ko‘rayotgandik-ku», — deya zorlanayotganmish.

Shu payt qarshisida dalasidagi jonsiz qo‘riqchi paydo bo‘libdi va tilga kirib:

— Dehqon bobo, siz juda mehnatkash insonsiz. Lekin biroz ziqnasiz-da. Bir donagina sabzingizni mitti jonivorlarga ravo ko‘rmadingiz-a? Oyog‘i singan quyonchaning ahvolini ko‘rdingizmi? — debdi.

Jonsiz, hissiz bir qo‘riqchidan ta’na eshitgan dehqon rosa mulzam bo‘libdi...

Bu voqealar tushida sodir bo‘lsa-da, u o‘ziga tegishli xulosa chiqarib olibdi. Savatchaga poliz mahsulotlaridan solib, o‘rmonga eltib qo‘yadigan odat chiqaribdi. Bundan buyon qo‘li ochiq, saxovatli inson bo‘lishga ahd qilibdi.

1. Nima uchun dehqonning jahli chiqibdi?
2. Dehqon tushida nimalarni ko‘ribdi?
3. Dehqonning mulzam bo‘lish sababini so‘zlang.
4. Dehqon qanday xulosa chiqaribdi?

## MEN DADAMGA YORDAMCHI

*Quddus Muhammadiy*

Fermada tovug‘im bor,
Patlari naq oppoq qor.
Krepdeshindan ko‘ylagi,
Bo‘ylariga yarashgan.

Gul-loladay tojlari,
Qayrilib qoshga tushgan.

Yurishar gala-gala,
Oq, chipor, kulrang, sara.

Qo‘shiq aytar qaqillab,
Bekor yurmas laqillab.
Tuxumlar savat-savat,
Yig‘ib olamiz sanab.

Bir yoqda jo‘jalarim,
Jajji xo‘rozchalarim,
Qichqirar qanot qoqib,
O‘stiraman men boqib.

Jo‘jalarim sevaman,
Don, suvni mo‘l beraman.
Dadam fermaga boshchi,
Men dadamga yordamchi.

1. She’rni ifodali o‘qing va yod oling.
2. Tovuq fermasida bo‘lganmisiz? Taassurotlaringizni so‘zlang.

## BEBAHO BOYLIK

*(Hikoya)*

*Hakim Nazir*

Bobo nabirasi bilan suhbatlashib o‘tirgan edi. Nabirasi Durdona:

— Buvajon, «Vaqting ketdi — baxting ketdi» degani nima o‘zi? — deb savol berib qoldi.

Bobo nabirasiga javob berishdan oldin dunyoda eng qimmatli boylik nima ekanligini Durdonadan so‘radi. Nabirasi o‘ylab turdi-da:

— Oltin, — deb javob berdi.

— Yo‘q, — dedi bobo. — Agar bilsang, dunyoda oltindan ham qimmatliroq boylik bor. Uning nomi «vaqt» deb ataladi. Vaqt dunyodagi jamiki boyliklarning eng qadrlisidir. Vaqtni behuda o‘tkazgan odam eng qimmatli narsasini yo‘qotadi.

Kuzda qishloqdagi do‘stim Dehqonboyni ko‘rgani borgan edim. Dehqonboy betob bo‘lib qolibdi.

Xotini Oftob aya u bilan ovora bo‘lib, dalaga chiqolmay qolibdi. Bemor sal tuzalgandan keyin unga nabirasi qarab turadigan bo‘libdi. Oftob aya bo‘lsa, dalaga chiqib ishlab kelar ekan.

— Dastyorginamdan aylanay, foydasi tegadigan bo‘lib qoldi. Choy qaynatish, ovqat pishirishni uddalayapti, baraka topkur! — deya nabirasini duo qila ketdi Oftob aya.

Men buni eshitib:

— Buvangga qarar ekansan-ku, darsni qay vaqtda tayyorlaysan? — deb so‘radim. Shunda u:

— Buvajonim uxlaganlarida, — deb javob berdi.

— Ana, Barnoning javobini eshitding-a? U kasal buvasini boqib, uning joniga oro kirarkan, yana darslarini tayyorlashga ham ulgurarkan. Bu nimadan? Bu Barnoning biror daqiqani bekor o‘tkazmay, qimmatli vaqtdan unumli foydalanishidan.

Vaqt hammaga shunchalar aziz. Shu sababli uni *bebaho boylik* deymiz. Vaqtni qadrlab, undan to‘g‘ri foydalangan kishi baxtga erishadi.

Bobosining hikoyasini tinglab o‘tirgan Durdona «Vaqting ketdi — baxting ketdi» degani nima o‘zi deb bergan savoliga javob oldi. U chaqqon, ishchan

bo‘lishga ahd qildi. Bobosiga Barnoga o‘xshab vaqtdan unumli foydalanishga va’da berdi.

1. Boboning Barno haqidagi hikoyasini so‘zlab bering.
2. Matndan boboning «vaqt» haqidagi gaplarini toping va o‘qing.
3. Siz vaqtdan qanday foydalanasiz?
4. Matn mazmuniga mos maqol ayting.

Boboning vaqt haqidagi so‘zlarini uyda yod oling.

**So‘zida turish, ahdiga vafo qilish iymondandir.**

*«Hadis»dan*

## ILMLI MING YASHAR

*Nurmat Maqsudiy*

Yolqinjon kuz kunlarining birida tog‘asinikiga mehmon bo‘lib bordi. Tog‘asi fermer xo‘jaligi bog‘ida guruh boshlig‘i bo‘lib ishlaydi. U jiyanini ko‘rib xursand bo‘ldi.

— O‘-o‘, Yolqinjon, kelganing juda yaxshi bo‘libdida, — dedi. — Hali senga xo‘jalik bog‘ini ko‘rsataman.

* * *

Tog‘asi Yolqinjonni uzumzorga olib bordi. Yolqinjon uzumlarni ko‘rib hayratda qoldi. Baland ishkomlarga o‘rmalab chiqqan husayni, charos va boshqa xil tok novdalarida katta-katta uzum boshlari oltinday tovlanar edi. O‘h-ho‘, uzum boshlarining kattaligini qarang!

Har bittasi Yolqinjonning buvasidan qolgan samovarday keladi-ya!

— Tog‘a, bu uzumlarni qanday qilib yetishtirdingiz? —deb so‘radi Yolqinjon.

— Tokni qanday parvarish qilish to‘g‘risida bir dongdor sohibkor kitob yozibdi, — dedi tog‘asi. — O‘sha sohibkor o‘zining oltmish yillik tajribasini shu kitobda bir-bir bayon qilibdi.

Tog‘asi o‘sha kitobni o‘qibdi. Keyin kitobdan o‘rganganlarini ishga solibdi. Natijada so‘ridagi uzumlarni yetishtiribdi.

— Sohibkor kim o‘zi? — deb so‘radi Yolqinjon.

— Sohibkor deb o‘z ishining ustasiga aytiladi, — deya javob berdi tog‘asi.

— Voy-bo‘, — dedi Yolqinjon o‘zicha, — o‘sha sohibkorning oltmish yillik ishini birdaniga o‘rganib oldingizmi? Unda yoshingiz qancha bo‘ladi?

— Yoshim qirqda. Agar unga sohibkorning oltmish yillik tajribasini qo‘shsang, yoshim roppa-rosa yuz yosh bo‘ladi.

! Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.

## XAZONCHINAK

*O‘tkir Hoshimov*

### I

— Ertaga vaqtli turasan, — dedi shanba kuni Erkinga dadasi. — G‘ani amakingnikiga boramiz.

Erkin suyunib ketdi. G‘ani amaki dadasining o‘rtog‘i. U qishloqda turadi. Uning 3- sinfda o‘qiydigan Ab-

dulla degan o‘g‘li bor. Abdulla Erkinga yoqib qolgan edi.

— G‘ani amakingning bog‘ida xazonchinak qilamiz, — dedi dadasi. Erkin shu kuni vaqtli turdi. Ular avval shahar ko‘chalaridan o‘tishdi, keyin qishloqning tuproq yo‘llaridan ancha yurishdi. Nihoyat, mashina kattakon yong‘oq tagiga kelib to‘xtadi.

## II

Erkin mashinadan tushdi. O‘n besh-yigirma qadam narida chayla turardi.

Undan narida esa qator-qator ishkomlar ko‘rinardi. Erkin o‘sha tomonga chopmoqchi edi, chayla tagida yotgan kattakon itni ko‘rib to‘xtab qoldi. Itning quloqlari qirqilgan, xuddi arslonga o‘xshardi. Shu payt chaylaning narvonidan Abdulla tushdi.

— Kelaver, — dedi qichqirib. — Qoplon tegmaydi, yuvosh.

Erkin o‘rtog‘i bilan ko‘rishdi.

— Yur, ishkomlarni aylanamiz, — dedi Abdulla.

— Ketdik.

1. Erkin shanba kuni nima uchun vaqtli turdi?
2. Erkinning dadasi nima dedi?

## III

Ishkom yashil gumbazli yo‘lakning o‘zginasi edi. Uzum novdalari xuddi tomga o‘xshab tutashib ketgan. Sariq, qizil yaproqlar lovullab ko‘rinar, oyoq ostida xazon shitirlar edi.

— Qani, uzum yo‘q-ku! — dedi Erkin alanglab.

— Xazonchinak deb shuni aytadi-da! Uzumlari uzib olingandan keyin qolib ketganini qidiramiz. Mana, qara! — Abdulla sap-sariq uzum yaprog‘ini u yoq-bu yoqqa surib mo‘raladi. — Mana, topdim!

Erkin qarasa, chindan ham yaproqlar orqasida bir bosh uzum berkinib yotgan ekan.

— Men uzay, men uzay! — dedi u qo‘l cho‘zib.

— Mayli, uza qol. Ammo xazonchinakning qoidasi — har kim o‘zi topgan uzumni o‘zi uzadi.

Erkin narigi tokning yoniga chopib bordi. Yaproqlarini titkilab qarasa, uzum boshi osilib turibdi.

— Menam topdim! — dedi qichqirib. Ular kechgacha xazonchinak qilishdi. Erkin har gal uzum boshini topganida quvonib ketardi.

## IV

— Yaqinda toklarni ko‘mamiz, — dedi Abdulla.

Erkin hayron bo‘ldi:

— Nega ko‘masizlar?

— Ko‘mmasak, sovuq urib ketadi. Uzum novdalarini xashak bilan o‘rab, yerga ko‘mib qo‘yamiz. Keyin bahor kelib, yer iliganda, yana ochamiz. Tag‘in ishkomlarga ko‘tarib bog‘laymiz.

Erkin toklarni qanday ko‘mishni juda ko‘rgisi keldi.

— Toklarni ko‘mayotganda menam qarashay?
— Bo‘pti.
Kechqurun uyga qaytishayotganda Erkin iltimos qilgan edi, dadasi ko‘ndi:
— O‘rtog‘ingga qarashmoqchi bo‘lsang, albatta, olib kelaman.
Kelayotgan dam olish kuni Erkin o‘rtog‘inikiga yana boradi. Abdullaga yordamlashadi. Tok novdalarini qirqish, bog‘lash, ko‘mish usullarini o‘rganib oladi.

1. Erkinning Abdulla bilan uchrashgani haqida so‘zlab bering.
2. Ishkom tasvirini hikoyadan topib o‘qing.
3. Erkin nima sababdan quvondi?
4. Erkin Abdulladan nimalarni bilib oldi?
5. Uyda uchinchi qism mazmuniga mos rasm chizing.

## QO‘SHTERAK

*Abdusodiq Irisov*

### I

Boqi Haydarkentda turadi. Haydarkent bilan Dushanbe orasida «Yaydoqtepa» degan bir tepalik bor. Tepalikning havosi toza va g‘ir-g‘ir shabada esar edi. Chunki uning etagida suv oqardi.
Bir kuni yo‘lovchi bir chol:
— Shu yerga bir tup daraxt ekilganida juda antiqa joy bo‘lar ekan-da! — deb qoldi. Boshqa odamlar ham unga qo‘shilib: «Ha, soz bo‘lardi», — deyishdi.

Kuz edi. Boqi o'sha cholning gapini eslab qoldi. Ikki tup terak niholini olib, «Yaydoqtepa»ga borib, o'tqazib keldi. Lekin buni hech kim ko'rmadi. Teraklar tezda qad ko'tardi. Oradan uch-to'rt yil o'tgach, «Yaydoqtepa» «Qo'shterak» deb yuritiladigan bo'ldi.

## II

Bir kuni Boqi shahardan qaytayotib, «Qo'shterak»da dam oldi. Shunda bir chol yonboshlab o'tirib: «Zap terak bo'libdi-da, ekkanning otasiga rahmat. Bir kishi ekkandan ming kishi bahra olar ekan. Kim ekkan bo'lsa ham umri boqiy bo'lsin», — dedi. Boqi qulog'igacha qizarib ketdi. Ammo hech narsa demadi.

Xullas, tepalikka qo'shterakni kim ekkanini hech kim bilmadi.

So'ng bir dehqon «Qo'shterak»ka ekin ekib, chayla qurib o'tirdi. Kelgusi yili dang'illama uy qurib, shu yerda qishlab qoldi. Keyin boshqa bir dehqon ko'chib keldi. Bora-bora «Qo'shterak» katta qishloqqa aylandi. Maktab, bolalar bog'chasi, kutubxona va kasalxonalar qurildi. Idora paydo bo'ldi. Ko'chalaridan mashinalar qatnay boshladi. Birovdan qayerliksan, deb so'ralsa, «Qo'shterak»likman, — deydigan bo'ldi.

Boqi bo'lsa teraklariga zavq bilan boqar, teraklar bilan boshi ham ko'kka yetayotgandek tuyulardi.

Kishi bilmas yaxshi ish qilishning ham zavqi bor. Buni Boqiga o'xshaganlar biladi.

1. «Qo'shterak» nomi qanday yuzaga keldi?
2. Nima uchun Boqi teraklarni o'zi ekkanligini aytmadi?

3. Siz Boqiga qanday baho berasiz?
4. O‘zingizga yoqqan qismini so‘zlab bering.
5. «Qo‘shterak»ning obod bo‘lishi haqida gapirib bering.
6. Hikoyaning har bir qismiga sarlavha qo‘ying.

## VA’DA BERDI

*K. Yersarin*

Otasi uyda qolsa, Ra’noning sevinchi ichiga sig‘-maydi. Chunki u otasini savolga tutgani-tutgan. Bugun ham shunday bo‘ldi.

— Dadajon, siz nimani yaxshi ko‘rasiz, bug‘doynimi, gulnimi?

— Ikkovini ham yaxshi ko‘raman. Negaki, ikkovi ham odamga birdek aziz. Xohlasang, shu haqda ertak bor, aytib beraman. Ra’no rozi bo‘ldi.

— O‘tgan zamonda Atirgul bilan Bug‘doy bo‘lgan ekan. Ular qay biri yaxshi ekanligi haqida bahslashib qolishibdi. Osmondagi Quyosh bu bahsni odam yechsin, deb ikkovini Yer yuziga yuboribdi.

Atirgul va Bug‘doy Yerga tushishlari bilan holsiz yotgan odamni ko‘rishibdi. Atirgul uning tepasiga kelib muattar hid taratibdi. Nozik yaproqlari bilan yuzlarini silabdi. Odam ko‘zini ochib, gulga qarab jilmayibdi-da, yana ko‘zlarini yumibdi.

— Ko‘rdingmi, odam menga qarab kuldi! — debdi Atirgul. Bug‘doy esa odamning ochlikdan o‘layozganini sezibdi, unga boshoqlarini tutibdi. Odam boshoqlarni oz-oz chaynab, quvvatga kirib, o‘rnidan turibdi, Atirgulni esa chakkasiga taqib olibdi.

Buni ko‘rgan Quyosh:

— Odam qizlarimning qadriga yetdi. Bundan keyin ular Yer yuzida qolsin, — deb amr qilibdi. Shundan beri Bug‘doy bilan Atirgul Yerda yashab kelar ekan.

— Dadajon, shuning uchun bug‘doy o‘stirganlarni yaxshi ko‘rasizmi?

— Obbo qizim-ey! Axir bug‘doy el-u yurtimizning rizq-ro‘zi-ku! Kim g‘allani yetishtiradigan g‘allakorlarni yoqtirmaydi?

Otasining bu gaplari Ra’noga juda yoqdi. Ra’no katta bo‘lganida g‘allakor bo‘lishga va’da berdi.

1. Ertakni rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Ra’noning otasi so‘zlagan ertakning mazmunini aytib bering.
3. Ra’noning otasiga bergan va’dasini ayting.
4. Siz kim bo‘lishni xohlaysiz?

## Topishmoq

Ko‘k ko‘ylakli bir ayol,
Sariq bola ko‘targan.

*(Sholi)*

* * *

Bemorga malhamdek hayot bag‘ishla,
Chorasiz qolganga najot bag‘ishla.

*Nosir Hisrav*

* * *

Ishga yarab qolsa ilming bir muddat,
Yana oshirmoqqa aylagil shiddat.

*Mirzo Ulug‘bek*

# O‘TMISHNI O‘RGANISH — BURCHIMIZ

## TOSHKENT

*Erkin Malikov*

### I

Juda qadimda Toshkent boshqacha atalardi. O‘shanda ham hozirgidek Sharq darvozasi vazifasini bajarardi. Har tomondan kelgan savdo karvonlari unda to‘xtab, keyin yana yo‘lga chiqishardi. Shahar kengayib, uning atrofidagi yerlar o‘zlashtirilib, Choch degan viloyat tashkil topdi. Toshkent uning markazi bo‘ldi. Uni uzoq vaqt goh Choch, goh Shosh deb yurishdi.

Odamlari dushmanlardan saqlanish uchun shahar atrofini tosh devorlar bilan o‘rashdi. Shaharga kirib-chiqish uchun ulkan darvozalar qurib, soqchilar qo‘yishdi. Samarqand darvoza, Chig‘atoy darvozalar o‘sha davrlardan qolgan. Darvozalarni, devorlarni sayyohlar: «Bu yer Toshqal’a, Toshminor ekan», — deb tarix sahifalariga yozib qoldirishgan. Bu nomlar keyinchalik Toshkent degan nomni keltirib chiqargan.

### II

Toshkent o‘tmishda oddiy mehnatkashlar shahri bo‘lgan. Shaharning ko‘pchilik aholisi hunarmandchilik bilan shug‘ullangan. Ko‘plab mahallalarning nomlari ham ana shundan kelib chiqqan.

Xonadonlarda elektr chiroqlari yo‘q edi. Odamlar qora chiroq yoki sham yoqib o‘tirardilar.

Yerlar omoch bilan haydalardi. Ariqlar esa ketmon bilan olinardi.

Sanoat korxonalari deyarli yo'q edi. Kiyim-kechak tayyorlash uchun charxda ip yigirilib, oddiy dastgohda qo'l kuchi bilan bo'z to'qilardi.

Odamlar bir shahardan ikkinchisiga borish uchun ko'pincha ot-aravalarda va piyoda yurardilar.

1. Toshkentning o'tmishi haqida nimalar bilasiz?
2. Shaharda qanday darvozalar qurilgan? Nima sababdan?
3. O'tmishda shahar aholisi nima bilan shug'ullangan?

## JALOLIDDIN MANGUBERDI

Chingizxon harbiy kuch bilan Urganchni bosib ololmagach, hiyla ishlatishga o'tdi. Mo'g'ullar Jayhunning toshqinidan saqlab turadigan to'g'onni ochib yubordilar. Shaharni suv bosdi. Hamma imoratlar qulab, suv ostida qoldi. Ko'plab aholi halok bo'ldi.

Bu vaqtda shahzoda Jaloliddin mo'g'ullarga qarshi kurashish uchun Eron va Afg'onistonda qo'shin to'play

boshlagan edi. U mo'g'ul lashkarlarini Nesa[1] yonida tor-mor qildi. So'ngra juda ko'p qo'shinni birlashtirib, Panjsher viloyatidagi Parvona shahri atrofida ham mo'g'ullar bilan qattiq kurashdi va dushman ustidan g'alaba qozondi. Juda ko'p o'lja olindi.

Jaloliddin lashkarboshilari o'ljani taqsimlay boshladilar. Shu payt oralarida nizo chiqib, lashkarboshilarning ko'pchiligi ketib qoldi. Jaloliddinning askarlari kamayib ketdi.

* * *

Chingizxon uchun qulay vaqt yetdi. U Hind daryosi sohilida Jaloliddinga qarshi yurish boshladi. Jangda son jihatdan ko'p bo'lgan mo'g'ullar g'alaba qozondi.

Jaloliddin dushman qo'lida bandi bo'lishni istamadi. O'z onasi, xotini va bolalarini (o'z istaklariga ko'ra) Chingizxon qo'liga tushmasin deb, noiloj daryoning tezoqar joyiga tashladi. O'zi esa sodiq navkarlari bilan ot solib, daryoning narigi qirg'og'iga o'tib oldi.

[1] *Nesa* – hozirgi Ashgabad shahri.

Chingizxon uning jasorati, mardligiga qoyil qolib, Jaloliddin orqasidan quvmoqchi bo'lgan askarlarini to'xtatdi.

U lashkarboshilarini uzoqdan o'ziga musht ko'rsatib ketayotgan Xorazmshoh o'g'lidan o'rnak olishga chaqirdi.

Jaloliddin bu fojiali jangdan so'ng yana o'n yil davomida mo'g'ullarga qarshi kurash orzusida kuch to'pladi.

Dushman bilan bo'lgan jangda goh yengdi, goh yengildi. Sarkarda 1231- yili Kurdistonda fojiali halok bo'ldi.

1. Chingizxon qanday hiyla ishlatdi? Nima uchun?
2. Jaloliddinning mo'g'ullarga qarshi kurashini so'zlab bering.
3. Chingizxonning Jaloliddinga qoyil qolish sabablarini gapirib bering.
4. Hikoya qahramonlaridan qay biri sizga yoqdi? Nima uchun?
5. Qaysi voqea sizni hayajonga soldi? O'qib bering.

## MEHNATKASH QIZ

*(«Qutlug' qon» romanidan)*

*Oybek*

Shokir otaning kichkina, shinamgina hovlisi. Bu yerda Unsin ismli yetim qiz ikki yarim oydan buyon yashaydi. Shokir ota va uning kampiri qizning ko'nglini ko'tarishga tirishadilar. Otaning biri olti, biri to'rt yashar yetim nabiralari ham Unsinni yaxshi ko'radilar.

Unsin uy ishlarida kampirga ko'maklashadi. Bolalarni yuvintiradi, eski-tuski kiyimlarni yamab-yasqab,

butun qiladi. Kechqurun sho'rva, atala-umoch, moshxo'rda kabi ovqatlarni pishiradi. Shokir ota boshliq hammalari o'rtada baham ko'rishadi. Lekin qiz bularni ish deb hisoblamaydi.

Unsin otaning mehnatkashligini yaxshi biladi. U otaning ishini yengillatishni istaydi. Dastlab ip eshib, mumlab beradi. Mahsilarga shon qoqadi, shondan tushiradi, pardozlaydi, lok surkaydi. Ammo bu bilan otaning ishi yengillashmaydi. Unsin oilaga yordam berish chorasini ko'p o'ylaydi. Oxiri mahsi tikishni o'rganishga qaror qiladi. U Shokir otadan shogirdlikka olishini so'raydi. Ota avvaliga rozi bo'lmaydi. Keyinchalik qizning intilishini ko'rib, mahsi tikishni o'rgatadi. Ota unga so'zan, bigiz tutishni ko'rsatadi. Ziyrak qizning qo'li darrov kelisha qoladi.

Tagiga kichkina kursi qo'yib, epchil quloch tortadi. Birinchi kunlardanoq chokni pishiq tikishi bilan usta Shokir otani hayron qoldiradi. Endi ular o'rtasida

ish taqsim qilinadi: chol do'konxonada o'tirib, ish bichib beradi. Unsin uni ichkari uyda o'tirib tikadi. Shunday qilib, otaning ishi ancha yengillashdi. Ota endi har kim keltirgan yamoqlarni yamash uchun ham vaqt ajratadi. Bunday hayot kichiklikdan mehnatga ko'nikib o'sgan qizni sira bezdirmaydi.

1. Unsinning yumushlari haqida so'zlang.
2. Unsin otadan nimalarni o'rgandi?

Uyda mehnatkash qiz mavzusida o'qiganingiz va rasm asosida insho yozing.

## Maqollar

- Daraxt yaprog'i bilan ko'rkam,
  Odam — mehnati bilan.

- Daryo suvini bahor toshirar,
  Odam qadrini mehnat oshirar.

## Topishmoqlar

- Bir chuqurda ming o'ra.

  *(Angishvona)*

- Hammaga to'n tikadi, o'zi yalang'och.

  *(Igna)*

## O'G'LON

*(«Qirq hadis»dan)*

Bir zamonlar yo'llarda qaroqchilar ko'payib ketibdi. Ular o'tgan-ketgan karvon va yo'lovchilarga hujum qilar, narsalarini talar ekanlar. Asir tushganlarni

bozorda qul qilib sotar ekanlar. Qaroqchilarning shunday hujumlaridan birida bir keksa odam asir tushib qolibdi. Qaroqchiboshi cholga:

— Agar qul bo'lib sotilishni istamasang, sen bizga avval yuz tanga oltin top, keyin qo'yib yuboramiz,— debdi.

Chol kambag'al ekan. Shunday bo'lsa ham oilasiga xat yozibdi: «Meni qaroqchilardan qutqarib olishga qurbingiz yetmasligini bilaman. Ammo holimdan xabardor bo'lib qo'yinglar».

Cholning dovyurak va jasur bir o'g'li bor ekan. Xatni o'qib, qaroqchilar makoniga boribdi.

— Og'alar! Bular mening otam bo'ladilar. U kishini tekinga qo'yib yuboringlar, demayman. Otam qari, kuch-quvvatdan qolganlar, sotib ham yaxshi pul orttirmaysizlar. O'rnilariga meni sotinglar. Men yoshman, baquvvatman, ko'p pul topasizlar, — deb yolvoribdi. Bu taklif qaroqchilarga yoqib tushibdi va darhol buni boshliqlariga yetkazibdilar. Uzun mo'ylovli qaroqchiboshi uning bu gaplarini eshitib, quloqlariga ishonmabdi va yigitning yoniga kelib:

— Voy-bo'! Dunyoda qanday mard o'g'lonlar bor-a! Bunday insonlarning sadag'asi ketsang arziydi. Otangni senga berdim, ozodsizlar, — debdi.

Bu hikoyat hazrati payg'ambarimizning mana bu ajoyib hadislarini yodga soladi: «Hech bir farzand otasining haqini to'la o'tay olmaydi. Faqat otasi qul bo'lsa-yu, uni sotib olib ozod etsa, o'shandagina haqini o'tagan bo'ladi».

1. Keksa odamning asirga tushib qolgani haqida so'zlab bering.

2. Qaroqchiboshi cholga qanday shart qo‘ydi?
3. Chol yozgan xatning mazmuni nimadan iborat?
4. Nima uchun qaroqchilarning boshlig‘i chol va uning o‘g‘lini qo‘yib yubordi?
5. Hadisni qayta o‘qing. Uning mazmunini hikoyat mazmuni bilan taqqoslang.

## KITOB

*Malik Murodov*

O‘tgan zamonda bir podsho vazir-u ulamolarini yoniga chaqiribdi. Podsho ularga: «Dunyoda eng zo‘r, kerakli va hamma narsadan xabardor qiluvchi nima?» — deb savol beribdi. Ulamolarning biri dunyoda eng zo‘ri qilich desa, ikkinchisi hamma narsadan xabar beruvchi narsa — oynayi jahon, debdi.

— Uch kun muhlat beraman, — debdi podsho hech kimning javobi yoqmaganligidan darg‘azab bo‘lib.

Qo‘shni podsholikda ta’rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashar ekan. Vazir podshoning savoliga shu donishmand javob bera olishiga aqli yetibdi va uni izlab topibdi.

Unga podshoning savolini aytibdi. Donishmand hech ikkilanmay: «Kitob. Chunki kitob bilim beradi. Dunyodagi eng qudratli narsa esa bilimdir», — debdi. Donishmandning vazirga bergan javobi podshoga ma’qul tushibdi.

1. Podsho nima uchun darg‘azab bo‘libdi?
2. Matndan donishmandning javobini toping va o‘qing.
3. Podshoning savoliga siz nima deb javob bergan bo‘lardingiz?

# BOLA ALISHER

*(Qissadan parcha)*

*Oybek*

## I

Alisher yangi taxtachani qo‘ltig‘iga qistirgan, shod va mag‘rur holda otasining oldida borur edi. Onasi ixlos bilan cho‘miltirib, pokiza kiyintirgan. Oppoq salla, mullayoqa ko‘ylak ustidan yengil adras to‘n kiygan, oyoqlarida etik. G‘iyosiddinbek ham soddagina kiyingan. Ustida uzun yaktak, katta salla, oyog‘ida mahsi-кavush.

— Domulla mo‘tabar odam. Hurmat ila salom berib, qo‘lini o‘p! — deb G‘iyosiddin o‘g‘lining yelkasini quchdi.

## II

G‘iyosiddinbek o‘g‘lini yetaklab maktabxonaga kirdi. O‘qish shovqini shartta to‘xtadi.

Bolalar duv etib o‘rinlaridan turdilar va «Assalomu alaykum!» deya ta’zim qilgach, qayta o‘rinlariga cho‘kdilar. G‘iyosiddin Alisherning qo‘lidan ushlagan holda domulla oldiga borib, ehtirom ila salom berib ko‘rishdi. Alisher ham:

— Assalomu alaykum, taqsirim! — deya egildi-da, qizarib domullaning qo‘lini o‘pdi.

— Borakallo, o‘qishga keldingizmi? Balli, o‘g‘lim! — dedi domulla.

— Balli! Taxta keltirdingizmi, bo‘tam? Ko‘p yaxshi. Alifboning avval harfi Alloh taoloning muborak ismidan boshlanur. Buni aslo unutmagaysiz, — dedi.

## III

G‘iyosiddin domullaga qulluq qildi. U tugunni domulla oldiga surdi va kissasidan bir tillo chiqarib, ta’zim ila domullaga tutdi.

— Tashakkur, taqsir, eti sizniki, suyagi bizniki. Endi kaminaga javob bersinlar, — deya qo‘lini ko‘ksiga qo‘ydi.

— Alisher mullo bo‘lg‘ay! — deya jiddiy va ulug‘vor ohangda domulla duo qilib, qo‘llarini yuziga surtdi.

G‘iyosiddin ham unga ergashib ixlos ila duo qildida, xayrlashdi.

1. Matndan Alisherning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan o‘rinni toping va ovoz chiqarib o‘qing.
2. G‘iyosiddin domulla haqida gapirib, Alisherga nima deb nasihat qildi? So‘zlab bering.
3. Alisher ota nasihatini qanday qabul qildi?
4. Ikkinchi qism o‘qilayotganda siz o‘zingizda o‘zgarish sezdingizmi? Nima uchun?

## CHO‘PON YIGIT SHIROQ

*(Afsona)*

Eron shohi Doro O‘rta Osiyoga hujum qildi.

Massaget, sak va sug‘d qabila boshliqlari Doroni yengish to‘g‘risida maslahatlashmoqda edilar. Shunda ular huzuriga oddiy cho‘pon — Shiroq keldi va ularga o‘z maqsadini aytdi, u o‘z joni-

dan kechib, hiyla bilan dushmanni qirib tashlamoqchi edi...

Shiroq xanjari bilan o'z quloqlarini, burnini kesdi va dushman qarorgohi tomon yo'l oldi.

— Shohim, men, qulingiz Shiroq, qabila yig'ilishida Sizga taslim bo'lishni aytgan edim. Meni shu ahvolga solishdi.

Ulardan o'ch olish niyatida huzuringizga keldim. Men ularning qayerga lashkar to'plaganini bilaman. Sizlarni o'zim boshlab boraman. Yetti kunlik oziq-ovqat g'amlang, — dedi.

Doro Shiroqning so'zlariga ishondi. Shiroq ularni yetti kun deganda cho'l-u biyobonga boshlab bordi. Sakkizinchi kuni ochlik, to'qqizinchi kuni tashnalik boshlandi. Ana shundagina Doro aldanganini bildi.

— Bizni qayerga olib kelding? Qani saklar?! — deb so'radi shahanshoh.

— Men bir o'zim qudratli shahanshohni yengdim, — dedi Shiroq.

G‘azablangan lashkarboshi — Ranosbat qilichini chiqardi. Ammo Doro uni to‘xtatdi. Doro yonidagi oltinlarni, olmos qadalgan toji, zabarjadlar taqilgan qilichini Shiroqning oldiga tashladi:

— Hamma oltin cho‘ponga! – hayqirdi shoh.

Tezda Shiroq ro‘parasida ulkan oltin tog‘i paydo bo‘ldi. U esa: — Butun dushman lashkarini mag‘lub qildim. Qabilamni, ona tuprog‘imni dushmandan saqlab qoldim, — dedi mag‘rur turib. Lashkarboshi g‘azab bilan Shiroqning bo‘yniga qilich soldi. Eron lashkarini esa issiq quyosh, suvsizlik, ochlik kutmoqda edi.

1. Eron shohi Doroning maqsadi nima edi?
2. Shiroq kim? U nima uchun jonidan kechishga rozi bo‘ldi?
3. Doroning aldanishini so‘zlab bering.

Uyda shoh savoliga Shiroqning bergan javobini yod oling.

## OLTMISH GAZ ARQON

*(Ertak)*

*Oydin*

Qadim zamonda yurtni birdan yov bosib kelar ekan. Hammaning ishi ishda, oshi oshda qolib, jang maydoniga qarab yugurar ekan. Bir kampir shaharning chekkarog‘ida, tog‘ yonbag‘rida yolg‘iz o‘g‘li bilan yashar ekan.

Kunlarning birida echki sog‘ib o‘tirsa, birdan «yov bosdi» degan xabar eshitilibdi. Kampir yugurganicha uyiga kiribdi. Shirin uyquda yotgan o‘g‘lini uyg‘otibdi.

— Tur, o‘g‘lim, shaharni yov bosdi. El-yurt qo‘z-g‘aldi, — debdi.

O‘g‘li ham bir so‘z demay, g‘azabga to‘lib, eshik orqasidan katta cho‘qmorni olib yelday yuguribdi.

* * *

Kampir dod-voy demay bisotidagi bittagina yostig‘ini olib so‘kibdi. Ichidan yungini sug‘urib olibdi. To‘rtta savag‘ich bilan tap-tap urib, par singari qilib titibdi. Keyin yungdan arqon eshaveribdi. Arqoni oltmish gazcha bo‘lgan ekan, devor orqasidan qo‘shnisi qarab:

— Hoy, qo‘shni, turing, qochamiz! Yov yaqinlashib qoldi, — debdi.

Kampirning fig‘oni falakka chiqibdi.

— Yurtdan, eldan ayrilib qochgandan ko‘ra, qora yerga kirsak bo‘lmaydimi, qo‘shni! Nahotki uyalmay shu gapni aytsangiz! Yov yaqinlashgan bo‘lsa, yuring, soqolini bitta-bitta yulaylik! — debdi va arqonni qo‘ltiqlab yo‘lga tushibdi. Qo‘shnisining ham ori kelib, kampirning ketidan ketibdi.

* * *

Kampir bilan qo‘shnisi jang maydoniga yetib borishibdi.

Qarasalar, yov tog‘ tepasiga chiqib olib, shahar xalqini toshbo‘ron qilyapti. Qancha qon to‘kilibdi. Yigitlar daraxt ustida, tog‘ o‘ngirlarida turib, sopqon otib, dushman bilan jang qilmoqda edilar.

Kampirning o‘g‘li bir cho‘qqining yoniga chiqib olibdi. U boshqa yigitlarni ham chiqarish yo‘lini izlab, ko‘zi javdirab turibdi. Buni ko‘rgan kampirning yuragi o‘t bo‘lib yonibdi.

U qo‘lidagi arqon bilan katta chinor ustiga chiqibdi. Arqonni o‘g‘liga qaratib otibdi. O‘g‘li tezda arqonning bir uchini cho‘qqiga bog‘labdi. Ikkinchi uchini qo‘shnisiga uzatib: «Ushlang, qo‘shni, bor gavdangiz bilan arqonga osilib turing», — debdi va arqondan o‘zi ham pastga tushibdi, yigitlarni imlabdi. Ikki ayol arqonning bir uchini yerga bosib, osilib turishibdi. Bir zumda pastdagi odamlar arqonga chirmashib, tog‘ga chiqib olishibdi.

Tog‘ ustida jang qizib ketibdi. Yovni tog‘dan toshdek tappa-tappa yumalatib tushira berishibdi.

Yurt yovdan qutulibdi. Xalq kampirdan minnatdor bo‘libdi.

1. Ertakdan nimalarni bilib oldingiz?
2. O‘zingizga yoqqan qismni hikoya qiling.
3. Ertakning xulosa qismini toping va o‘qing.
4. Ertakda xalqning qanday orzusi ifodalangan?

Ikkinchi qismning oxirgi xatboshisini yod oling.

# KUMUSH QISH

## QISH

O‘lkamizda dekabr oyida oltin kuz o‘rnini qish fasli egallaydi. Bepoyon dalalarni, bog‘larni oppoq qor qoplaydi. Hammayoqda sovuq izg‘irin kezadi. Ertalab va kechqurunlari kimdir quloq, burunlarni chimchilab, hazil qiladi. Qish manzarasini yozuvchi Oybek domla juda chiroyli ifoda etgan:

Qish kechasi, guvullar shamol,
Dalada qor, qush inida qor.
Ingrar og‘riq kabi qari tol,
Oynalarni bezar qish — gulkor.

Qishda yerga sepilgan urug‘lar qor ostida zararsiz turadi, muzlamaydi. Bahorda qorlar eriydi. Qor suvlari yerning tashnaligini qondiradi, hosilning mo‘l

bo'lishiga yordam beradi. Hozir urug'lar tinch uyquda. Daraxt kurtaklari rohatlanib uxlamoqda. Ayiqlar ham, bo'rsiqlar ham, kaltakesaklar ham, tipratikanlar ham in-inlarida tinch uxlab orom olmoqda.

Qish faslida, ayniqsa, dekabr oyida juda tez qorong'i tushadi. Kun qisqa, tun esa uzun bo'ladi.

*«Yilnoma»dan*

1. O'lkamizda qish fasli qaysi oydan boshlanadi? Qishning belgilarini ayting.
2. Qish fasli haqidagi to'rtlikni kim yozgan?
3. *«...kimdir quloq, burunlarni chimchilab, hazil qiladi»* gapini qanday tushundingiz?
4. Matnda urug', daraxt va hayvonlar haqida nima deyilgan? Shu o'rinni toping va o'qing.

## BIRINCHI QOR

*Shuhrat*

Guppa-guppa yog'ar qor,
Go'yo ko'kda ini bor.
Tomlar oppoq, yer oppoq,
Shox, novdalar arg'imchoq.
Qarg'a qag'-qag' etadi,
Ko'nglini chog' etadi.
Ol chanangni, ey G'iyos!
Chana otmoq qanday soz!
Mayli, vaqti, ko'p yog'sin,
To'xtamasin, xo'p yog'sin.
Qishning ko'rki oq qordir,
Yog'masa qish bekordir,
Yog'sin endi bearmon,

Bearmonu sho'x-shodon!
Olam kiysin oq libos,
Oq libosi qanday soz!
Oq yo'l senga, oppoq qish,
Himmatingga ming olqish!

1. She'rda qish manzarasi qanday tasvirlangan? Shu satrlarni toping va o'qing.
2. Shoir qorning foydasi haqida nimalar deydi?
3. «*Olam kiysin oq libos, Oq libosi qanday soz!*» satrlarini qanday tushundingiz?
4. She'rni ifodali o'qishga tayyorlaning.
5. «Xalq og'zaki ijodi» bo'limidan qor haqidagi topishmoqlardan birini o'qing.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992-yil 8- dekabrda qabul qilindi.

8- dekabr umumxalq bayrami kuni deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi kuni — 8- dekabr dam olish kuni deb belgilandi.

Konstitutsiya Vatanimiz kelajagi uchun, xalqimiz uchun xizmat qiladi.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilindi?
2. 8- dekabr qanday kun deb e'lon qilingan?
3. Konstitutsiya kim uchun xizmat qiladi?

## BOSH KITOB

*Safar Barnoyev*

Ozod, erkinlikning
Ramzi — bu kitob.
Unda aks etgandir
Haq-huquqimiz.
Yo‘limiz yoritar
Misoli oftob.
Qo‘lda baland tursa
Agar tug‘imiz.
Millionlar taqdiri
Unda mujassam.
Qomus[1]lar qomusi
Deydi xalqimiz.
Yer sharin yoritdi
O‘zbekiston ham.
Yurtga fido bo‘lsak,
Kular baxtimiz.

She’rni yod oling.

## QISH ZAVQI

*Hamidulla Yoqubov*

Tom ustida pashmak tolqon,
Kappa-kappa yesammi?
Tarnovlardan chak-chak oqqan
Suvni sharbat desammi?

[1] *Qomus* — hayotning yoki bilimning biror sohasiga oid to‘liq asar, majmua.

Sumalaklar shokilasi,
Novvot bo‘lib qotibdi.
O‘rik, tutning shox, novdasi,
Nisholdaga botibdi.

Qor qiyomin shimib shudgor —
Semirar qishi bilan.
Chigit eksak, dovrug‘i bor,
Paxtakor ishi bilan.

Ish ham shirin, qish ham shirin,
Go‘zal har bir faslimiz.
Kuyim jo‘shqin! Aytsam sirin:
Zavq bergan hur xalqimiz!

1. She’rni to‘xtamlarga rioya qilib, ifodali o‘qing.
2. Shoir she’rda qorni nimalarga o‘xshatgan?

## CHANA

*O‘tkir Hoshimov*

Farhodning dadasi chana olib keldi. Chananing orqasida suyanchig‘i bor. Sirpanchiq qanotlari yaraq-yaraq qiladi.

— O‘g‘lim, chanangni o‘rtoqlaring bilan birga uchgin, xo‘pmi? — deb tayinladi dadasi.

Farhod indamadi. Ertasiga nonushta qilar-qilmas, chanasining ipidan tortib, ko‘chaga chiqdi. Osmondan kapalak qor yog‘ar, bolalar qiy-chuv ko‘tarib o‘ynashardi. Birov sirpanchiq uchar, birov qorbobo yasar edi.

Bolalar Farhodni ko‘rishlari bilan atrofini o‘rab olishdi.

Farhod bo‘lsa:

— Qochinglar, bosib ketadi! — deb chananing ipidan mahkam ushlab oldi-da, Shavkatni turtib o‘tib ketdi. Ko‘chaning narigi betidagi tepalikka chiqa boshladi.

— Meni ham uchir,— dedi Dildora unga ergashib.

— Ho, sinib qoladi,— dedi Farhod va chanasini sudrab ketaverdi.

Tepalikning ustiga chiqib, chanaga o‘tirib oldi. Keyin oyog‘i bilan bir siltagan edi, chana shuvullab pastga uchib ketdi. Farhodning yuziga qor uchqunlari urilar, chana esa qushdek uchib borar, uning qulog‘i ostida shamol g‘uvullar, ammo u sovqotmas edi.

Chana pastga tushganidan keyin to‘xtab qoldi. Farhodning yoniga Bahodir yugurib keldi va Farhodga qarab:

— Galma-galdan ucha qolaylik. Bir gal sen tortasan, bir gal men tortaman, — dedi.

Shunda Farhod:

— Yo‘q, ipi uzilib ketadi,— dedi-da, qovog‘ini solib oldi. Bahodir Farhodning qizg‘anchiqligidan xafa bo‘ldi va sirpanchiq uchayotgan bolalarning oldiga ketib qoldi.

U yana tepalikka chanasini sudrab chiqdi. Keyin pastlikka uchib tushdi. Besh-olti marta shunday qilgandan keyin charchab qoldi.

Farhod chanasini sudrab bolalarning oldiga bordi:

— Yur, Bahodir. Galma-gal uchamiz, — dedi.

— Kerakmas! Men bolalar bilan o‘ynayman, — dedi Bahodir.

Farhod Dildoraning oldiga bordi:

— Yur, Dildora, ikkalamiz tepalikdan chanada tushish o‘ynaymiz, — dedi.

— Hali bermading-ku chanangni! Endi kerakmas,— dedi Dildora va qizlar bilan qorbobo yasayverdi.

Farhod ularning o‘yinini birpas tomosha qilib turdi-da, zerikib ketdi. Bolalarning oldiga boray desa, Bahodir bilan Shavkatdan uyaladi. Bitta o‘zi chana uchay desa, hech ham qizig‘i qolmadi.

U alam qilganidan yig‘lab yuboray dedi. Dadasi nima uchun: «Chanangni bolalar bilan birgalashib uchgin», — deganini endi tushundi. Sekin-sekin bolalarning oldiga bordi-da, chanani ularning o‘rtasiga surib qo‘ydi va:

— Hammamiz galma-galdan uchamiz, bo‘ptimi? — dedi sekingina.

Bolalar bu safar yo‘q deyishmadi.

1. Otasi Farhodga nima deb tayinladi?
2. Bahodir kimdan, nima uchun xafa bo'ldi?
3. Matndan Farhodning qizg'anchiqligi ifodalangan gaplarni topib o'qing.
4. Farhod o'z xatosini qachon tushundi?

## AYAMAJIZ[1]

*Qudrat Hikmat*

Biyday cho'lu dalalar,
Bo'ralar qor kapalak.
Bog'lar sokin, mizg'ishar
Misoli oq kapalak.

Muz oynalar sovuq yeb,
Anhorchada qirsillar.
Tarnovlarda sumalak
Shodalari chirsillar.

Saxiy ona tabiat
Quchog'ida havo sof.
Onda-sonda ko'rinar
Nursiz, qizg'ish oftob.

Ayamajiz izg'iydi
Ko'chalarda tutoqib.
Shox-shabbani tortqilar
Yalmog'izdek yutoqib...

Ko'k maysalar nish urib,
Yerning baland-pastida,
Go'zal bahor serkillab
Yetilar qor ostida.

[1]*Ayamajiz* — ayyom(i) ajuz — qishning oxirgi haftasi.

1. She'rning birinchi to'rtligini o'qing va *«Bo'ralar qor kapalak», «Misoli oq kapalak»* misralarining ma'nosini tushuntirib bering.
2. Uchinchi to'rtlikda nima deyilgan?
3. Ayamajizda tabiatda qanday hodisalar ro'y beradi?

## Topishmoqlar

O'tda yonmaydi,
Suvda botmaydi.

*(Muz)*

Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.

*(Shamol)*

# QISH ERTAGI

*Aziza Ahmedova*

### I

Havo kundan kun soviy boshlabdi. Sovuqdan qo'rqqan qushlar issiq o'lkalarga uchib ketibdilar.

Sovuqdan dir-dir qaltirashayotgan Tipratikan, Qizilishton, Quyon bir joyga yig'ilishib, suhbat qurishibdi.

— Men qiladigan ish qolmadi, endi dam olaman. Bugun-erta qor yog'ib, hammayoq po'stinga o'raladi. Daraxtlarda qolgan qurt-qumursqalarni sovuqning o'zi ham tinchitadi, — debdi Qizilishton.

— Nimalar deyapsan, hoy o'rmon shifokori? — debdi unga Quyon. — Nahotki endi hech kimga keraging bo'lmasa?

— Voy, voy, voy! Shunaqa ham sovuq bo'ladimi? Endi qayerda jon saqlaymiz? — deya baroqdum Tulki kelib qolibdi. Tulkini ko'rgan Quyonning jon-poni chiqib ketibdi.

Shu payt Qizilishton:

— Kelinglar, bir boshpana yasaylik. Qishga kerakli hamma narsani uyga tashib olamiz-da, yashayveramiz,— debdi.

— Yaxshi taklif. Lekin sizlarning qishga g'amlaganlaringizni biz, tulkilar yeya olmaymiz. Bizga tovuq, quyon, qush go'shti kerak, — debdi-da, Tulki ko'zlarini surbetlarcha Qizilishtonga qadabdi. Sal nariroqqa, quyuqroq butalarning orasiga kirib olibdi. Qizilishton ham qaltirab, qo'nib turgan butog'iga mahkamroq yopishib olibdi va:

— Yegulik haqida keyin o'ylab ko'rarmiz. Hozir boshpana masalasini hal qilaylik, — deb Quyonga o'girilibdi.

## II

Quyonlar yig'ilishibdi. Tulki ham ayyor do'stlari bilan shu yerga to'plangan ekan. Ular birgalikda boshpana qidira boshlabdilar.

Oldinda Tipratikan, so'ng tulkilar, eng orqada esa quyonlar borar edi.

Tulkilardan biri boshqasining qulog'iga shivirlabdi:

— Qornim rosa ochdi-da, kel, mana bu quyonlardan bir-ikkitasini maza qilib tushiraylik.

— Yo'q, yo'q, biroz chidash kerak. Keyin hammasi o'zimizniki bo'ladi, — debdi boshqa Tulki.

Hayvonlar oxiri bir g‘or topishibdi. G‘or kichikroq ekan, bu quyonlarga yoqib tushibdi.

— Yaxshi joy ekan, faqat biz sig‘amiz, bolalari bilan Tipratikanga ham joy topilib qoladi. Biroq Tulkixon bilan do‘stlari o‘zlariga boshqa biror joy topishlari kerak shekilli, — debdi Quyon.

Quyonning gapiga Tulkining jahli chiqibdi. Ammo jahli chiqqanini sezdirmabdi.

— G‘orni biz ham izlashdik. Quyonlar biroz siqilishsa, joy hammamizga yetadi, — debdi Tulkivoy.

— Yaxshisi, g‘orga sizlar avval kirib ko‘ringlar, sig‘sanglar sizlarniki, — debdi Quyon. Bu gap tulkilarga ma’qul kelibdi. Ular g‘orga kirishibdi. Qancha siqilishmasin, tulkilarning hammasi g‘orga sig‘mabdi. Buni ko‘rgan Tipratikan tulkilarga qarab:

— Quyonning gapi to‘g‘ri. Sizlar o‘zingizga joy topishingiz kerak, boshqa iloj yo‘q, — debdi.

1. Jonivorlar nima haqida suhbatlashishdi?
2. Tulkilar nima uchun o‘zlariga joy qidirishdi?
3. Ertakning I, II qismini rollarga bo‘lib o‘qing.

## III

Tulkilar boshqa chora topolmabdilar. To‘planishib shivir-shivir boshlabdilar. Tulkilarning biri:

— Birga tursak yaxshi bo‘lardi. Har qalay, och qolmasdik. Xohlaganda quyonlardan birini tutib yeyish mumkin bo‘lardi. Endi nima qildik? — debdi.

— Rozi bo‘laveraylik. Hozircha topgan-tutganlarini g‘orga tashib, eshikni bekitib o‘tirishaversin. Birdan hujum qilamizu, hammasini qo‘lga tushiramiz, — debdi ikkinchi Tulki.

Maslahatga berilib ketgan tulkilar daraxtdagi Qizilishtonni sezmay qolibdilar. O‘rmon shifokori tulkilarning hiylasidan Tipratikanni xabardor qilibdi. Buni eshitgan quyonlar qo‘rqib ketishibdi.

— Bekorga shivirlashmayotgan ekan-da! — debdi Tipratikan Qizilishtonga rahmat aytib. — Yaxshiyam bizni xabardor qilding. Bechora quyonlar ayyorlarning qo‘liga tushishiga sal qolibdi-ya!

## IV

Tipratikan quyonlarni qutqarish yo‘lini o‘ylay boshlabdi. U quyonlardan birini g‘orga kiritibdi va tuynuk bor-yo‘qligini bilib chiqishini aytibdi. Quyon tashqariga ochilgan kichikroq tuynuk borligini bilib chiqibdi.

Shu payt baroqdum kelib:

— Biz rozimiz. Mayli, bu boshpana quyon do‘stlarimizga bo‘la qolsin. Biz tashqarida g‘orni qo‘riqlab yashayveramiz, — debdi.

Quyonlar rozi bo‘lishibdi. Tipratikan esa quyonlarga tuynukdan tezroq chiqib ketishni ishora bilan tushuntiribdi.

Quyonlar g‘orga kirib, yashirin yo‘ldan chiqib keta boshlabdilar. Quyonlarning oxirgisi chiqib bo‘lgach, Qizilishton Tipratikanga ko‘z qisibdi. Tipratikan tulkilarga g‘orga kirishga ruxsat beribdi.

Tulkilar bir-birlarini bosib-yanchib ichkariga otilibdilar. Biroq u yerda hech kim yo‘q ekan. Aldangan, och tulkilar g‘azab bilan tashqariga chiqishibdi. Bu hiylani Tipratikan o‘ylab topganini darhol bilishibdi. Ular Tipratikanga tashlanishibdi. Tipratikan esa g‘ujanak bo‘lib olib, ular tomonga dumalabdi. Xullas, ayyor baroqdum va uning do‘stlarining maqsadi amalga oshmabdi. Ular sharmanda bo‘lib, jo‘nab qolibdilar.

— Yashavor, Tipratikan og‘ayni! — debdi Qizilishton.—Dono maslahating bilan quyonlarning hayotini saqlab qolding.

— Ha, do‘stim, sen ham katta yordam berding, — minnatdorchilik bildiribdi Tipratikan. — Agar biz birlashmaganimizda, ayyorlar ustidan g‘alaba qilolmas edik.

1. Tipratikan nimaga o‘ylanib qolibdi va qanday tadbir qo‘llabdi?
2. Nima uchun tulkilar o‘z maqsadlariga erisha olmabdilar?
3. Ertak qahramonlariga baho bering.
4. Ertakda qanday fazilatlar ilgari surilgan?

## Maqollar

- Tulkining tushiga tovuq kirar,
  Tovuqning tushiga tariq kirar.

- Do‘sting bilan dildosh bo‘l,
  Qilar ishiga qo‘ldosh bo‘l.

- Ahil ishlasang, ish unar,
  Har mushkul oson bo‘lar.

## YANGI YIL ARCHASIGA

*Erkin Vohidov*

Buncha ham chiroylisan,
Yam-yashilsan har qachon!
Yangi yilning ko‘rkisan,
Sevimlisan, archajon.

Qish boboning uyida
Aziz mehmon — ko‘klamsan.
Bugun uning to‘yida
Ayniqsa soz — ko‘rkamsan.

Ko‘ylagingga juda ko‘p
Zar tugmalar taqilgan.
Shoxlaringda qizil, ko‘k...
Lampochkalar yoqilgan.

Bo‘yim yetmas shoxingga,
Lekin, ey archajonim!
Tabelimda bor senga
Atab tizgan marjonim!

Senga deb tizgan marjon
A’lo baholarimdir.

Kel, taqib qo‘yay, archam,
Shoxlaringni egib tur.

Shoir archani qanday ta’riflagan?

1. She’r mazmuniga mos rasm chizing.
2. She’rni yod oling.

## Topishmoq

Yilda bir bor mehmon bo‘lar,
Yashil sochli opamiz.
Uy to‘riga o‘tqazib,
Taqinchoqlar taqamiz.

*(Archa)*

## Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Qishda o‘lkamiz hayotida qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
2. Qish fasli bolalarga yoqadimi? Buni qaysi asardan bilib oldingiz?
3. Bo‘limdagi qaysi asarlar sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun?
4. Birdamlik, ahillik kabi fazilatlarning ahamiyati haqida so‘zlang.
5. Bo‘limga kiritilgan she’rlardan o‘zingizga yoqqanini yodlab bering.
6. *«Qishda bolalar o‘yini»* mavzusida uy inshosi yozing.
7. Shu bo‘limdagi qaysi asarda ahillik bilan ish olib borilganligi tasvirlangan? Ishtirokchilarini ayting. Ular nima ish qildilar?

# VATAN POSBONLARI

## O‘ZBEKISTON POSBONLARI

*Safar Barnoyev*

Botirlarni kuylab kelgan
Elning ertak, dostonlari.
Har so‘zini bilar dildan,
O‘zbekiston posbonlari,
O‘zbekiston posbonlari!

Bilar yurtning shoni bo‘lak,
Bo‘lak yer-u osmonlari,
Sadoqatli, chin dovyurak,
O‘zbekiston posbonlari,
O‘zbekiston posbonlari!

Jasurlikda yo'qdir taraf,
Farzandim der, sarbonlari,
Xizmat qilish deydi sharaf —
O'zbekiston posbonlari,
O'zbekiston posbonlari!

Yigitmisan-yigit bari,
Omon bo'lsin tan, jonlari,
Yomonlikdan yashar nari —
O'zbekiston posbonlari,
O'zbekiston posbonlari!

1. She'rni to'xtamlarga rioya qilib, ifodali o'qishga tayyorlaning. Qofiyadosh so'zlarni aniqlang.
2. *Sarbon* so'zining o'rnida boshqa qanday so'z ishlatish mumkin?

She'rni yod oling.

## BUGUN BOLASIZ, ERTAGA ASKAR BO'LASIZ

***Muxbir:*** — Iskandar aka, ayting-chi, bolalarning tashqi ko'rinishi, xatti-harakatiga qarab askarlarga xos fazilatlarni bilish mumkinmi?

***Rahmonov:*** — Albatta mumkin. Bolalarning qo'rqoq yoki botirligi, dangasa yoki mehnatkashligi, chaqqon va epchilligi shundoqqina ularning harakatidan bilinib turadi. Darvoqe, xalqimizning «Bola boshidan...» degan iborasi ham bor.

***Muxbir:*** — Askar bo'lish uchun bolajonlarimiz oldindan qanday tayyorgarliklarni ko'rib borishlari kerak?

***Rahmonov:*** — Gapi og'zidan tushib ketadigan, onasining etagiga yopishib, hiqillab yuradigan erkatoylardan chinakam askar va zobitlar chiqmaydi. Harbiy xizmatda askarlar juda qisqa fursat — 45 soniyada boshdan oyoq kiyinib, safga turishlari kerak. 20 daqiqa davomida yuvinib, taranib, soqolini olishi lozim. Ertalabki nonushta va kechki ovqatlanishga 20 daqiqadan, tushlikka esa 30 daqiqa ajratiladi. Askarning ust-boshi doimo ozoda, kiyimi dazmollangan bo'lib, poyafzali yaraqlab turishi shart! Bularni unga birov qilib bermaydi.

Ularni bajarish oson emas. To'g'ri, kimki kichikligidan shunaqa fazilatlarga ega bo'lsa, ularga birmuncha oson bo'ladi. Erkatoylar esa judayam qiynalishadi. Bolalarimiz, avvalo, sog'lom bo'lishlari kerak. Sog'lomlik esa jismoniy tarbiya, turli harakatli o'yinlar va sport bilan muntazam shug'ullanishni talab qiladi.

***Muxbir:*** — Ha, to'g'ri. O'tmishda ham, hozir ham Vatanni qo'rqoq, nomardlar emas, balki mardlar qo'riqlagan, qo'riqlaydi. El ana shunday mardlarni olqishlaydi, ardoqlaydi. Askarlik hayoti o'tadigan harbiy bo'linma esa mardlar maktabidir.

***Rahmonov:*** — Shunday, bolajonlarimiz mardlar maktabida chiniqib, toblansinlar. Mustaqil O'zbekistonimiz Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish har bir farzand uchun sharafdir.

*Qurolli Kuchlar faxriysi, iste'fodagi tibbiy xizmat podpolkovnigi Iskandar Rahmonov bilan suhbat*

1. Suhbatdan nimalarni bilib oldingiz?

2. *«Bola boshidan...»* iborasi kimning nutqida uchradi? U nima uchun shu iborani ishlatdi?
3. Maqolada askarlarning tartibga bo'ysunishlari, ko'rinishlari haqida nimalar deyilgan?
4. *«Mardlar maktabi»* deganda nimani tushundingiz?

## Maqollar

- Uquvi bor ulg'ayar,
  Uquvi yo'q sarg'ayar.

- Chaqqon chora topar,
  Beparvo — bahona.

- Bo'ladigan bola boshidan ma'lum.

## DUNYONI SAQLAR BOLALAR

*(Qo'shiq)*

*Kavsar Turdiyeva*

Ko'zlar bilan, do'stlar bilan,
Sizlar bilan dillashaylik.
Mehr bilan, sog'inch bilan,
Quvonch bilan birlashaylik.
Bu birlikni, ahillikni
Buzay demang, ovoralar.
Vatan bo'ylab,
kuylab-kuylab
Hayotni saqlar bolalar.

*Naqarot:*

Dunyoni poklar bolalar,
Ishonchni oqlar bolalar,
Tinchlikni yoqlar bolalar,
Quvonchni xohlar bolalar,
Ishongan bog'lar — bolalar,
Suyangan tog'lar — bolalar.

Kelajakning iplariga
Umidni bog'lar bolalar.
Eshit, zamin, eshit, samo,
Bizning kuyni eltsin navo.
Mehr bilan tutashsa qalb,
Boshimizga qo'nar Humo.
Humo qushim, samo qushim,
Qutlar gullar, favvoralar.
Yurtga shodlik va obodlik,
Keltirar kimlar?
Bolalar!

*Naqarot:*

1. Qo'shiqni ifodali o'qishga tayyorlaning.
2. Ovoz va to'xtamlarga ahamiyat bering.

## BOBONUR

*Safar Barnoyev*

*(Hikoya)*

Nigina akasidan kelgan xat qatidagi rasmni ko'rib, ko'zlari chaqnab ketdi. Sabriya bibinikiga chopdi.

– Bibijon, bibijon! Suyunchi bering.

Devor-darmiyon qo‘shni Sabriya bibi quroqlarni bir-biriga ulab o‘tirardi. «Ha, bolam, tinchlikmi?» — degandek boshini ko‘tardi. Nigina akasining rasmini orqasiga yashirib:

— Bibijon, oldin suyunchini bering, keyin ko‘rsataman, — dedi.

Sabriya bibi cho‘ntagini kovlay boshladi.

— Mana, bolam, — kampir ikki dona qurutni unga uzatdi. Nigina esa rasmni kampirga berdi.

Sabriya bibi suratni olib sinchiklab tikildi. Uning chehrasi yorishdi.

— Axir bu o‘zimning Bobonurim-ku! Voy, bibiginang aylansin. Qizim, mana bularga qara, ko‘zimga issiq ko‘rinyapti.

— Bibijon, Bobonur akam uzoq joyda emas, Samarqandda xizmat qilyaptilar.

Sabriya bibi:

— Bobonurim askar emasmi?

– Askarlar, — tushuntirdi Nigina, — ular Samarqandni qo‘riqlaydilar.

— A, — dedi Sabriya bibi, — Samarqandni qo‘riqlaydimi?

Song:

— Xayriyat-ey, — deb o‘yga toldi.

Qishloq yigitlari birin-ketin bo‘y cho‘zib, harbiyga keta boshladi. Bibi ularning harbiyga jo‘natish marosimiga patir yopardi. Yigitchalar bilan xayrxo‘shlashar ekan, yopgan patiridan olib chiqib:

– Nevaraginam, mana bu yeridan tishla, eson-omon kelsang, rizqingni o‘zing yersan, — deb patirni ilib qo‘yardi.

Ko‘pchilik kelib, o‘z nasibasini olib ketdi.

Bobonur armiyaga ketar kuni ham Sabriya bibi patir tutqazib:

— Mana buni issiqligida tishla, bolam, nasibang doim butun bo‘lsin! – deb uyga kirib ketgan edi...

Bibining kiprigida yosh qalqidi. Buni ko‘rgan Nigina so‘radi:

– Bibijon, nega yig‘layapsiz?

– Bobonurning rizqi butun ekan, shunga quvonganimdan yig‘layapman, bolam. Nasib etsa nevaraginamni o‘zim borib ko‘rib kelaman.

– Topolmaysiz, – erkalandi Nigina.

– Topaman, yurtimda adashmayman.

Sabriya bibi rasmni qaytarib berar ekan, qo‘lini ochib duo qildi:

– Iloho yurtimizga ko‘z tegmasin, mustaqilligimiz mustahkamlanib borsin.

1. Nima uchun Sabriya bibining chehrasi yorishdi?
2. Bibi qishloq yigitlariga armiyaga jo‘nashlarida qanday tilak bildirar edi? Bobonurga-chi?

## BOTIR ASKARCHA

*Habib Rahmat*

— Dadajon, askar akam
Qadam tashlar gurs, gurs, gurs.
Vatanimga, xalqimga
Sodiqman deb bergan so‘z.
— Shundaymi?

— Shunday!
— Men ularning ukasi,
Qanday bo‘lishim kerak?
Vatan ishiga tayyor —
Bo‘lib turishim kerak.
— Shundaymi?
— Shunday!
— Vatanimni, xalqimni
Ko‘z qoramdek saqlayman.
Askar akamga o‘xshab
El ishonchin oqlayman.
— Shundaymi?
— Shunday!
Ofarin ota o‘g‘il.
Tilginangga bol, shakar.
Sen ham bir kun ulg‘ayib,
Bo‘lasan botir askar.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Ota-bolaning nutqidan nima tushundingiz?
3. Bolaning istagi nima?

## ISTIQLOLGA SHARAF-SHON

*Abdulhay Nosirov*

O‘zbekiston davlati,
Bizlar uning qudrati.
Quyosh kabi yashnaymiz,
Safda qadam tashlaymiz,
Bir, ikki, uch...

Bir, ikki, uch...
Mustahkam sarhad[1]imiz.
Eng ulug‘ maqsadimiz —
Yurtimizni bog‘ etmoq,
Ko‘ngillarni shod etmoq.
O‘zbekiston askarlari,
Buzilmaydi saflari.
Istiqlolga sharaf-shon,
Istiqlolga sharaf-shon.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’rdagi qofiyadosh so‘zlarni daftaringizga ko‘chiring.

She’rni yod oling.

## Maqollar

- El boshiga tushgani —
  Er boshiga tushgani.

- Urush — ofat,
  Tinchlik — farog‘at.

- Tinchlik urushni yengar.

- Tinchlik bilan el ko‘karar,
  Yomg‘ir bilan — yer.

- Yigitning botirini maydonda sina.

[1] *Sarhad* — chegara, hudud.

## BIZ — ISTIQLOL FARZANDLARIMIZ

*Rauf Tolib*

Tug‘ildik biz orzu bo‘lib,
Dilga tushgan yog‘du bo‘lib,
O‘zimizni oldik tanib,
Yashaymiz shu yurt deb yonib.
Qaddi mag‘rur, tik boshlari,
Biz — istiqlol farzandlari.
Rizq-ro‘zimiz to‘liq doim,
Yuzlarimiz yoniq doim.
Tillarimiz biyron-biyron,
Orzuyimiz jahon-jahon.
Zamonaning dilbandlari,
Biz — istiqlol farzandlari.
O‘g‘il-qizning asllari,
Biz mard Temur nasllari.

Temur kabi shijoatli,
Ona yurtga muhabbatli,
Bilimdonmiz, ishbilarmon,
Bizlar bilan yashar davron.
Har yurakda ezgu niyat —
El-u yurtga qilish xizmat.

She'rni ifodali o'qishga tayyorlaning va o'qing.

## YAXSHILIK

*(Hikoya)*

*Farhod Musajonov*

Erkin o'rtog'i Nabi bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt uzoqdan qo'shnilari Pirmat boboning kelayotganini ko'rib qoldi. Cholning qo'lida tugunchasi ham bor edi. Erkin hovliqib o'rtog'iga maqtandi:

— Hozir-chi, men borib Pirmat bobomlarga yordam beraman. Qo'llaridagi tugunchani ko'tarib kelaman. Meni Pirmat bobo juda yaxshi ko'radilar. «Aqlli bola ekansan, haqiqiy o'quvchi shunday bo'lishi kerak»,— deb maqtaydilar. Ishonmasang, men bilan yurgin, o'zing ko'rasan.

Bolalarga yaqinlashib qolgan Pirmat bobo Erkinning so'zlarini eshitdi. Erkin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo'lidan tugunchani oldi.

— Bobo, men sizga doim yordam beraman-a? — deb so'radi Erkin, jo'rttaga Nabi eshitsin uchun baqirib.

— Har doim yordam berasan, — dedi Pirmat bobo miyig'ida kulib.

Erkin oldinda, Pirmat bobo orqada yo‘lga tushdilar. Uyiga yetganidan keyin Pirmat bobo Erkinning qo‘lidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek: «Barakalla, rahmat bolam, aqlli ekansan», — deb maqtamadi. Faqat «Rahmat» dedi va engashib Erkinning qulog‘iga allanarsalar deb pichirladi. Keyin uyiga kirib ketdi.

Erkin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab, chap oyog‘i bilan yer chizdi.

— Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi? — so‘radi Nabi. — Pirmat bobo nima dedilar?

Erkin zo‘rg‘a boshini ko‘tardi.

— Yaxshilik qil, lekin maqtanib, uni yuvib yuborma, dedilar Pirmat bobo, — dedi Erkin.

1. Erkin o‘rtog‘iga nima deb maqtandi?
2. Pirmat bobo uning qulog‘iga nima deb pichirladi?

## KOINOTGA SAYOHAT

*(Fantastik ertak)*

*Abdusalom Umarov*

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Shu kunlarda, aziz yurtimiz O‘zbekistonda Jahongir degan bola bor ekan.

U kechasi hovliga chiqib, beg‘ubor osmondagi yulduzlarni tomosha qilishni yaxshi ko‘rarkan. Jahongirning Javlon ismli ukasi bo‘lib, u akasidan yulduzlar, sayyoralar sir-asrori haqidagi hikoyalarni zavq bilan eshitarkan. Ularning Jasur hamda Javdat ismli yaqin do‘stlari bor ekan.

Kunlardan bir kun to‘rt og‘a-ini botirlar aql bilan fikr yuritib, uchar ot — raketa yasabdilar. Bu raketa oddiy emas ekan. U tovushdan ham tez uchib, yorug‘likni quvib o‘tar ekan. Unga mustaqil Vatanimiz sharafiga «Istiqlol» deb nom beribdilar.

Jahongir bilan Javlon «Istiqlol»ga o‘tirib, koinotga safarga chiqadigan bo‘ldilar. Jasur bilan Javdat esa ona yurtda turib, ular yuborgan ma’lumotlarni boshqa tengdoshlariga yetkazishga va’da berdilar. Aloqa uchun aqlli mashina — kompyuter tarmog‘idan foydalanmoqchi bo‘lishibdi.

Ertakda to‘rt og‘a-ini botirlar haqida nimalar deyilgan?

## KOMPYUTER OLAMI

*Yoqutxon Rahimova*

Siz «kompyuter» so‘zi nimani anglatishini bilasizmi? «Kompyuter» inglizcha so‘z bo‘lib, «hisoblayman» degan ma’noni bildiradi. U oldindan berilgan topshiriq bo‘yicha ishlaydigan avtomatik qurilma hisoblanadi.

Kompyuterlarning bir necha turlari bor. Ular bajaradigan ishlariga qarab bir-biridan farq qiladi.

Kompyuterlar tizimlar bloki, monitor va klaviaturalardan iborat bo‘ladi. Kerak bo‘lganda ularga boshqa qurilmalar ham ulanadi. Monitor, uni ba’zan displey deb ham atashadi, televizorlarga o‘xshash bo‘lib, uning ekranida kerakli axborot ko‘rinadi.

Kompyuter tarkibida «sichqon»cha manipulatori va printer bo‘ladi. «Sichqon»cha ikkita yoki uchta tugmachaga ega, u bilan kompyuter osongina boshqariladi. Printer esa kompyuter xotirasidagi matnni qog‘ozga ko‘chirib beradi.

Kompyuter o‘yinlarining ham mingdan ortiq xili bor.

Kompyuter o‘yinlari orqali ko‘p narsalarni bilib olishingiz mumkin.

1. «Kompyuter» so‘zi qanday ma’noni anglatadi?
2. Kompyuterlar nimalardan iborat, ularning vazifasi nima?

## «ISTIQLOL» KEMASI

*Abdusalom Umarov*

Qani, endi «Istiqlol» kemasida nima gaplar bo‘layotganiga bir quloq solaylik-chi.

***Jahongir:*** — «Istiqlol» kemasi bizga yaqin bo‘lgan yulduzga yaqin masofada turibdi.

***Javlon:*** — Bu Quyosh-ku! Voy-bo‘, kattaligini.

***Jahongir:*** — Ha, bu Quyosh. U o‘rtacha kattalikdagi yulduzlardan hisoblanadi. Quyoshdan chiqayot-

gan radioaktiv nurlar juda katta oqim bilan atrofga tarqalmoqda.

***Javlon:*** — «Istiqlol»ning himoya qobig'i bizni radiatsiyadan himoya qilib turadi. Yer atmosferasi esa yerdagilarni bu radiatsiyadan himoya qilib turadi.

***Jasur:*** — Quyoshga boshqa yaqinlasha olmas ekanmiz-da. Unday bo'lsa, endi kemamiz qaysi manzil tomon uchadi?

***Jahongir:*** — Koinotdan qarasang, Yerimizdagi qit'alar xuddi katta dengizda suzib yurgan kichik orollarga o'xshab ko'rinadi.

Shunda gapga kenja Javdat aralashdi:

— Men kitobda o'qiganman, X asrda yashagan bobomiz Abu Rayhon Beruniy, o'sha vaqtda Yerning shar shaklida ekanligini aniqlaganlar. Hatto Yerning dastlabki modeli — globuslardan birini yaratganlar. Yerning qarama-qarshi tomonida ham quruqlik borligini Kolumb Amerikani kashf qilmasdan 500 yil ilgari bashorat qilganlar.

***Jasur:*** — Sizlar Quyosh atrofida Yerdan boshqa yana 7 sayyora aylanishini bilasizlarmi?

***Javdat:*** — Ha, albatta. Bular: Merkuriy (Utorud), Venera (Zuhra), Mars (Mirrix), Yupiter (Mushtariy), Saturn, Uran va Neptun sayyoralaridir.

***Jahongir:*** — Biz bu sayyoralar haqida keyinroq, ularga yetib borganimizdan so‘ng ma’lumot beramiz.

Endi sayohatimiz Quyosh tizimidagi osmon jismlari sari bo‘ladi.

1. Asarni rollarga bo‘lib o‘qing, tushunganingizni so‘zlab bering.
2. Matndan Abu Rayhon Beruniy haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Javdat aytgan yulduzlar nomini daftaringizga yozing va yozilishini bilib oling.

## SAYYORALAR

Quyosh tizimiga sakkizta sayyora — Venera, Merkuriy, Mars, Yer, Saturn, Uran, Neptun, Yupiter va ularning o‘ttiz ikkita yo‘ldoshi kiradi. Quyoshga eng yaqin sayyora Merkuriydir. Shuning uchun ham bu sayyora juda issiq bo‘ladi. Quyoshga yaqin sayyoralar singari Yerga yaqin joylashgan sayyoralar ham bor. Venera va Mars ana shunday sayyoralar sirasiga kiradi.

Venera Oydan keyingi eng yorug‘ yulduzdir. U erta tongda yaqqol ko‘rinadi. Shuning uchun uni «Tong yulduzi» deyishadi. Venera kattaligi jihatidan xuddi Yerga o‘xshaydi.

Bizning ikkinchi yaqin qo‘shnimiz Marsdir. U osmonda bizga to‘q-qizil yulduz bo‘lib ko‘rinadi. Odamlar ko‘pdan beri Mars bilan qiziqishadi. Olimlar uni teleskopda kuzatib, o‘rganishdi. Uning sayyoramizga o‘xshashligini aniqlashdi. Hatto Marsda xuddi Yerdagidek hayot bor deb hisoblashadi.

Yupiterning esa o‘n ikkita yo‘ldoshi bor. Ularning ba’zilari Oydan kattadir. Saturn atrofida beshta yo‘ldosh aylanadi. Faqat Merkuriy va Veneraning yo‘ldoshlari yo‘q.

Quyosh tizimiga yana son-sanoqsiz meteor (uchar yulduz)lar ham kiradi.

Ko‘rdingizmi, Quyoshning qanday katta oilasi bor ekan.

1. Quyosh tizimiga kiradigan sayyoralar nomini ayting.
2. Sayyoralar haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Qaysi sayyoralar Yerga yaqin joylashgan? Ular haqida bilganlaringizni so‘zlang.
4. Siz qaysi sayyorada yashaysiz? Uni qanday asrab-avaylaysiz?

## SOHIBA KIMDAN XAFA?

*(Hikoya)*

*Mahmud Murodov*

### I

Peshin payti edi. Ko‘chadan halloslab yugurib kelgan Sohiba ayvondagi osma soatga qaradi-yu, qo‘lidagi koptokni bir chetga uloqtirdi. So‘ng o‘choq boshida kuymalanayotgan oyisiga qichqirdi:

— Oyi, sariq gulli ko‘ylagim qani? Tezroq topib bering!

Habiba opa oshxonadan kelguncha Sohiba uyga ikki-uch marta kirib chiqdi.

— Qizginam-ey, axir kiyimlaringni har yerga tashlama, ilgakka ilib qo‘y, deb senga necha marta aytaman, — dedi Habiba opa uy ichini ko‘zdan kechirib. U ko‘ylakni karavot tagidan topdi.

Sohiba oyisining qo‘lidan ko‘ylakni olib, kiyinishga kirishdi.

— Qizim, dugonangning tug‘ilgan kuniga g‘ijimlangan ko‘ylakda borasanmi? Kel, dazmollab beraman,— dedi Habiba opa.

Lekin Sohiba unamadi.

— E-e, shundoq ketaveraman, — deya chopib chiqib ketdi.

## II

Mana, Sohiba dugonasining uyida o‘tiribdi. Uy bolalar bilan gavjum. Sohiba o‘rtoqlariga bir-bir ko‘z yugurtirib chiqdi. Qizlarning hammasi yaxshi kiyinishgan, sochlariga chiroyli lentalar taqishgan. Sohiba to‘zigan sochini barmoqlari bilan silliqlagan bo‘ldi.

Saodatning ko‘ylagi tekis dazmollangan va o‘ziga juda yarashib turardi. Sohiba Saodatga havas bilan tikilib turib:

— Ko‘ylaging juda chiroyli ekan, o‘rtoqjon, — dedi.

— Seniki ham yomon emas, faqat dazmollanmagan, xolos, — dedi Saodat.

Sohiba qizarib ketdi. Xonada kuy yangradi. Saodat uni o‘yinga tortdi. Sohiba o‘rnidan turdi-yu, lekin

o'ynamay, uydan chiqib ketdi. Uning charos ko'zlarida yosh qalqidi: «Hammasiga o'zim sababchi, nega oyijonim aytganlarida ko'nmadim?»

1. Sohiba haqida siz qanday fikrdasiz? Nima uchun?
2. Hikoyaning II qismidan Sohibaning o'zini-o'zi ayblovchi o'rinni topib o'qing.
3. Qismlarga sarlavha qo'ying.

## Maqol

- Erinchoq ikki ishlar, oxiri barmog'in tishlar.

# IKKI QIZ

*Habib Sa'dulla*

Mening ikki qizim ham
Katta bo'lib qolishdi.
Onalari qo'lidan
Yumushlarin olishdi.

Sahar turib Saida
Hovlimizni supurar.
To ungacha Umida
Choy tayyorlab ulgurar.

Oqshom kulib kutishar
Bizni ishdan, o'qishdan.
Biri qo'lga suv quysa,
Birovi sochiq tutgan.

Akalari ham xursand
Mehribon singillardan.
Minnatdorlik bildirib,
«Rahmat!» der dillaridan.

Ikkisining qo‘li bor
Uyimizda har ishda,
Shuning uchun deyishar:
Qizli hovli sarishta.

1. Qizlar oilada qanday yumushlarni bajarishar ekan?
2. Siz kimlarga, qanday uy yumushlarini bajarishda yordam berasiz?

## BARAKALLA, BO‘TAM

*(Ertak)*

Kunlardan bir kuni ikki ota o‘z o‘g‘illarini Ibn Sinoga shogirdlikka bermoqchi bo‘lishibdi. Ulardan biri katta boy, ikkinchisi kambag‘al edi.

— Ey, ulug‘ tabib, huzuringizga bolalarimizni olib keldik, shogirdlikka qabul qilsangiz. Zora sizga o‘xshab tabib bo‘lib yetishsalar, – deyishibdi.

Ibn Sino rozilik bildiribdi va ularni sinab ko‘rib shogirdlikka olishini aytibdi. Ibn Sino kim shogird bo‘lmoqchi bo‘lsa, oldin sinovdan o‘tkazar, so‘ng tabiblik ilmini o‘rgatar edi.

— Bolalarim, — debdi kelgan yigitlarga qarab.— Tog‘-u toshlar kezing, cho‘l-u biyobonlar oralang-da, har biringiz ming donadan o‘t-giyoh terib kelingiz...

Ibn Sino shunday debdi-da, yigitlarning qo‘liga xalta tutqazibdi.

Oradan bir necha kun o‘tibdi. Bolalarning birinchisi kelib, yig‘gan shifobaxsh giyohlarini Ibn Sinoning oldiga to‘kibdi. Buni ko‘rgan Ibn Sino quvonib so‘rabdi:

— Barakalla, o‘g‘lim, eng sara dorivor giyohlarni teribsan. Endi bir savolimga javob ber-chi. Oyoq qabarganiga nima davo bo‘ladi?

— Mening tabiblikdan xabarim yo‘q, — debdi bola,— sizga endi shogird tushdim-ku.

Ibn Sino:

«Shu o‘n kunda tabobat ichida yurib tabiblikdan alifni o‘rganmabsanmi, sendan tabib emas, olibsotar chiqadi», — debdi ko‘nglida. So‘ng ovozini chiqarib:

— Senga javob, o‘g‘lim, ketaver! Borib olibsotarga shogird bo‘l! — debdi.

Oradan bir kun o‘tgach, kambag‘al kishining o‘g‘li yetib kelibdi. U to‘plagan o‘tlarini hakimning oyog‘i ostiga to‘kibdi. Ibn Sino xursand bo‘lib:

— Barakalla, bo‘tam, qani menga ayt-chi, oyoq qabarganiga nima davo bo‘ladi? — deb so‘rabdi.

— Yovvoyi rayhon yoxud yalpizni suvga ivitib, ozgina tosh tuzidan qo‘shib yuvish kerak, — javob qilibdi bola.

— Cho‘l-u biyobonda qolib, suv topolmading deylik, chanqoqni nima bilan qondirish mumkin? — yana savolga tutibdi Ibn Sino.

— Yantoqning suvi chanqoqni qondiradi, ham darmon bo‘ladi, — dadil javob beribdi bola.

— Rahmat, o‘g‘lim, sen endi menga shogirdgina emas, farzand ham bo‘lding! — debdi tabib.

1. Ibn Sinoning shogird tanlash usulini so‘zlang.
2. Ibn Sino kimni shogirdlikka qabul qilmadi? Nima uchun?
3. Ikkinchi bola haqida nimalarni bilib oldingiz? So‘zlang.

## Maqollar

- Sog‘lom tanda sog‘ aql.
- Qari bilganni — pari bilmas.
- O‘zingdan kattaning aytganiga quloq sol.

## JIGARLARGA TILAKLARIM

*Maqsud Shayxzoda*

Yillar sizni kutadi,
Siz yillarni kutasiz!
Bir, ikki, uch deguncha
O‘smirlikka yetasiz...

Ishlaringiz «besh» bo‘lsin!
Quvonch sizga esh bo‘lsin!
Hoy, bolalar, bolalar,
Chamandagi lolalar.

Harflarni tanibsiz,
O‘qibsiz yanglishsiz.
Ammo biling, jigarlar,
Juda kam bu hunarlar...

Yana ko‘proq bilmoqqa,
Ko‘proq bilim olmoqqa,
Ishni egallamoqqa,
Dunyodan «sir» olmoqqa,

Tarbiyali, gapi rost,
Vijdoni sof, beg‘araz
Bo‘lmoqqa siz intiling!
Vazifangiz — shu, biling!

1. *«O‘smirlikka yetasiz», «Vijdoni sof, beg‘araz»* misralarining ma’nosini tushuntirib bering.
2. Shoir bolalarni nimaga chaqiryapti? Shu o‘rinni she’rdan topib o‘qing.
3. She’rdan siz nimalarni bilib oldingiz?

She’rni yod oling.

### Topishmoq

Ilmga kon,
Mazmunga makon,
So‘zi serhikmat,
Bizga do‘st, ulfat,
O‘rgatar odob,
Bu nima, Ozod?

*(Kitob)*

## TO‘RTLIK

*Tolib Yo‘ldosh*

To‘g‘ri o‘sgan terak bo‘ling,
El ishiga kerak bo‘ling.
Egri bo‘lmang, egri unmas,
To‘g‘riga el bolta urmas.

# ULUG‘LARDAN O‘RGANMOQ — OQILLIK

Mustaqil O‘zbekistonning baxtli o‘quvchilarimiz. Chunki biz o‘tmishi buyuk xalqning farzandlarimiz. Ota-bobolarimiz bilan faxrlanamiz, ularning dunyo ma’rifatiga qo‘shgan javohirlari bilan g‘ururlanamiz.

Ular:

**Imom al-Buxoriy, at-Termiziy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur** kabi allomalardir.

*At-Termiziy*

*Al-Xorazmiy*

*Abu Rayhon Beruniy*

*Abu Ali ibn Sino*

*Amir Temur*

*Mirzo Ulug'bek*

*Alisher Navoiy*

*Zahiriddin Muhammad Bobur*

# HADISLARDAN NAQLLAR

*Abu Abdulloh Muhammad*
*Ibn Ismoil al-Buxoriy*

## Eng yaxshi ish

Payg‘ambardan:

— Islomda qaysi ish eng yaxshi sanaladi? — deb so‘rashibdi.

— Ochlarga taom, tanish-notanishlarga salom, — deb javob beribdilar Payg‘ambarimiz.

## Eng yomon ish

— Dunyoda eng yomon hamda qutulib ketishning iloji yo‘q ish nima? — deb so‘rashibdi.

— Nohaq qon to‘kilishi, — deb javob beribdilar Payg‘ambarimiz.

## Ma’qul ish

— Odamlar bir-biri bilan aytishib, san-manga borib qolsa nima bo‘ladi? — deb so‘rashibdi.

— Musulmonlar bir-birlari bilan uch kundan ortiq arazlab, gina saqlab, gaplashmay yurishi mumkin emas.

Shunday paytda ularning qaysi biri avval salomlashgan bo‘lsa, o‘shaning ishi ma’qulroq sanaladi, — deb javob beribdilar Payg‘ambarimiz.

### Tilini tiyib yursin

Payg‘ambarimiz debdilar:

— Kimki yaxshi inson bo‘lishni o‘ylasa, qo‘shnisiga aslo ozor bermasin, mehmonni hurmatlasin, hayotida faqat yaxshi so‘zlardan gapirsin. Bordi-yu, yaxshi so‘zlarga tili aylanmasa, u holda jimgina tilini tiyib yursin.

Hadislarni tahlil qilib, mazmunini yoritib bering.

## HISOB ILMIDAGI YANGILIK

*Mirkarim Osim*

Katta uy. Uning ikki chekkasida chordana qurib olimlar, muftilar, yer o‘lchovchi – massohlar o‘tirishibdi.

Muhammad ibn Muso oq shoyi ko‘ylak, ustidan uzun yengli qizil chopon kiygan. Takyasi ustidan oq salla o‘ragan edi. U o‘z asarining mazmuni bilan o‘tirganlarni tanishtirdi:

— Ilgari arablar va ularga tobe musulmon xalqlar hisob amallarini so‘zlar yordamida bajarar edilar. Hindlar esa har bir sonni raqamlar bilan ifoda etadurlar. Mana ko‘ring, — deb devorga tirab qo‘yilgan qora taxtaga oq bo‘r bilan to‘qqizgacha bo‘lgan raqamlarni yozib ko‘rsatdi. — Mana bunisi — bir, bunisi ikki, bu — uch va hokazo. Hindlarda to‘qqiztagacha sanoq tartibi bor edi, xolos.

Al-Xorazmiy hind hisobiga yangilik kiritdi. «1» raqami yoniga bir halqa, ya’ni raqam qo‘yib, uni «o‘n»

deb o‘qidi. U taxtaga «10» raqamini yozib ko‘rsatdi. O‘nlik sanoq tartibi bilan katta sonlarni jam va tarh qilish, zarb hamda taqsim etish oson. U qora taxtaga to‘rt xonali sonlarni yozib, ularni bir-biriga ko‘paytirib ko‘rsatdi.

**Reja:**

1. Katta uy.
2. Ibn Muso o‘z asarining mazmuni bilan tanishtirdi.
3. Al-Xorazmiy hind hisobiga yangilik kiritdi.

1. Reja asosida qayta hikoya qiling. Hikoyangizda qaysi o‘rin tushib qolganligini ayting. Shu o‘rinni matndan o‘qib bering.
2. Siz to‘rt xonali sonlarni ko‘paytirishni bilasizmi?

# KITOBGA IXLOS

*(Parcha)*

*Mirkarim Osim*

* * *

Husaynning otasi marhum Abdulla podsho saroyida xizmat qilar edi. U o‘g‘liga yaxshi ta’lim-tarbiya bergan, muallim yollab, o‘qitgan edi. Otasi o‘lgandan keyin Husayn tabiblik qilib kun kechira boshladi. Tez orada uning nomi butun Buxoroga yoyildi.

Podsho Nuh binni Mansur kasalmand odam edi. Buxoroning mashhur tabiblari bergan dori-darmonlar unga kor qilmas edi. Vazirlarning maslahati bilan Nuh binni Mansur Ibn Sinoni saroyiga chaqirtirdi.

* * *

Ark suv quygandek jimjit. Podsho amaldorlari, bir-birlari bilan pichirlashib gaplashadilar.

Yosh hakimni ichkariga taklif etdilar. U xona ichiga kirib, to‘rdagi ipak to‘shak ustida yotgan kishiga ta’zim qildi. Bu Nuh binni Mansur edi. Uning ishorasi bilan yosh hakim to‘shak yoniga tiz cho‘kdi. Bemordan qayeri og‘riyotganini so‘radi. Uning tomirlarini ushlab ko‘rdi, tilini ko‘zdan kechirdi.

Keyin o‘rnidan turib, ko‘proq sutli ovqatlar, ho‘l meva iste’mol qilish kerakligini tayinlab:

— Men sizga dori berib yuborgayman. Har kuni uch marotaba: erta bilan, choshgohda, kechqurun iste’mol qilsinlar. Ammo qovurilgan go‘sht, achchiq

ovqat yemasinlar. Ho‘l mevani Samarqanddan keltirib yesinlar. Buxoro mevasi sizga to‘g‘ri kelmas, — dedi.

Ibn Sinoning o‘zini bunchalik erkin tutishi saroy vazirini hayron qoldirdi. Buni anglagan Ibn Sino: «Agar hurmatni joyiga keltirmagan bo‘lsam, afv etsinlar», — dedi.

* * *

Ibn Sino bir haftadan keyin saroyga keldi. O‘z qo‘li bilan tayyorlagan dori-darmonlar bemorga yaxshi ta’sir qilganini ko‘rdi. Binni Mansur Ibn Sinoni ochiq chehra bilan qarshi oldi. O‘z minnatdorchiligini bildirib, nima so‘rasa shuni bermoqchiligini aytdi.

Ibn Sino:

— Menga... saroy kitobxonasida mutolaa qilmoqqa ijozat bersinlar. Menga pul emas, ilm kerak, — dedi.

Podsho hayron bo‘lib, vaziriga qaradi:

— Umrimda puldan ilm-u fanni yuqori qo‘yadigan odamni birinchi ko‘rishim, ofarin. Iltimosingizni bajon-u dil qabul qildim, — dedi va vaziriga buyurdi:
— Kitobdorga aytib qo‘ying. Ibn Sinoga har kuni kitobxonada mashg‘ulot o‘tkazmoqqa ijozat berdim.

**Reja:**

1. Abdullaning vafoti.
2. Ark suv quygandek jimjit.
3. Bemorga berilgan topshiriqlar.
4. Menga pul emas, ilm kerak.

Reja asosida hikoya qiling.

## IBN SINONING SHOGIRDLARI

Tabiblarning tabibi Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do‘st-birodarlari yig‘ilishibdi. Ular yaxshi so‘z aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga harakat qilishibdi. Shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do‘st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa bunday debdi:

— Shogirdlarim, mening kunim bitgan ko‘rinadir. Shu boisdan meni davolayman deb behuda harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib, vafot etsam, yig‘i-sig‘i qilib o‘tirmanglar. Faqat haqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va, yana, ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg‘urmanglar. O‘rnimga besh zo‘r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shu tabiblarning maslahatlariga o‘zingiz ham doim amal qilinglar. Boshqalarni ham ularga da’vat etinglar, — debdi.

Shunda Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

— Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar? — deb so‘rabdi.

Ibn Sino:

— Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarimning biri— tozalik. Ikkinchisi – parhez. Uchinchisi – badantarbiya. Qolgan ikkisi mizoj bilan kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo‘lishlikni unutmang. Ko‘ringan ovqatni yeyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez me’yorini bilishlik lozim. Badan

a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mizojni unutmaslik, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish kerak. Mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o'lim ham orqaga chekinadi.

*«Asotirlar va rivoyatlar» kitobidan*

1. Ibn Sino shogirdlariga nimalar haqida so'zladi?
2. Ibn Sino qoldirgan tabiblarni matndan toping va o'qib bering.
3. Rivoyat sizda qanday taassurot qoldirdi?

## IBN SINO BOBO – ULASHAR DAVO

*(O'gitlar)*

*Po'lat Mo'min*

Xom suvni ichma,
Sog'liqdan kechma.

Yeb bo'lib ovqat,
Yugurma faqat.

Og'rimay desang,
Chay, meva yesang.

Badantarbiya —
Kuch etar hadya.

1. O'gitlarni o'qing.
2. O'gitlarning qay biri sizga tanish?
3. Siz berilgan o'gitlarga rioya qilasizmi? Foydasini bildingizmi?

# ELIM DEB, YURTIM DEB YASHAGAN INSON

*(Qisqartirib olindi)*

*Bo'riboy Ahmedov*

## I

Sohibqiron bobomiz Amir Temur 1336- yilning 9- aprelida Movarounnahrning ko'rkam shahri Shahrisabz (Kesh)ning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topganlar. Amir Temurning otasi Tarag'ay «Bola boshidan» degan naqlga amal qilib, o'g'liga yoshligidan yaxshi ta'lim-tarbiya berdi.

Temurbek bilim olishni yetti yoshidan boshladi. Bu haqda uning o'zi bunday deydi: «Yetti yoshga to'lganimda Shahrisabzdagi madrasaga olib borishdi va qo'limga so'zlar jadvalini berishdi». U so'zlarni qiynalmay o'qiy boshladi. Chunki harflarni uyida o'rgangan edi. 9 yoshga to'lganda madrasadagi hamma bolalardan ustun bo'lib oldi.

## II

Temurbek 12 yoshida bolalar bilan o'ynashni kamaytirdi. Vaqtini o'z tengdoshlari hamda o'smirlar bilan o'tkazdi. Ta'til vaqtlarida otasi va boshqa kishilardan harbiy san'at hamda bahodirlik rasm-rusumlarini mukammal egalladi. 15 yoshga yetganida ot minib, ov qilishni sevib qoldi. Bu ishda katta mahoratga erishdi. Xullas, Temurbek yaxshi o'qib, ziyrak va jasur bola bo'lib o'sdi, el-yurtga mehr qo'ydi. Ammo uning bolalik va yigitlik davri og'ir kunlarga to'g'ri keldi.

1. Temurbek o‘zining bilim olishi haqida nima degan? Shuni o‘z so‘zingiz bilan aytib bering.
2. Yosh Temurbek ta’til vaqtida nimalar bilan shug‘ullandi?

## III

Qozonxon o‘ldirilgandan keyin 1360- yilda mamlakatni mo‘g‘ullar bosib oldi. Viloyat beklari mamlakatni himoya qilmadilar. Aksincha, ularning ko‘pchiligi yurtni tashlab qochdi. Qolganlari esa mo‘g‘ullar oldiga borib, tiz cho‘kdi.

## IV

Mana shunday og‘ir kunlarda el-yurt yukini Temurbek yelkasiga oldi. U xalqni o‘z atrofiga to‘plab, mo‘g‘ullarga qarshi kurash boshladi. Bu kurash o‘n yil davom etdi. O‘sha yillari Temurbek tog‘-u toshlarda, cho‘l-u biyobonlarda kun o‘tkazdi. Asirlikda 62 kun zindonda yotdi. Bir umr aziyat chekdi. Lekin eliga hamisha sodiq qoldi. El bilan birga bo‘ldi.

Oqibatda Temurbek va unga ergashgan amirlar mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozondi. Bosqinchilar mamlakat hududidan quvib chiqarildi.

## V

Amir Temur elim deb, yurtim deb jonini fido qilgan, og‘ir-vazmin, mulohazali buyuk shaxsdir. Tarixchi olim Ibn Arabshoh Sohibqiron bobomizni shunday ta’riflaydi:

«Temur baland bo‘yli, tik qomatli, keng peshanali kishi edi. G‘oyatda kuchli, oq-qizil yuzli, qo‘l-oyoqlari baquvvat edi. Yelkasi keng, barmoqlari yo‘g‘on, poychasi semiz, qaddi-qomati kelishgan edi. Sersoqol, qoshlari qalin, o‘ng oyog‘i bilan o‘ng qo‘li zaxmdor[1] va yo‘g‘on ovozli edi. U yolg‘onni yoqtirmay-

[1] *Zaxmdor* — jarohatli.

digan, yutuqlardan shodlanib ketmaydigan odam edi. Qo'rqmas, shijoatli, botir va mard kishilarni yoqtirardi».

Ulug' bobomiz hayotini, tarixini qunt bilan qancha ko'p o'rgansangiz, xalq nima, Vatan nima va farzandlik burchi nimaligini bilib olasiz.

1. Amir Temurning ko'rinishini og'zaki tasvirlang. Tasvirlashda kitobdagi rasmdan foydalaning.
2. O'qituvchi yordamida matn rejasini tuzing. Reja asosida qayta hikoya qiling.

## SOHIBQIRON TEMUR BOBO

*(Hikoyat)*

Bir kuni Amir Tarag'ay bahodir ko'p qo'ylarni o'g'li Temurbekka berib, Samarqand bozoriga jo'natdi.

U qo'ylarning hammasini ming oltinga sotib, pullarni beliga bog'lab sayr qilib yurar edi. O'sha yerda xushovoz bir qalandar odamlarga so'zlab turgan ekan. Uning qo'lida she'r bitilgan qog'oz bo'lib, u der edi:

— Shul yozuvning qadriga yetib, kim ming oltinga olsa, dunyoning oxiriga yetadi...

Temurbekning himmati jo'shib, ming oltinni qalandarga tutqazdi. U Temurbekka tikilib turdi-da, nasl-nasabini so'radi.

So'ng tayin qildi:

— Otang oldig‘a borg‘il. Buni otang oldida o‘qi, borg‘uncha ochma.

Temurbek qog‘ozni keltirib, padari buzrukvoriga berdi. Ochib o‘qidilar.

Unda: «Zulm bilan dunyoda nom qoldirib bo‘lmaydi. Jamshid, Sulaymon, Iskandarlar o‘tib ketdi. Navbat senga ham yetishi tayin. Dunyoga keldingmi, yaxshilik bilan nom qoldir», — mazmunidagi ruboiy bor ekan.

Ruboiyning muallifi — o‘shal qalandar alloma shoir Kamol Xo‘jandiy ekan. Ul zotni Temurbekning padari buzrukvori ko‘p hurmat qilar ekanlar.

— Barakallo, o‘g‘lim, ko‘p dono ishga oltinlarni sarf etibsan.

Endi, ming oltinga olg‘an ushbu hikmatga qat’iy rioya qilmoq lozimdur, — debdi.

Padari buzrukvorining aytqonlarini Temurbek bosh ustida tutdi.

1. Temurbekning qalandar bilan ushrashuv voqeasini so‘zlang.
2. Qalandar Temurbekka nimani tayinladi?
3. Kamol Xo‘jandiy ruboiyda nima deb yozgan ekan?
4. Padari buzrukvori Temurbekka nima dedi?

## Amir Temur o‘gitlari

- Chin do‘st uldirkim, do‘stidan hech qachon ranjimaydi. Agar ranjisa ham uzrini qabul qiladi.

- Sodiq va vafodor do‘st ulki, agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi.

# DONOLARNING DONOSI

*Po'lat Mo'min*

I

Bobomiz Alisher Navoiy bolalik chog'laridayoq hammaning e'tiboriga tushganlar. Eng avvalo, odobli bo'lganlar. Ko'p kitob o'qiganlar. Zehnlari o'tkirligidan minglab misra g'azallarni yod bilganlar. Kichiklikda yozgan she'rlariga ustozlari ham qoyil qolishgan. Ona tilini yaxshi bilganlar. Fors va arab tillarini ham puxta o'rganganlar.

II

Hazrat Navoiy eldan yordamlarini ayamasdilar.

Hirot aholisini og'ir soliqlardan qutqarish uchun o'zlarining shaxsiy mablag'lari bilan yordam berganlar.

Alisher Navoiy Hirotda bir qancha mashhur oromgohlar, madaniyat koshonalari bunyod etganlar. Haz-

rat shaxsiy mablag‘lariga ko‘pgina xonaqoh-u madrasalar, to‘qqizta hammom, o‘n to‘rtta masjid qurdirganlar. Hatto masjid qurilishida Navoiyning o‘zlari ham choponlari barini qayirib ishlaganlar.

1. Bobomiz Alisher Navoiy bolalik chog‘laridayoq qaysi ishlari bilan hammaning e’tiboriga tushganlar?
2. Navoiy Hirotda qanday inshootlar qurdirgan?

## III

Alisher Navoiy birinchilardan bo‘lib ona tilida «Xamsa» (besh doston) yozdilar. Navoiyning ko‘pgina go‘zal g‘azallari hamon qo‘shiq bo‘lib yangramoqda.

Navoiy bobomizning talay misralari xalq maqollari, hikmatli so‘zlariga aylanib ketgan:

Tilga ixtiyorsiz —
Elga e’tiborsiz.

Barcha asarlarida halollikka, mardlikka, yaxshilikka chaqirganlar. Hatto shohning vaziri bo‘lganlarida ham xalq uchun ko‘p yaxshi ishlar qilib, el mehriga tushganlar.

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Qarang, bu satrlar juda zarur satrlar. Ular bir olam ma'noli, tushunarli. Yana:

Yaxshilikni bilmasang,
Borib yaxshilarga qo'shul, — deydilar.

## IV

Shoir bobomiz, ayniqsa, ustozlarini ulug'laganlar:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

Ya'ni: «Harf o'rgatgan o'qituvchingni hurmat qilib, haqini uzmoqchi bo'lsang, xazinalardagi barcha oltinlar bilan ham uzolmaysan», – deydilar. Navoiy bobomiz asarlarini o'qigan sari chuqur tushuna boramiz. Ba'zida esa o'qib, uqishga qiynalamiz. Axir yozilganiga besh asrdan oshdi-da! Shuning uchun ustozning «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim», degan nasihatlariga amal qilib, so'rab-so'rab o'rganaveramiz.

Xullas, ul zotning ijodini daryoga o'xshatamiz. Bu daryodan dunyo xalqlari bahramand bo'lmoqda. Shuning uchun ham Navoiy bobomiz dunyoga tanilib, donolarning donosi bo'lib qolganlar.

1. Matnning uchinchi qismidan Navoiyning til haqidagi hikmatini toping va ovoz chiqarib o'qing. Ma'nosini tushuntiring.
2. Nima uchun xalq Alisher Navoiy nomini mehr bilan tilga oladi? Javobingizni matndan misol keltirib isbotlang.
3. Alisher Navoiy ustozlar haqida nima deganlar? Matndan shu o'rinni topib, o'qib bering.
4. Nima uchun bobomizni donolarning donosi deymiz?

## Navoiy hikmatlari

- Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim,
  Orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

- Olamdan g‘amsiz o‘tay desang,
  Ilm-u hunar o‘rgan.

- Sabr bila ko‘p bog‘liq ish ochilur,
  Ishda oshiqqan ko‘p toyilur.

## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

*Xayriddin Sulton*

I

Andijon.

Umarshayx Mirzo saroyi.

Beklar, saroy amaldorlari, shariat peshvolari tizilib o‘ltirishibdi. To‘rdagi taxtda —Umarshayx Mirzo. Bugun chaqaloqqa ism qo‘yish marosimi o‘tkazilmoqda.

Umarshayx Mirzo mavlono Munirxojaga qarab:

— So‘zingizga intizormiz, — dedi.

Munirxoja Marg‘iloniy o‘rnidan turib ta’zim qildi va go‘dakka «Zahiriddin Muhammad» deb nom bermoq lozim deb aytdi.

— Ma’qul. Xo‘p, ma’qul! — dedi Umarshayx Mirzo.

1. Umarshayx Mirzo saroyida qanday marosim o‘tkazildi?
2. Chaqaloqqa qanday ism qo‘yiladi?

## II

Qutlug‘ Nigorxonimning xos xonasi.

Beshikda oydek bo‘lib, pahlavon go‘dak jilmayib yotibdi. Umarshayx Mirzo, Yunusxon va Eson Davlatbegim baxtiyor onani qutlab turadilar.

— Ko‘z tegmasin, bahodir o‘g‘lon tug‘ilibdur, — deydi Yunusxon. — Ismi ne bo‘ldi?

— Zahiriddin Muhammad, — deydi Umarshayx Mirzo.

— Qutlug‘ bo‘lsin, ulug‘larning ismi, — deydi Yunusxon kulimsirab.

– Nasib etsa, inshoolloh, yo‘lbarsdek bahodir bo‘lg‘usidir. Inchunin[1], «Bobur —yo‘lbars» deb chaqirsak ham bo‘lur ekan.

Umarshayx Mirzo yalt etib qaynotasiga qaraydi va:

— Yo‘lbars?! Xonota, yo‘qsa, ismini «Zahiriddin Muhammad Bobur» deb ataylik, — deydi hayajonlanib.

## III

Yunusxon beshik ustidan bir hovuch tilla tanga sochadi. Kanizaklar talashib-tortishib terib olishadi.

Beshikdagi go‘dak guvranib-jilmayib qo‘yadi.

— Bahodir, sarkarda bo‘lsin, — deb duo qiladi Yunusxon.

— Olamgir podshoh bo‘lsin, — deb tilak qiladi Umarshayx Mirzo.

— Nuridiydam olim bo‘lsin, — deb niyat qiladi Eson Davlatbegim.

[1]*Inchunin* – shunday.

— Bolaginam shoir bo‘lsin, — deb orzu qiladi Qutlug‘ Nigorxonim.

1. Munirxoja Marg‘iloniy go‘dakka qanday ism qo‘ydi?
2. Nigorxonimni kimlar qutladilar?
3. Go‘dakka qanday tilak bildirishdi?

## SAYILDA

*Mirzo Karim*

### I

Andijonning janubiy qal’asiga tutash Xokan viloyati ahli nog‘oralarning ovozidan erta uyg‘ondi. Bugun sayil bo‘lar ekan. Zahiriddin Muhammad Mirzo nomi tilga olinyapti. Shahzoda besh yoshga to‘lganmish. Aqli raso, zarbli emish...

Jarchi viloyat ahlini Xokan adirlariga chorlaydi.

Zahiriddin Muhammad erta tongdanoq bugungi sayilga tayyorgarlik ko‘rar, otalig‘i[1] Shayx Maziddindan ot choptirish, qilich urishtirish va zarb[2] berish bo‘yicha ko‘rikdan o‘tishga shoshilardi. U to‘riq otga minib, otasiga o‘zining qudratini, ot choptirish mahoratini, yoshiga mos qilib yasalgan qilichini urishtirish va zarb berish tayyorgarligini ko‘rsatishga oshiqardi.

To‘riqning sag‘rilari yuvilgan, yollari taralgan, tillaqosh egar urilgan, zar kimxob yopilgan. Zahiriddin otalig‘i yordamida tilla uzangiga oyog‘ini qo‘ydi-da, sakrab egarga qo‘ndi. U tilla sopli qam-

---

[1] *Otalig‘i* — tarbiyachisi.
[2] *Zarb* — kuch.

chisini baland ko‘tarib, havoda o‘ynatdi. To‘riq uchib ketdi...

## II

Umarshayx Mirzo kaftlarini bir-biriga qattiq urdi. Karnay, surnay, nog‘ora tovushlari shu zahoti tindi.

Zahiriddin Muhammad qilich yalang‘ochlab, shamolday yeldi-da, yoshgina navkar bilan olisha ketdi. Ularning shiddatli olishuvlari qalqonni jaranglatar, har ikkisi epchillik bilan chap berishar edi.

Zahiriddin qilichini zarb bilan urdi. Bu safar navkar Zahiriddin Muhammad zarbiga bardosh berolmadi. U otdan qulab tushdi. Tomoshabinlar Zahiriddinga hamd-u sanolar o‘qishdi.

— Zarbini qarang-a, shohim! Aynan o‘zingizga o‘xshaydi. Jasorati misoli bobur[1]dir, — deyishdi amirlar.

Zahiriddin Muhammad qiblagohi qarshisiga kelib tiz cho‘kdi. Umarshayx Mirzo farzandining peshanasidan o‘pib, shunday dedi:

— Ota zarbini olibsan, balli, o‘g‘lim! Bobursan, Bobur...

---

[1] *Bobur* — yo‘lbars.

1. Nima uchun viloyat ahli erta uyg‘ondi?
2. Zahiriddin Muhammadning sayilda qatnashishdan maqsadi nima edi? Matndan shu parchani toping va o‘qing.
3. Zahiriddinning navkar bilan olishuvini so‘zlang.
4. Matn mazmuniga mos qismni rasmdan foydalanib, hikoya qiling.
5. «Xalq og‘zaki ijodi» bo‘limidan shu mavzuga mos maqol tanlang, mazmunini tushuntiring.

## ILM

*Hoji Abdurazzoq Yunus*

Tarixdan ma’lumki, ilmli va ma’rifatli kishilar doim izzat va hurmatda bo‘lishgan.

Arablarda shunday maqol bor:

«Yoshlikda olingan bilim go‘yo toshga o‘yilgan naqsh kabidir». Shunday ekan, sizlar bebaho yoshlik davrini g‘animat bilib, bilim olishga tinmay qunt va sabot bilan harakat qilinglar. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom bir muborak hadisi shariflarida:

«...Ilm sahroda — do‘st, hayot chorrahalarida — tayanch, yolg‘iz damlarda — yo‘ldosh, baxtiyor daqiqalarda — rahbar, qayg‘uli onlarda — madadkor, odamlar orasida — zeb-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda quroldir», — deganlar.

Donolar deydilarki:

«Aql bilan mol to‘plasa bo‘ladi, ammo mol bilan aql to‘plab bo‘lmaydi».

1. Tarixdan bizga nima ma’lum?

2. Arablarda ilm haqida qanday maqol bor? Ayting va izohlab bering.
3. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom o'z hadisi shariflarida ilmga qanday baho berganlar? Yod oling.
4. Donolar-chi?

## HOTAMI TOYI

*Sa'diy Sheroziy*

Hotami Toyidan: «O'zingizdan ko'ra saxiyroq biror odamni ko'rgan yoki eshitganmisiz?» — deb so'rabdilar. Hotami Toyi bunday odamni ko'rganligini so'zlab berdi. Bir kuni u arab amirlarini chaqirib ziyofat qilibdi. Ziyofat uchun qirq tuya so'ydiribdi. Bir zarurat bilan sahroga chiqishiga to'g'ri kelibdi. U yerda cho'p-cho'mak terib dastalayotgan o'tinchini ko'ribdi. U o'tinchidan Hotamning uyiga nima sababdan bormaganligini so'rabdi va hozir bir talay odam

uning ziyofat dasturxoni atrofida o‘ltirganini so‘zlabdi. O‘tinchi javob beribdi:

— O‘z mehnatidan non yegan kishi
Hotam minnatidan ozod yoz-qishi.

Hotam ana shu o‘tinchini o‘zidan ko‘ra saxovatliroq deb bilibdi.

1. Hotami Toyidan nimani so‘rabdilar?
2. Matndan Hotami Toyining javobini topib o‘qing.
3. O‘tinchining javobini yod oling.
4. *«O‘z mehnatidan non yegan kishi*
   *Hotam minnatidan ozod yoz-qishi»* misralarining mazmunini qanday tushundingiz?

## Maqollar

- Saxiy topsa barcha yer,
  Baxil topsa bosib yer.

- Bardoshliga yog‘liq osh,
  Sabrsizga osh ham tosh.

## Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bo‘limdagi qaysi asarlar sizga ko‘proq yoqdi? Nima uchun? Navoiy ustozlar haqida nima deganlar?
2. Mehnat haqida kimning qanday asarini o‘qidingiz? Shu asardan misol keltirib, fikringizni isbotlang.
3. Ibn Sino qoldirgan «tabib»larni aytib bering.
4. Hind hisobiga kim qanday yangilik kiritgan?
5. *«Yetti yoshga to‘lganimda Shahrisabzdagi madrasaga olib borishdi va qo‘limga so‘zlar jadvalini berishdi»* kimning gapi?

# BAHOR MANZARASI VA MEHNAT

## ERTA BAHOR

Bahor. Hali yerlarda qor bor. Qor kunduzlari quyosh nurida eriydi. Yerga singiydi, kechalari esa muzlaydi.

Tol kurtaklari yorilib, undan bo'z momiq g'unchalar chiqadi. Bo'g'otda sap-sariq bo'lib osilib turgan sumalaklar quyosh shu'lasiga chidayolmay yosh to'kadi. Tomchilar mart...mart...mart... deganday bo'layotir.

*Muzayyana Alaviyadan*

1. Matndagi *«bo'z momiq»* so'z birikmasi o'rnida boshqa qanday so'z ishlatish mumkin?
2. *«...sumalaklar quyosh shu'lasiga chidayolmay yosh to'kadi»* gapining mazmunini tushuntirib bering.

# BAHOR YAQIN

*Zafar Diyor*

O‘tib ketdi qishning sovuq
Ham bo‘ronli kunlari.
Ortda qoldi oy, yulduzsiz,
Tim qorong‘i tunlari.

Endi quyosh ko‘proq boqar,
Dalalarga, bog‘larga.
Quchoq-quchoq yog‘du sochar,
Adirlarga, tog‘larga.

Bezanishar dala-qirlar,
Chechak taqar o‘tloqlar.
Bahor yaqin, bahor yaqin,
Bahor yaqin, o‘rtoqlar.

Ko‘nglim yana tog‘day o‘sar,
Ko‘rkam bahor kelganda.
Quvongayman dasta-dasta,
Gul-chechaklar terganda...

1. Qishning tugashini anglatuvchi misralarni o‘qing.
2. Bahor yaqinlashib kelayotganida tabiatda qanday o‘zgarishlar yuz beradi?
3. Siz bahorni sevasizmi? Nima uchun?

## Topishmoq

Besh xonaga bir yo‘lak,
Qo‘lingga loyiq ko‘ylak.

*(dobl,oQ)*

# TABIAT BILAN SUHBAT

*(Rivoyat)*

Bo‘ron dedi:

— Kuchda menga teng keladigani yo‘q. Men qudratliman. Istasam, dov-daraxtni ildiz-pildizi bilan sug‘urib tashlayman. Xohlasam, tog‘ni tolqon qilaman. Istasam, bog‘larni soyga uloqtiraman. Istasam, quyosh yuzini to‘sib, daryolar o‘zanini o‘zgartira olaman. Ha, men ana shunday dahshatliman.

Jala dedi:

— Ey, Bo‘ron, sen menchalik emassan. Mana meni zo‘r desa bo‘ladi. Jahlim chiqib, qahrim qo‘zib, bir quysam bormi, seni tinchitaman, yer yuzini suvga bostiraman. Hech kim, hatto sen ham qochishga joy topolmay qolasan.

Daryo dedi:

— E, namuncha maqtanasanlar. Ming maqtansanglar-da, bu dunyoda eng zo‘ri men. Sen, Bo‘ronvoy, menga yo‘liqqaningda o‘z-o‘zingdan tinchiysan. Jalavoy, shuni unutmaginki, sen menga qo‘shilganingdagina kuchlisan. Aks holda, seni zamin yutib yuboradi. Uning oldida hech narsa emassan.

Quyosh dedi:

— Nima deb vaqillayapsanlar o‘zi? Mening haroratimga bardosh berolmay to‘rt tomonga qochib ketasanlar-ku.

Daryo dedi:

— Bekorga tortishmaylik. Kelinglar, yaxshisi kim kuchliligini Odamdan so‘rab qo‘ya qolaylik.

Bo‘ron Odamga dedi:

— Dunyoda eng zo‘r kim? Menmi yoki Jala, Daryomi?

Odam dedi:

— Yo‘q. Dunyoda shunday bir kuch borki, u seni ham, Jala va Daryoni ham jilovlab oladi va istagan ko‘yiga soladi.

Ey, Quyosh, qudratlisan, lekin ko‘p katta ketma. Seni ham izmiga sola oladigan qudratli kuch bor.

— Xo‘sh, nima o‘zi o‘sha qudratli kuch? — deb baravariga so‘rashdi jahldan darg‘azab bo‘lgan Bo‘ron, Jala, Daryo va Quyosh.

Odam dedi:

— Bu qudratli kuch — Do‘stlik! Do‘stlik bor joyda senlar hech narsa emassanlar!

*A. Mansurov, U. Jo‘rayev, M. Lafasovlarning «Hadis ilmi saboqlari» kitobidan*

Matnni rollarga bo‘lib o‘qing.

## BOYCHECHAK

*(Qo‘shiq)*

*G‘ayratiy*

Bahordan berding darak,
Oson bo‘lmadi kutmak,
Senga talpingach yurak,
Sevgan gulim boychechak.

*Naqarot:*
Boychechak, boychechak,
Sevgan gulim boychechak.

Yerdan tortqilab quyosh,
Siynang uzra qo‘ydi bosh.
Yasantirding tog‘-u tosh,
Chiroyda sen oy chechak.

*Naqarot:*

Seni ko‘rdim bog‘larda,
Baxmal adir, tog‘larda,
Yam-yashil o‘tloqlarda,
Sen husnga boy chechak.

*Naqarot:*

Boshlab kelding bahorni,
Toza kumush nahorni.
Olibsan ixtiyorni,
Seplaringni yoy chechak.

*Naqarot:*

1. Boychechak qanday gul ekan? U qayerda o‘sadi?
2. She’rni ifodali o‘qishni mashq qiling.

Qo‘shiqni yod oling.

## Topishmoqlar

- Yerda asta unadi,
  Ilk bahorda kuladi.

  *(Boychechak)*

- Tanasi bor, boshi yo‘q,
  Qo‘li bor, oyog‘i yo‘q.

  *(Chopon)*

# QUYONCHA

*(Hikoya)*

*Nosir Fozilov*

Bektosh bilan Hoshim maktabdan qaytishdi. Ular dalada ishlayotgan bobolariga ovqat olib boradigan bo‘lishdi.

Hammayoqda bahor. Jonivorlar yer betiga o‘rmalayotgan payt. Traktorlar gurullab, atrofni larzaga solyapti.

Bolalar atrofni to‘yib-to‘yib tomosha qilishar, so‘qa ketidan ipakdek mayin tuproqqa yopirilgan zog‘cha galalariga kesak otib uchirishar edi. Bektosh zog‘chalarni tinch qo‘ymadi. U endi osmonga kesak otdi. Kesak shudgor chekkasidagi qalin butazorga borib tushdi, uning ichidan bir kichkina quyoncha hurkib sakrab chiqdi. Bolalar qiyqirishib quyonchaga otilishdi. Bechora quyoncha nima qilarini bilmay qoldi, keyin shoshganidan haydalgan yerga qarab qochdi. Bektosh uch-to‘rt hatlashdayoq unga yetib oldi. Orqasidan Hoshim halloslab yetib keldi. Bektosh esa quyonchani bag‘riga bosib oldi.

— Vuy, kichkinaligini, — dedi Hoshim havasi kelib, — bir ko‘rib beray.

— Yo‘q. Qochirib yuborasan.

Ular tutgan o‘ljalaridan xursand bo‘lib, qo‘sh boshiga borishdi. Bektosh olib kelgan ovqatini bobosiga bermasdanoq, tutib olgan quyonchasini ko‘rsatib, maqtandi:

— Mana, bobo, ko‘ring.

Bobosi quyonchani qo‘liga oldi va asta-asta siladi:

— Voy bechora-yey, yaqinda tug‘ilgan ekan! Uyasini traktor buzibdi-da. Bechoraning onasi izlab yurgandir, — dedi. Keyin nabiralariga qaradi.

Boboning so‘zidan hayron bo‘lgan Hoshim bilan Bektosh bir-biriga qarashdi...

Bektosh biroz o‘ylab turdi-da, bobosidan quyonchani olib, orqasiga burildi... Unga Hoshim ham ergashdi...

1. Hikoyadan bahor manzarasi tasvirlangan o‘rinni toping va o‘qing.
2. Bektosh quyonchani qanday tutib oldi?
3. Bobo quyoncha haqida nimalar dedi?
4. Hikoyani davom ettiring.

## BAYRAMINGIZ MUBORAK

*Yusuf Shomansur*

Sakkizinchi mart bugun,
Quvonchlarim bir jahon.
Bayramingiz muborak,
Aziz ona — onajon!

So‘zlari bol, durdona,
Mehnatda eng mardona,
Olam ichra yagona,
Sizsiz, ey aziz ona!..

Bizni yuvgan, to‘ydirgan,
Quvontirgan, kuldirgan,
Elga mehr qo‘ydirgan,
Onajonlar bo‘ladi.

Shuning uchun mehribon,
Onalarni ardoqlang.
A’lo o‘qib doimo,
Ona hurmatin oqlang.

Sakkizinchi mart bugun,
Quvonchlarim bir jahon.
Bayramingiz muborak,
Aziz ona – onajon!

1. She’r nima haqida yozilgan?
2. Bahorda yana qanday bayramlar nishonlanadi?

She’rni yod oling.

## KO‘KLAM YOMG‘IRI

*Cho‘lpon*

Uch kunlik yomg‘ir
To‘xtadi bazo‘r,
Bulutlar ko‘chdi.

Kech kirgan chog‘da
Tol shoxlariga
Shu’lalar tushdi...

Havoning yuzi —
Zaharli ko‘zi
Muloyimlashdi...

Sharqning malagi,
Nay kamalagi
Ko‘kka ulashdi...

Toldan «sochpopuk»,
Qiz ko‘ngli «puk, puk»,
Taqmoq istaydir!

O‘rtoqjonini —
Xayrixonini
«Ha» deb qistaydir...

Lekin shu’lalar
Singib borarlar...
Oqshom «to‘r» soldi.

«Sochpopuk» taqish,
Ertaga qoldi!

1. She’rda qaysi fasl tasvirlanganligini ayting.
2. She’rda qanday o‘yin ifodalangan?
3. Bahorda yana qanday o‘yinlar o‘ynaladi?

### Topishmoq

Qishda oq gul,
Bahorda suv sochadi.
Yel esganda
Tumtaraqay qochadi.

*(Bulut)*

## VARRAK

*(Hikoya)*

*Yo‘ldosh Shamsharov*

Bahor. Adirlarda g‘ir-g‘ir shabada esadi. Adirlar bolalar bilan gavjum bo‘lib ketadi. Osmonda varraklar shox tashlab uchadi.

Rashid goh u bolaga, goh bu bolaga:

— Ipidan birpas ushlab turay, – deb yalinadi.

— Nari qoch! Oyoq ostida o‘ralashaverma. Uyingga jo‘na!

Daroz laqabli bola esa:

— Puling bormi? Bor, pul olib chiq oyingdan, — deb Rashidga tirjaydi.

— Uyalmaysanmi, kichkina bolani aldagani? — dedi Sobir.

— Pul olib chiqsa, varrak uniki bo‘ladi. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Oyisi tikuvchi, puli ko‘p.

— Odammassan-da, — Sobir shunday deb teskari o‘girilib ketdi.

Rashidning xo‘rligi keldi. Yig‘lamsirab uyga qaytdi. Oyisi uyda ish tikardi, bezovta qilgisi kelmadi. Arzi-dodini akasiga aytdi.

— Menga ham varrak yasab bering. Anavi Daroz bolaning varragidan chiroyli bo‘lsin.

Akasi uydagi savacho‘plardan olib, o‘tkir pichog‘i bilan o‘rtasidan yordi, silliq qilib yo‘ndi. Dokani yerga yoyib, savacho‘plarni sirachlab yopishtirdi. Oyisi qiyqimlarning har xilini ulab, dum qilib berdi. Boshining ikki yog‘ida shoxchaga o‘xshab chiqib turgan savacho‘plarga qizil shoyidan quloq yopishtirishdi.

— Oyi, mashina ipingizdan berasizmi? — so‘radi Rashid.

Oyisi bosh chayqab jilmaydi-da:

— Burgutday qanotini kerib turishini qaranglar. Mana buni varrak desa bo‘ladi! — deb yubordi.

Rashidning «burguti» balandlab, asta tebranib uchardi. Shoxidagi qizil kokillari pirpirardi, uzun

dumi u yoqdan bu yoqqa tebranar edi. Rashid «iching kuysin» deganday, Darozga qarab-qarab qo'yardi.

Rashidning varragi osmonga ko'tarilishi bilan bolalar yugurib kelishdi. Varrakni birga uchirdilar. Hamma bolalar xursand. Daroz-chi?

Kech kirib, qorong'i tusha boshlaganda bolalar birin-ketin varraklarini tushira boshladilar. Bugun bolalar Darozga emas, Rashidga ergashdilar.

Rashid uchun eng quvonchligi shu bo'ldiki, Bolalar tashkiloti tomonidan 26-mart kuni poytaxtimizda «Varraklar bayrami» Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazildi. Rashid varragi bilan tanlovda qatnashdi. Uning varragi tanlovda birinchi o'ringa loyiq topildi.

1. Varrakning nimalardan yasalishini gapirib bering.
2. Nima uchun bolalar Rashidga ergashdilar?
3. Daroz bolaga qanday baho berasiz?
4. Rashid nimadan quvondi?

Uyda hikoyaning mazmuniga mos rasm chizing. Chizgan rasmingizni og'zaki tasvirlab berishga tayyorlaning.

## Topishmoq

Katta varaq, dumi taroq,
Akasining ismi quroq.

*(Varrak)*

## QALDIRG'OCH

*Sulton Jabbor*

Qaldirg'ochim, o'zingmi
Boshlab kelgan bahorni?
Shu sabab hamma senga
Mehr bilan boqarmi?

Go'yo so'ylab xushxabar
To'lib-toshib sayraysan.
Shu uchunmi ayvonda
Bola ochib yayraysan?

Yo rizq izlab olisdan
Biz tomonga yeldingmi?
Yoki yaxshi odamlar
Mehri tortib, keldingmi?

Ne bo'lsa ham, qaldirg'och,
Yo'qlabsanki ataylab.
Seni siylab asraymiz
Uyimizda avaylab.

1. She'rni ifodali o'qing va yod oling.
2. She'rda qaldirg'och haqida nimalar deyilgan?
3. Qaldirg'ochni ko'rganmisiz? Belgilarini ayting.

## NAVRO'Z — BAHOR BAYRAMI

*Muzayyana Alaviya*

O'lkamizda bahor... Shuning uchun ham qadimdan dehqonchilik ishlarining boshlanishini bahorning yigirma birinchi martidan hisoblaganlar.

Bu bayram *Navro'z,* ya'ni *Yangi kun* deb atalgan.

Dehqon ahlining qadimiy bayrami — Navro'zni har yili zo'r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi udumlaridan biri bo'lib qolgan.

Dehqonlar Navro'zda dala ishlariga kirishib, yer hayday boshlaydilar. Navro'zgacha yo'llarga ko'chatlar ekiladi. Ko'chalar tozalanib, ariqlar qaziladi. Hammayoq supurib-sidiriladi. Navro'z kirar kuni qo'g'irmoch qovurilib, turshak qaynatiladi. Moy, qaymoq, jizza, yong'oq solib, cho'zma chalpag-u kulcha, lochiralar pishiriladi. Yalpiz, ismaloq kabi ko'katlardan somsalar yopiladi. Sumalak tayyorlanadi.

Navro'z kunlari yoshlar keksalar va bemorlarni ko'rishga borishadi.

Yalpiz, binafshalarni olib borsalar, qariyalar: «Esonlig-u omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik, yanagi

oy-u yillarga o‘ynab-kulib yetaylik», — deb tilak bildirishadi. Xonadonlarda to‘kin-sochinlik bilan mehmon kutiladi.

Belgilangan vaqtda hamma dala, qir, bog‘-rog‘larga chiqib, o‘yin-kulgi qilib dam oladi.

Siz bolalarning bahorgi ta’tilingiz ham Navro‘zga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun tabiat qo‘yniga, dala-qirlarga, tog‘-u toshlarga sayrga chiqinglar. Tabiat bilan tanishib, ham bilim, ham zavq olinglar. Sho‘x-sho‘x o‘ynab kulinglar. Qo‘shiq aytib, raqsga tushinglar.

1. Navro‘z kunlari dehqonlar nima qilganlar? Yoshlar-chi?
2. Siz uyda va maktabda bahorgi ta’tilni qanday o‘tkazasiz?
3. Matnning mazmunini bayon qilishda rasmdan foydalaning.

## YURTIM KAMOLI

*Rauf Tolib*

Shamol tegdi ko‘ksiga
Buyuk ona xalqimni.
Baxt keltirdi istiqlol,
Tanidi o‘z haqini.

Barcha udum, an’ana,
Qaytdi yana elimga.
Navro‘z qildi tantana,
Hurmat ortdi tilimga.

Humo qushi misoli
Qo‘ndi boshga iqboli.
Adolatning timsoli
Istiqlol – yurt kamoli.

She’rni yod oling.

## DARAXTLARNI OQLAGANDA

*Yusuf Shomansur*

Dam olish kun bolalar
Cho‘tka ushlab barobar,
Ishlashdi katta yo‘lda,
Daraxtzorda, o‘ng-so‘lda.

Qoldirmay hech daraxtni
Ohak bilan oqlashdi.
O‘quvchilik burchini
Bu safar ham oqlashdi.

Daraxtlar turar qator
Oq shim kiyib olgandek.
Barglar ham beixtiyor
Quvnab chapak chalgandek.

Qurt-qumursqa, hasharot
Kovak qilolmas endi.
Xursand bo‘lib har daraxt
Boshin egib silkindi.

1. Bolalar daraxtlarni nima maqsadda oqladilar?
2. *Oqlashdi* so‘zi qatnashgan to‘rtlikni o‘qing. *Oqlashdi* so‘zining ma’nolarini tushuntiring.
3. She’rda daraxtlarning oqlangan qismi nimaga o‘xshatilgan?

# LOLA

*Ilyos Muslim*

Bahor keldi elimizga,
Ko‘m-ko‘k bo‘ldi bog‘, dala.
Sevinch to‘lib dilimizga,
Terib keldik gul-lola.

Qanday rohat bahor chog‘i!
Tabiat ham o‘zgacha.
Vatanimning chaman-bog‘i
Yam-yashildir kuzgacha.

Go‘zal bahor kunlarida
Sayr etib qaytamiz.
U haqda qish tunlarida
Doim eslab o‘tamiz!

Bahor keldi elimizga,
Yashil to‘n kiydi dala.
Shodlik to‘ldi dilimizga,
Terib keldik biz lola.

1. She’rda bahor faslining qaysi davri tasvirlangan?
2. Siz lola sayiliga borganmisiz?

## Topishmoq

Erta bahor qirmiziginam,
Tog‘ga yoydi qizil gilam.

(Lola)

## Tez aytish

Go‘zalning gullari gultuvakda gulladi.

*L. Usmonova*

## Bo‘lim yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Bo‘limdagi qaysi asarlarda bahor manzarasi tasvirlangan?
2. Jonivorlar hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz? Jonivorlar hayoti tasvirlangan asarlardan o‘zingizga yoqqan birorta parchani o‘qib bering.
3. Bahor kelishi bilan dala va bog‘larda qanday o‘zgarish bo‘ladi? Bu haqida qaysi asarda nimalar o‘qidingiz? Aytib bering.
4. Bahorda tabiatda yuz beradigan hodisalarni ayting. Bu haqida kimning, qaysi asarini o‘qidingiz?
5. Bahor haqidagi she’rlardan yod olganingizni aytib bering.

## ONA TABIAT

*Toshpo'lat Xolmatov*

**Yoz der:**
— Suvim beg'ubor,
Suz baliq misol!

**Kuz der:**
— Mevam, bolim bor,
Bari senga, ol!

**Qish der:**
— Kumush qorim bor,
Qorbobo yasang!

**Bahor der:**
— Gulim ko‘rkam,
Guldasta yasang!

Demak, ona tabiat
Bizni der har vaqt.

## YER SEVARNI — EL SEVAR

*Malik Murodov*

Tabiatning ajoyib tuhfasi — ona-Yerimizdir. Yer jamiki boyliklarning, ne’matlarning onasi hisoblanadi.

Tabiatni sevish, uni asrash, yon-atrofni ko‘kalamzorlashtirish, bog‘-rog‘larga aylantirish ham ona-Yerni sevish demakdir.

Nima uchun ona-Yer deymiz?

Shuning uchunki, dunyoga keliboq uning nafasi bilan nafas olasiz. Birinchi qadamni uning bag‘rida qo‘yasiz. U sizni kiyintiradi, to‘ydiradi, ardoqlaydi... Ona qo‘ynida qanday yayrab-yashnasangiz, zamin taftida ham o‘shanday unib-o‘sasiz, voyaga yetasiz. Onangiz sut, otangiz tuz bersa, ona-Yer non beradi, obihayot beradi... Shuning uchun ham u eng mo‘tabar inson — ona nomi bilan bog‘lab aytiladi.

1. Tabiatning bizga qilgan tuhfasi nima? Tabiatni sevish deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun ona-Yer deymiz? Javobni matndan topib o‘qing va o‘qiganingizni yod oling.

# SUHBAT

*(Ertak)*

*Yayra Sa'dullayeva*

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, hovuz bo'yida Tol bilan Majnuntol o'sgan ekan. Ular nihollikdan birga o'sgan, biri hovuzchaning u betida bo'lsa, biri bu betida turib qo'shnichilik qilisharkan. O'tgan-ketganlar ularning qaddi-bastlariga suqlanib-suqlanib qarasharkan, taglarida maza qilib dam olib ketisharkan.

— O'rtoq, o'rtoq, — debdi Tol Majnuntolga kunlardan bir kun, — seni qachondan beri bilaman. Nega doim boshingni egib turasan, qaddingni sira rostlamaysan? Ko'pincha parishon ko'rinasan.

— Yo'g'-e, o'rtoqjon, sen o'ylaganchalik parishon emasman. Boshim egikligi odamlarga bo'lgan muhabbatimdan. Ularni hurmat qilganimdan oldilarida boshimni egib turaman. Ayniqsa, barvaqt turib oyisiga yordam bergan o'g'il-qizlarni, maktabga ketayotgan o'quvchilarni ko'rsam xursand bo'laman. Boshim egikligi — yaxshilarga ta'zimim.

— Nega unda kechasi ham boshingni ko'tarmaysan?

— Tunlari men yog'du sochgan yulduzlarga salom beraman. Tun hamrohi — Oymomani qutlayman. Meni ko'rib kishilar orom olsin, ko'ngli tinchlansin, deyman. Aytmoqchi, nega sen menga o'xshab bosh egmaysan, nuqul tepaga, yon-veringga qarab o'sasan?

— Men ham odamlarning kuniga yaray, deyman. Novdalarim yetilgach, uni kesib oladilar.

— Tanang zirqiramaydimi?

— Yo‘g‘-e, aksincha, bahra olaman. Yangi qanotlar chiqaraman. Poyalarim kimlarningdir yangi qurgan uylariga kerak bo‘ladi, kimningdir tokini ko‘taradi. Kishilar kuniga yarash — mening baxtim.

Ikkala o‘rtoq kishilar uchun xizmat qilishlaridan g‘oyat mamnun edilar.

1. Ertakni rollarga bo‘lib o‘qishga tayyorlaning (Tol va Majnuntolning gaplarini aniqlang).
2. Suhbatdan Majnuntol va Tol haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Ikkala o‘rtoq nimadan mamnun edi?

### Maqol

- Elga xizmat — oliy himmat.

## NON HAQIDA

*Tolib Yo‘ldosh*

Non haqida o‘ylasam,
O‘yim tamom bo‘lmaydi.
Siz ham o‘ylang, bolalar,
Lekin yomon bo‘lmaydi.

Non-da har kun, har yerda
Insonga do‘st, qadrdon!
Non qadrini anglaymiz
Hammamiz ham, qadrdon.

Shu non ekan, ko‘rganman,
Non — bu hayot, avvalam.
Bilib aytgan bobolar:
«Aziz tuting», deb bolam!

Oqmi, qora, non bo‘lsin,
Mayli, eski, qotgani.
Vaqti kelsa topilmas,
Uning yerda yotgani.

Keksa-yu yosh shu non deb,
Ter to‘kishar, o‘ylasak.
Kim nima der, biz uni
E’zozlamay, o‘ynasak?!

Uning har ushog‘i ham
Non, hech to‘kib-sochmaylik.
Non — tiriklik, non — hayot,
Tuganmas baxt va boylik!



1. Shoir she’rda bolalarga nima deb murojaat qilyapti?
2. Bobolar non haqida nima deganlar?
3. Siz nonga qanday munosabatda bo‘lasiz?

## NON – INSON HAMROHI

Kechasi ketayotgan odamga qarab, uy egasi: «Bevaqt ketayapsiz. Mana bu nonni oling, hamroh bo‘ladi», — deydi. Xalq bu bilan nonni kishiga do‘st sifatida ifoda etadi. Nonning insonga do‘stligi haqida xalq ajoyib afsona yaratgan.

Kunlardan birida bir dehqon dalada ko‘p ishlab charchabdi. Ketmonning dastasini yerga tiqibdi. Ket-

monning o‘zini soyabon qilib, ko‘kragiga nonni qo‘yib uxlab qolibdi.

Ittifoqo, osmondan zaharli uchar ilon tushib, ketmonni teshib, dehqonga zahar solmoqchi bo‘libdi. Shu payt ko‘kragidagi nonni ko‘rib, zahar sololmay, kulcha bo‘lib qolibdi. Non dehqonni ilonning zahridan qutqaribdi.

Nonning insonga do‘stligi haqidagi afsonani so‘zlab bering.

### Topishmoq

Tog‘orada shishadi,
Tandirda pishadi.

*(uoN)*

## SOY SUVI HAQIDA ERTAK

*Zohir A’lam*

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo‘lgan ekan. U boyning zulmidan qochib, bola-chaqasi bilan tog‘ning etagiga kelib joylashibdi. Tog‘ning usti daraxtzor ekan, yonidagi soydan esa sharqirab suv oqar ekan.

Dehqon darrov to‘rt tanobcha yerni haydabdi, soydan suv olib sug‘orib, ekin ekibdi. Keyin esa tog‘dagi daraxtlarni kesib uy quribdi. Hovli tevaragini chetan devor bilan o‘rab olibdi. Daraxtlarning ancha-munchasini bozorda pullabdi. Shu orada bir yil o‘tibdi.

Kelasi bahorda dehqon yerini haydab, sug‘ormoqchi bo‘lgan ekan, qarasa, soyda suv yo‘q emish.

— Ey, soy, menga suv ber, ekinimni sug‘oray, — debdi dehqon soyga.

— Men suvni senga qayerdan olib beraman? Yaxshisi, yomg‘ir va qordan so‘ra, — javob qilibdi soy.

Dehqon yomg‘irdan suv so‘ragan ekan, u shunday deb javob beribdi:

— Ey, odam! Mening suvim nima bo‘lardi? Bir sharillab tushadi-yu, tezda oqadi-ketadi. Soyga hayqirib oqadigan suvni qor beradi. Sen o‘shaning oldiga bor!

Dehqon qorning oldiga boribdi.

— Ey, qor! — debdi. — Sen soyga suv ber. Men ekinimni sug‘oray.

Bu gapni eshitib qorning achchig‘i kelibdi. Qoshlarini chimirib, shunday debdi:

— Yomg‘ir ham, men ham bu yil me’yorida yog‘dik. Lekin namni ushlab turadigan daraxtlarni o‘zing kesib ketding. Qorlarimni taqsimlash — daraxtlarning ishi. Daraxt bo‘lmasa, qishda yog‘gan qor bahorda erib, oqib ketadi. Soyga suv kelmaganiga o‘zing aybdorsan.

Dehqon o‘ylab turib, qorning gapi rostligiga ishonch hosil qilibdi. Keyin uyiga qaytibdi-da, bir talay ko‘chat keltirib, tog‘ga ekib tashlabdi. Ular tez o‘sib, katta-katta daraxtlarga aylanibdi.

Shundan keyin soydan yoz bo‘yi suv oqadigan bo‘libdi.

Dehqon esa xohlagan paytida ekinini sug'orib, bola-chaqasi bilan yaxshi hayot kechiribdi.

1. Nima uchun soyning suvi qurib qolibdi?
2. Dehqon nimalardan suv so'rabdi?
3. Dehqon soyga qanday qilib suv keltirdi?
4. Yozuvchi ertak orqali nima demoqchi?

## Maqollar

- Avval o'yla, keyin so'yla.
- Birni kessang, o'nni ek!
- Xato qilmoq bordir,
  Tuzatmaslik ordir.
- Qimirlagan — qir oshar.

## Hazil topishmoq

- Suvsiz daryolar qayerda oqadi?

*B. Rahmonov*

## Tez aytish

- Uchuvchi suzuvchini uchratdimi,
  Suzuvchi uchuvchini uchratdimi?

*H. Arolova*

Tez aytishni tez o'qishni mashq qiling.

# GO‘ZAL FAZILAT — INSON HUSNI

Bir donishmanddan so‘radilar:

— Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu, eng yomon narsa nima?

Donishmand javob berdi:

— Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa go‘zal axloq, tarbiya, sa’y-g‘ayratdir. Shu go‘zal fazilatlar bilan nom chiqarishdir. O‘limdan ham yomon narsa esa tarbiyasizlik va yalqovlik bilan tanilishdir.

*Sh. Zunnun va I. Zunnunovlarning «Donishmandlar odob-axloq to‘g‘risida» kitobidan*

1. Donishmanddan nimalarni so‘radilar?
2. Donishmand nima deb javob berdi?

* * *

Odamlarning yaxshisi axloqda (xalqqa) yoqimli bo‘lganlaridir. Eng yomoni esa chaqimchilik bilan yurib, do‘stlar orasini buzuvchilar va begunoh odamlarni

halokat hamda mashaqqatga mubtalo qilish uchun yo‘l izlovchi kishilardir.

*«Hadis»dan*

## ONANI ROZI QILISH HAQIDA

Bir kishi Rasulullohdan: «Men yaxshiligimni kimga qilsam bo‘ladi?» — deb so‘rabdi. «Onangga», — debdilar Rasululloh. U kishi shu savolni uch marotaba qaytaribdi. Rasululloh «Onangga», deyaveribdilar. To‘rtinchi marotaba so‘rabdi. Shunda: «Otangga va yaqin bo‘lgan qarindoshlaringga!» — debdilar Rasululloh.

*«Hadis»dan*

1. Bu hadisdan qanday xulosa chiqardingiz?
2. Siz yana qanday hadislarni bilasiz?

## OTA-ONANI HURMATLASH HAQIDA

Aql bilan ish tutgan farzand ota-onani izzat va hurmatlashi lozimdir. Chunki ular farzand uchun o‘limga ham tayyor turadilar. Ota-onaning ishi farzandni parvarish qilish va yaxshilik o‘rgatishdir.

Farzand aqlli va dono bo‘lsa, ota-onaning mehr-muhabbatini ado etadi. Agar farzand ota-onaning ko‘nglini sal bo‘lsa-da ranjitsa, ularning qalbini azoblagan bo‘ladi.

Ko‘rdingki, ota-ona seni jon-dili bilan parvarishlab voyaga yetkazdi. Agar sen ularga nisbatan xato ish qilsang, sen hech yaxshilikka sazovor emassan. Chunki har kishi ota-onaning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi.

*«Qobusnoma»dan*

1. Matndan ota-onaning farzandga mehri ifodalangan o‘rinni toping va o‘qing.
2. Farzandning ota-ona oldidagi vazifasi nimalardan iborat?
3. Qanday kishi birovning yaxshiligiga baho bera oladi?
4. Siz ota-onani hurmatlash deganda nimani tushunasiz?

## BOBUR VA HUMOYUN

*Pirimqul Qodirov*

Bobur dovyurak, epchil, kuchli, o‘ta idrokli inson bo‘lgan. U ona yurti Andijonni, oilasini qadrlagan, farzandlarini sevgan. Farzand uchun o‘z jonini berishga tayyor turgan otadir.

Bir kuni Humoyun betob bo‘lib qoldi. U tuni bo‘yi alahlab behush yotdi.

Saroy tabiblari bu og‘ir dardga hech bir davo topolmadilar. Humoyunning onasi Mohimbegim yum-yum yig‘laydi. Bobur o‘rtanadi. Og‘ir paytlarda Boburga suyangan, undan yordam olishga o‘rgangan odamlar hozir ham biron chora topishni undan kutadilar. Lekin hozir Boburning o‘zi ham chorasizlikdan qiynalardi.

Bobur o‘ziga umid bilan qarab turgan odamlarning orasidan o‘tib, Humoyunning to‘shagi yoniga keldi.

— Humoyun, jigarbandim. Sening betoqatligingga men toqat keltiray. Sening shu og‘ir dardingni xudo sendan olib, menga bersin...

Gulbadanbegimning yozishicha, o‘sha kuniyoq Humoyunning ahvoli yaxshilana boshlabdi. Boburning esa mazazi qochib, yotib qolibdi.

**Reja:**

1. Bobur — oilaparvar, mehribon ota.
2. Humoyun betob bo‘lib qoldi.
3.
4.

Rejani davom ettiring.

## OTA-ONA DUOSI

*Safo Ochil*

Olmasam gar ko‘nglim to‘lmas,
Ota-onam duosini.
Olmasam gar yo‘lim bo‘lmas,
Ota-onam duosini.

Qayda bo‘lmay yo‘qlagayman,
Mehrin asrab saqlagayman.
Axir, qanday oqlagayman,
Ota-onam duosini.

Umrim bo‘yi g‘amin yerman,
So‘zin durga alishtirmam,
Siymu zardan ortiq derman
Ota-onam duosini.

She’rni yod oling.

## ONA MEHRI

*(Ertak)*

*O‘ktam Usmonov*

### I

Bundan ming yillar ilgari Soylik degan joyda yalmog‘iz kampir yashagan ekan. Turqi sovuq, ko‘zlari o‘ra kabi chuqur, tishlari esa qoziqday-qoziqday ekan.

Yo‘lida tog‘, daryolar uchrab qolsa, bir aylanib qanot chiqarar ekan. Ko‘zlagan maqsadiga bir zumda yetar ekan.

U qah-qah urib kulsa, tog‘dan tosh yumalab, atrofni dahshatli ovoz qoplar ekan. Uning qadami yetgan tuproqda giyoh unmas, odam zoti qolmas ekan.

Kunlardan bir kun o‘sha yalmog‘iz yerga ag‘anabdida, qanot chiqarib uchibdi. Kun botish vaqtida Uzunterak degan qishloqdagi olmazorga qo‘nibdi. Daraxtlar panasiga berkinib, atrofni kuzatibdi. Shu daqiqada olmazor burchagidagi uyning eshigi ochilibdi.

Uydan bola ko‘tarib, yoshgina ayol chiqibdi. U bog‘ga kirib o‘g‘liga olma uzib berayotgan ekan, uni yalmog‘iz ko‘tarib qochibdi. Yarim kechada Soylikka yetishibdi. Juvonning ko‘zi uyilib yotgan suyaklarga tushib, dodlab yuboribdi. Bolani bag‘riga bosganicha dag‘-dag‘ titrar emish. U o‘zidan ham bolasini qattiq avaylarmish.

## II

Yalmog‘iz hayron bo‘libdi. «Insonda onalik mehri g‘oyat zo‘r kuch deb eshitgandim. Qani, bir sinab ko‘ray-chi», — debdi o‘ziga-o‘zi.

— Hoy, odamzod. Buyrug‘imni bajarsang, hozir qutulasan. Agar so‘zimni ikki qilsang, faqat suyaklaring qoladi. Qani bo‘l, ko‘z oldimda bolangni anavi jarga irg‘it, — debdi yalmog‘iz.

Juvon hayrat bilan unga tikilibdi, biroq churq etmabdi. Bolasini mahkam quchibdi. Yalmog‘iz g‘azab-

lanib, bolaga qo‘l uzatibdi. Ona faryod ko‘tarib, uning yuziga chang solibdi.

Yalmog‘izning g‘azabi qo‘zib, qulog‘i ustidagi uzun sochidan bir tola yulibdi. Shu zahoti ona-bola qop-qorong‘i, zax o‘raga tushib qolibdi. O‘raning to‘rt tomoniga uzun-uzun mixlar qoqilgan ekan. Son-sanoqsiz kovaklardan chipor ilonlar bosh chiqarib turishar, ona-bolaga qarab vishillashar emish. Oyoq ostidagi qumda esa dumlarini gajak qilib chayonlar yurarmish. Yalmog‘iz ayolga do‘q urib:

— Bolangni bo‘g‘ib o‘ldirasanmi yoki ilon va chayonlarga yem bo‘lasanmi? Qaysi birini tanlaysan?— debdi.

— Go‘shtimni qiymalasang ham bolamdan ajralmayman! — deb qichqiribdi ona.

1. Ona va bola qanday qilib Soylikka borib qolishdi?
2. Nima uchun ona yalmog‘izning yuziga chang soldi?
3. G‘azablangan yalmog‘iz onani qanday jazoladi?

## III

Yalmog‘iz qulog‘i ustidan yana bir tola sochini yulibdi. O‘sha daqiqadayoq o‘ra ichidagi mixlar, chayon va ilonlar qayoqqadir yo‘qolibdi. Ammo qum ostidan biqir-biqir loyqa suv chiqa boshlabdi.

— Ha, botir juvon, qalaysan endi? — debdi yalmog‘iz.

Ona o‘lishini bilibdi. Bolasini bag‘riga bosib, yalmog‘izga:

— Sen, odamxo‘r, menga jazo beraver. Menga hukmingni o‘tkaza olmaysan. Axir men — onaman. Mayli, tanamni nimtalab tashla. Lekin men o‘lmay turib, bolamga tega olmaysan, — debdi.

Suv ko‘payib, onani ko‘ma boshlabdi. Go‘dak yig‘labdi. Ona bolasini o‘ng kaftiga o‘tqazibdi. Qo‘lini baland ko‘tarib, suvdan chiqarib turibdi. Bola ojiz kaftda pitirlay berib, yiqilib tushibdi. Ona jon talvasasida bolasini yana yuqoriga ko‘tarib olibdi.

Buni ko‘rgan yalmog‘izni titroq bosibdi. Chunki u bunday qat’iy irodali ayolni sira ko‘rmagan ekan.

Yalmog‘iz yengilibdi. U osmonga qarab alam bilan o‘kiribdi. O‘kiraverib charchabdi. So‘ng bir dumalab, qanot chiqaribdi. Tog‘-toshlar orasiga yo‘l olibdi.

## IV

O‘radagi suv sekin-asta kamayibdi va qumning o‘zi qolibdi. Bechora ona bolasini mahkam quchoqlaganicha behush yotgan emish. Shu vaqt bulbulcha paydo bo‘libdi. U ona-bola turguncha sayrayveribdi.

Ona holsizgina qo‘zg‘alibdi-da, bir iloj qilib bolasini o‘radan olib chiqibdi.

Onaning ko‘ngli yorishibdi. U bolasi bilan qishlog‘iga yo‘l olibdi. Oradan talay yoz-qish o‘tibdi. Ona qarib qolibdi. O‘g‘ilchasi esa pahlavon bo‘lib ulg‘ayibdi. Bir kun pahlavon tog‘-toshlarda ov qilib yurgan ekan. Uni bulbulcha uchratib, tanib qolibdi. U sayrab pahlavonga hamma voqeani hikoya qilibdi. Pahlavon yalmog‘izdan odamlar o‘chini olishga bel bog‘labdi.

Pahlavon yalmog‘izni yetti yil izlabdi. Oxiri Soylikdagi eski g‘ordan topibdi. U bilan ikki kecha-yu ikki kunduz olishibdi. Uchinchi kun yalmog‘izning yuragiga qilich sanchibdi. Shu-shu el-yurt yalmog‘izdan qutulib, bexavotir yashay boshlabdi.

1. Yalmog‘izni nega titroq bosdi?
2. Bulbulchaning uzoq sayrashiga sabab nima?
3. Yalmog‘izning halok bo‘lishini so‘zlab bering.

## QOIDA

*Hakim Nazir*

Qodir aka — mashina haydovchisi. U bir hafta-o‘n kunlab yo‘l bosadi. Safardan uyga qaytganida uning birinchi surishtiradigan narsasi Botirning o‘qishi bo‘ladi. Qodir akaning o‘g‘lidan ko‘ngli to‘q. Shunday bo‘lsa-da, uning kundalik daftarini bir sidra varaqlab chiqmaguncha tinchimaydi. Shunda Botirning yuqori ballarini ko‘rib quvonadi va: «Balli, o‘g‘lim, yuzimni yerga qaratmabsan. Asti orqaga qaytma!» — deb uning yelkasiga qoqib qo‘yadi.

Ammo o‘tgan hafta boshqacha bo‘ldi.

Qodir aka safardan kelganda, Botir qo‘shnisi Sasha bilan uyda kitob o‘qib o‘tirardi. Sochlari sarg‘ish, ko‘zlari ko‘kimtir quvnoq Sasha Botirning qalin o‘rtog‘i edi. Sasha Botirga rus tilini, Botir unga o‘zbek tilini o‘rgatardi.

Qodir aka ikkisi bilan ko‘rishgach, odaticha darrov kundalik daftarni varaqladi. Daftarda yuqori ballar tizilib turibdi. Biroq «xulqi» degan so‘z ro‘parasida pastroq ball paydo bo‘lib qolibdi.

— Nega bunday bo‘ldi? — dedi Qodir aka. Botir dadasiga tik boqolmasdi.

Buni payqagan Qodir aka:

— Mayli, o‘g‘lim, tortinmay rostini aytaver, — deb dalda berdi.

Botir hech qachon na dadasidan, na o‘qituvchisidan va na o‘rtoqlaridan sir yashirgan emas. Ammo hozir dadasi uzoq yo‘ldan charchab kelgan. U bo‘lgan voqeani aytib, dadasini xafa qilib qo‘yishdan cho‘chir edi. Sashaga esa allaqachon aytgandi. Shuning uchun Sasha o‘ylab-netib o‘tirmay, bo‘lgan voqeani Qodir akaga so‘zlab berdi.

Voqea bunday bo‘lgan edi. O‘qituvchi Aziz degan bolani doskaga chiqarib masala berdi. Aziz ancha qiynaldi. Javobiga kelganda bitta nolni yo‘qotib qo‘ydi. Ba’zilar kulib yuborishdi. Aziz battar dovdiradi. Peshanasi terlab ketdi. Botirning rahmi keldi. Bir varaq qog‘oz oldi. Doira shaklini chizdi-da, uni Azizga sekin ko‘rsatdi. Buni o‘qituvchi sezib qoldi.

Botir ilgari ham bilmagan o‘rtoqlariga shivirlab yo imo-ishora bilan aytib berib turgandi. O‘shanda

o'qituvchi Botirni ogohlantirgan edi. Bu galgisini kechirmadi. Hamma fandan yuqori ball olib yurib, xulqdan pastroq ballga tushib qolishining sababi mana shu edi.

Qodir aka o'g'liga qarab:

— Demak, qoidani buzibsan-da, o'qituvching to'g'ri qilgan. Hamma yerda qoidaga rioya qilinadi, — dedi.

1. Qodir aka nimadan quvonardi-yu, nimadan xafa bo'ldi?
2. Sasha kim? U Qodir akaga qaysi voqeani so'zlab berdi?
3. Botir to'g'ri ish qildimi? Sizning sinfingizda Botirga o'xshagan bolalar bormi?
4. Siz o'rtoqlaringizga qanday yordam berasiz?

## Maqollar

- Odobli bola elga manzur.

- Odobni beodobdan o'rgan.

- Osmon — oftobi bilan,
  Inson — odobi bilan go'zal.

* * *

Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,
Qo'lingdan kelgancha tera olsang bas.

*Rudakiy*

# YORDAM BERDI

*(Hikoya)*

*Yayra Sa'dullayeva*

## I

Farida uyiga shosha-pisha keldi. U papkasini qo'yib, qozonga qaradi. Chunki har kuni maktabdan qaytishiga onasi issiq ovqat tayyorlab turardi. Bu gal qozon bo'm-bo'sh edi. Ichkaridan Inobat opaning xasta ovozi eshitildi:

— Farida, keldingmi, qizim? Ukangga qaragin, men... — dedi-yu bo'g'ilib-bo'g'ilib yo'tala boshladi.

— Teatrga kechga qolaman, oyi, — dedi u pitirlab.

— Men betobman, bu gal bormasang, keyingi gal borarsan.

— Bormasam bo'lmaydi. O'rtoqlarim kutadi, — dedi-yu, «ketdim» deganicha chopqillab chiqib ketdi.

## II

Chaqaloqning uyqusi kelib g'inshir, Inobat opaning isitmasi esa borgan sari ko'tarilib borardi. Shu payt Faridaning sinfdoshi Shohida uyga kirib keldi. U yig'layotgan chaqaloqni qo'liga oldi va uning og'ziga so'rg'ich soldi. Chaqaloqning ko'zi ilina boshladi. Shohida termometrni silkitib tashlab, Inobat opaga uzatdi. O'zi esa birpasda achchiq choy damlab keldi. Termometrning simobi 39 darajani ko'rsatganini ko'rib yuragi «shuv» etib ketdi. Inobat opaning hay-hayiga qaramay telefonda «Tez yordam» mashinasini chaqirdi. Opaning ertalabdan beri tuz totmaganini bilib,

yovg‘on xo‘rdaga unnab ketdi. Xo‘rda pishdi. Uni kosaga suzib, qatiq aralashtirdi-da, Inobat opaga zo‘rlab ichirdi. Endi kosani yuvib bo‘lgan edi, «Tez yordam» kelib qoldi.

## III

Shifokor bemorga ukol qildi. Unga qimirlamay yotishni tayinlab, bir necha xil dori yozib berdi.

— Oyingni ehtiyot qil. Urintirib qo‘yma, — deb tayinladi.

Shohida o‘z onasi kasal bo‘lgandek tashvish tortdi. Shifokor ketgach, dorixonadan dori olib keldi. Bemorga ichirdi. Haytovur, Nurilla aka ishdan kelib qoldi. Shohida ozod bo‘ldi. U keta turib: «Tezroq sog‘aying, opoqijon», — dedi-da, ko‘chaga chiqdi. Ko‘chada Faridaga duch keldi.

— Nega teatrga bormading, rosa maza qildik, — dedi Farida.

— Ishim bor edi, — deb qo‘ya qoldi Shohida.

Shohida uyiga yetib borsa, hali onasi ishdan kelmabdi. U darhol kiyimlarini o‘zgartirib, oshxonaga kirdi. Hademay onasi keladi. Hech bo‘lmasa ovqat tayyorlab turmoqchi bo‘ldi.

1. Hikoyadagi qaysi qahramon sizga yoqdi? Unga qanday baho berasiz?
2. Siz Faridaning o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?
3. Shohida Faridaga nima uchun uning uyida bo‘lganini aytmadi?

## Maqollar

- Yosh kelsa — ishga,
  Qari kelsa — oshga.

- Qo‘shni keldi — ko‘mak keldi.

- Odob — kishining zeb-u ziynati.

# QALAMNING O‘KINCHI

*Shuhrat*

Qalam deydi: — Meni chizma
Devor, toshga.
Axir mening xizmatim bor
Butun boshqa.
Kishilarning qarg‘ishiga
Qo‘yma meni.
Shunday qiynab, isrof etsang,
Suyma meni!
Yaxshi niyat, orzu bilan
Qo‘lingga ol,
Qog‘ozga yoz, gar istasang,
Suratlar sol.
Husnixat yoz, xizmatingga
Men hozirman.
«Besh» olganda:
«Rahmat», desang,
Men arzirman.



Meni sevsang qiynama hech,
Etma isrof.
Men do‘stingman, yuragi keng,
Niyati sof!

1. She’rni tinish belgilariga rioya qilib o‘qing.
2. Qalam o‘quvchilarga nimalar dedi?
3. She’rni o‘qib, qanday xulosaga keldingiz?

## HASSA

*(Hikoya)*

*Xudoyberdi To‘xtaboyev*

Qobil boboning Shavkat bilan Shuhrat degan nabiralari qo‘shni xonada o‘ynab o‘tirishar edi. Nima bo‘ldi-yu, ikkovlari bahslashib qolishdi.

Shavkat yugurib bobosining oldiga chiqdi-da:

— Bobo, bobo! Kim odobli, menmi yoki Shuhratmi? — deb so‘radi.

Qobil bobo hovliga chiqmoqchi bo‘lib turgan edi.

— O‘g‘lim, avval hassamni keltirib ber, keyin o‘ylab javob beraman,— dedi u nabirasiga.

— Yo‘q, avval aytasiz! — oyoqlari bilan polni tepib turib oldi Shavkat.

— Axir, o‘ylab ko‘rish kerak-da! — dedi Qobil bobo.

— Bo‘lmasa, hassangizni keltirib bermayman, — deb Shavkat qaysarlik bilan polga o‘tirib oldi. — Keltirib bermayman!

Qobil bobo hassasini olish uchun o‘zi o‘rnidan qo‘zg‘aldi.

Shu payt bobosiga salom berib, Shuhrat kirib keldi.

— O‘g‘lim, hassamni keltirib ber, — dedi Shuhratga bobosi.

— Xo‘p bo‘ladi, bobojon! — dedi Shuhrat bobosining gapi tugamasdanoq.

U chopib borib bobosining hassasini keltirib berdi. Keyin o‘rnidan turayotganida bobosining qo‘lidan ushlab, turishiga yordamlashdi.

— Rahmat, o‘g‘lim, — dedi Qobil bobo Shuhratning peshanasini silab, — umring uzoq bo‘lsin!

— Bobo, kim odobli? Menmi yoki Shuhratmi, ayting axir! — der edi Shavkat yer tepinib.

Qobil bobo hassasini do‘qillatganicha hovliga chiqarkan:

— Kim odobli ekanligini xulq-atvoringizning o‘zi ko‘rsatib turibdi, — dedi.

1. Hikoyani rollarga bo‘lib o‘qing.
2. Hikoyada kimlar qatnashdi? Ularning ismlarini doskaga yozing.
3. Nima uchun Qobil bobo Shuhratning peshanasini silab qo‘ydi?
4. Matndan hikoyaning asosiy mazmunini ifodalovchi so‘zni toping. Odobli bola qanday bo‘lishi kerak?

## KAMTARLIK HAQIDA

*Erkin Vohidov*

Garchi shuncha mag‘rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?

Kamtarin bo‘l, hatto bir qadam
O‘tma g‘urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O‘par doim peshanasidan.

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Shoir piyola bilan choynak orqali nima demoqchi?

## CHIN O‘RTOQ

*(«Mehrobdan chayon» romanidan)*

*Abdulla Qodiriy*

Anvar har kim uchun sevimli va xushmuomalasi barchaga baravar edi. Ayniqsa, xush ko‘rgan kishilaridan birinchisi Ra’no va ikkinchisi maktabdagi saboqdosh sherigi Nasim ismli bola edi.

Nasim bilan Anvar juda yaqin do‘st, bir-birini anglovchi sirdosh o‘rtoq edilar. Nasim «xonning mirzaboshisining o‘g‘liman», deb havolanmasdi. Shuning uchun Anvar ham «Salim bo‘yoqchining yetimi, Solih maxdum[1]ning asrandisiman», deb andisha qilmas edi. Bu ikki bola bir joyda suhbatga kirishsalar, chetdagi bir kishi Anvarni yirtiq bo‘z kiyimlar ichida va Nasimni shohi-adraslar bilan g‘arq holda ko‘rib taajjublanar edi.

«Bu gadoyvachcha bilan bekvachchaning o‘zaro nima munosabatlari bor?»— deb hayron qolardi. Lekin buni do‘stlar farqlamasdilar. Baxtga qarshi bu

---

[1] *Maxdum* — martabali kishi.

do'stlik uzoq davom etmadi. Bir kun oradagi do'stlik ipini o'lim uzdi. Nasim o'n besh yoshlar chamasida chechak kasali bilan og'ridi va osha vaqtda davosiz hisoblangan bu dardning qurboni bo'ldi. Muhammad Rajabbek va oilasi uchun og'ir bir hasrat bo'ldi. Anvar marhumning ota-onasidan ham ko'proq ko'zyoshi to'kdi. Uch kun maktab va Maxdumni unutib, Muhammad Rajabbek hovlisida turib qoldi. Har oqshom Nasimning qabri ustida bir necha soatlab yig'lab o'tirdi. Anvarning samimiy, chin do'stligi va o'rtog'iga sadoqati har kimni taajjubga qo'ydi.

Anvar birinchi marotaba marhum do'stiga atab marsiya yozdi. Bu marsiya motamdagi ota-onani yana bo'zlatgan edi. Marsiyadan namuna:

Nasimim ketdi olamdan meni qayg'u aro tashlab,
Ko'zimdan oqsa xun hech bir ajab yo'q,
chunki qon yig'lar.
Jahonda erdi tanho men yetimga hamnishin[1],
dildor,
G'ariblikning diyorida adashgan notavon yig'lar...

Mulla Muhammad Rajab o'g'lining sodiq do'stiga shu kundan boshlab boshqacha qaray boshladi. U Anvarga bo'lgan iltifotini, avvalo, uning marsiyasidan bir baytni Nasimning qabrtoshiga yozishdan boshladi. So'ngra Anvarning, dunyoda men yetim o'rtog'ingga tanho sirdosh va dildor (ko'ngil ko'taruvchi) eding. Bu kun men sendek do'stdan ayrilib, yana

[1] *Hamnishin* — hamsuhbat, suhbatdosh.

g'urbat diyorida notavon yig'layman, deb afsus va nadomat qilishini bilgan Muhammad Rajabbek Anvarning yetim va g'aribligini bildirmaslik maqsadida, o'g'lining sodiq do'stiga otalik qilishni niyat qiladi.

**Reja:**

1. Rajabbekning niyati.
2. Do'stlik ipi uzildi.
3. Marsiya.
4. Afsus va nadomat.
5. Do'stlar.

Reja qismlarini matn mazmunining izchilligiga asoslanib tartibga soling va so'zlang.

## DO'STLAR

Bir chamanzorda Qarg'a, Toshbaqa, Ohu va Sichqon do'st bo'lib yashar edi. Ular atrofi qamish bilan o'ralgan joyga yig'ilishib suhbat qurishardi. Birbirlariga hikoyalar aytishar, sarguzashtlarini so'zlab berishar va shod-xurram kun kechirishar edi.

Bir kuni Qarg'a, Sichqon va Toshbaqa, odatdagidek, qamish bilan o'ralgan joyga to'plandilar. Lekin Ohu kelmadi. Xavotir olib, Qarg'aga dedilar:

— Havoga uchib, atrofni qara. Zora biror xabar keltirsang.

Qarg'a uchib borib, ko'p joylarni qaradi. Nihoyat, Ohuning to'rga tushib yotganini ko'rdi. Darhol qaytib kelib, voqeani do'stlariga aytib berdi. Shunda Qarg'a bilan Toshbaqa Sichqonga qarab: — Birodar, bu ish-

da unga sengina yordam bera olasan. Tez bo‘l, fursat qo‘ldan ketmasin, — deyishdi.

Sichqon tezlik bilan Ohu yoniga yetib bordi. U chaqqonlik bilan to‘rni qirqa boshladi. Shu payt Toshbaqa kelib qoldi. Ohu esa unga shunday dedi:

— Do‘stim, nega kelding? Agar Sichqon tuzoqning to‘rlarini kesib meni qutqarsa-yu, birdan ovchi kelib qolsa, nima qilasan?

Toshbaqa dedi:

— Birodar, qanday qilib kelmayin? Baxtsizlik yuz berganda tasalli beradigan do‘st-ku, axir! Do‘st bilan birga bo‘lish lozim.

Toshbaqa so‘zini tugatmay, uzoqdan kelayotgan ovchiga ko‘zi tushdi. Sichqon esa to‘rni kesib bo‘lgan edi. Ohu turib qochdi. Sichqon o‘zini teshikka oldi. Qarg‘a uchib ko‘kka ko‘tarildi. Ovchi kelib to‘rning qirqilganini ko‘rdi. Hayron bo‘lib u yoq-bu yoqqa qaradi. Ko‘zi Toshbaqaga tushdi. Ovchi Toshbaqani to‘rvaga o‘rab shaharga jo‘nadi.

Do‘stlar ovchi ketishi bilanoq yig‘ilishib, Toshbaqani qidira boshladilar. Uni ovchi olib ketganini anglab, bir tadbir topib, Toshbaqani qutqarishni o‘ylashdi. Ulug‘larning, shijoatli va kuchli botirlar urushda, do‘st va birodarlar boshga kulfat tushganda bilinadi, degan gaplarini esladilar.

Sichqon Ohuga dedi:

— Bir chora topdim. Sen ovchining yo‘lidan chiqib o‘zingni yarador ko‘rsatasan. Qarg‘a seni tirnab o‘ldirmoqchi bo‘lganday, boshingga qo‘nib oladi. Ovchi seni ko‘rishi bilan tutib olish payiga tushadi va Toshbaqani yerga qo‘yadi. U senga yaqinlashgan sari sen cho‘loqlanib, yiqilib-turib undan uzoqlashaverasan. Ovchining boshini bir soatcha aylantirasan. Men bu muddatda Toshbaqani uning to‘rvasidan ozod qilaman.

Do‘stlar shunday qildilar. Ovchi Ohuni tutmoq uchun rosa ovora bo‘ldi, lekin hech ish chiqmadi. Pushaymon bo‘lib orqasiga qaytdi. Qarasa, Toshbaqa yo‘q. To‘rva yirtilgan.

Ovchi bo‘lgan voqealarni esladi. Bu joy parilar va jodugarlar makoni ekan, deb qo‘rqib ketdi. Bu yerni tark etib, jo‘nab qoldi.

Ovchi ketgach, yoronlar yig‘ilishdi. Ular sevina-sevina, eson-omon o‘zlarining xilvat manzillariga bordilar. U yerda rohat va farog‘atda umr kechira boshladilar. Sadoqatli do‘stlar va samimiy birodarlarning bir-biriga ko‘magi ularning baxtli hayotlarini mustahkamladi.

*«Kalila va Dimna»dan*

1. Asarda ishtirok etuvchilarning nomlarini ayting.
2. Nima sababdan Toshbaqa ovchining qo'liga tushdi?
3. Do'stlar Toshbaqani qutqarish uchun qanday tadbir qo'lladilar?
4. Do'stlarning yana qayta baxtli hayot kechira boshlashlarining sababi nimada?
5. Ovchi nega qaytib ketdi?

## Maqol

Daraxtni tomiri saqlar,
Odamni — do'sti.

## CHUMOLI BILAN CHIVIN

*(Masal)*

*Elbek*

Yuk ko'tarib ketayotgan chumoliga
Yo'liqib, chivin kuldi uning ahvoliga:
— Hoy, hoy, ochko'z, qadrini bilmas boyaqish!
Terlab, charchab ishlaydirsan tinmay yoz-qish.
Bu qanday hol? Ishlamasang o'lasanmi?
Ishlaganing bilan baxtli bo'lasanmi?
Ko'rdingmi sen meni, qanday yashaydirman,
Uchib-ko'rib ozuq-ovqat oshaydurman.
Ishlamasdan yemaklik ham mumkin ekan-ku!
Sen ham axir mening kabi jonivorsan-ku!
— To'g'ri, sizlar ishlamasdan topasizlar,
Qayda tekin ovqat bo'lsa, chopasizlar!
Ishlamasdan ozuq topish, baxtli bo'lish,
Bizda tubanlikdir, undan yaxshi o'lish.

1. Masalni rollarga bo‘lib o‘qishga tayyorlaning va o‘qing.
2. Masaldan qanday xulosaga keldingiz?

## NOAHILLIK OQIBATI

*(Hind ertagi)*

Bir ovchi o‘rmonga to‘r qo‘yib, qarg‘a, chug‘urchiq, kaptar va boshqa har xil qushlarni ilintirib oldi.

Ular hadeb bir-birovlariga:

— Sochilgan donga aldanib qo‘lga tushdik. Kelinglar, qanday qilib qutulish yo‘lini o‘ylab ko‘raylik, — der edilar.

— Kelinglar, hammamiz baravar qanot qoqib uchib ko‘raylik. Ehtimol, to‘rni ko‘tarib ketarmiz, — deyishdi.

Darhaqiqat, baravar qanot qoqib, to‘rni ko‘tarib uchib ketdilar. Ovchi qarasa, qushlar to‘rni ko‘tarib uchib ketayotibdilar. U hayratda qolib, orqalaridan quvib ketdi. Ovchi chopib ketayotib: «To‘rga tushgan qushlar har xil-ku! Ular, albatta, janjallashib qoladilar. Janjallashadilarmi — tez ucha olmaydilar. To‘r ularni pastga tortadi», — deb o‘yladi. Xuddi shunday bo‘ldi.

Qarg‘alar qag‘illashib:

— Hech kim bizdek harakat qilmayotir! Agar biz ham sizlar singari mug‘ambirlik qilsak, to‘r allaqachon hammamizni yerga olib tushib ketgan bo‘lar edi, — deyishdi.

Qarg‘alarning so‘zini eshitgan kaptarlarning jahli chiqdi.

— Bas endi, qarg‘alar! Biz sizlardan ortiqroq harakat qilayapmiz! — dedilar.

Janjalga boshqa qushlar ham aralashdilar. Do‘stlik buzilgach, ish yaxshi yurishmadi. Qushlar janjallashib, arang qanot qoqardilar. Shunday qilib, to‘r asta-sekin pastlay boshladi...

1. Ertakni o‘qing va davom ettiring.
2. Sizga ertakning qaysi qismi yoqdi? Shu haqida so‘zlab bering.
3. Ovchi o‘z maqsadiga erishdimi, yo‘qmi?
4. Ertakka mos qanday maqol bilasiz?
5. Ertak asosida bayon yozishga tayyorlaning.

## BOLAM

*Berdaq*

Taltaymagin erka bo‘lib,
Yig‘lamagin to‘lib-to‘lib,
Qolmagin och, ranging so‘lib,
Mard bo‘l yoshlikdan, ey, bolam!

Yomon bo‘lib tushma ko‘zga,
Dog‘ qo‘ndirma oppoq yuzga.
Uchma aslo yolg‘on so‘zga,
Yomondan qoch, yoshsan, bolam!

Ishla, manglaydan oqsin ter,
Yaxshi-yomonni sinab yur.
Yaxshilarga qo‘lingni ber,
Shunda yo‘ling bo‘lar, bolam!

Elni qoshingdan qochirma,
Yo‘q deb, boringni yashirma,
Quvlik, shumlik yo‘liga kirma,
Oqko‘ngil bo‘l doim, bolam!

Otangdan pand-u nasihat:
Qo‘ldan kelsa, bo‘l bohimmat,
Birovlar qilmasin uyat,
Ertangni ko‘p o‘yla, bolam!

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. Berdaq yoshlarga nimalarni nasihat qildi?
3. *«Elni qoshingdan qochirma»* misrasini qanday tushunasiz?

## BAHS

*(Hikoya)*

*Sunnatilla Anorboyev*

### I

Oqsoy qishlog‘ida Halim, Salim, Karim degan bolalar bor. Ular sinfda ham yonma-yon o‘tirishadi. Darsni ham birga tayyorlashadi. Ta’til yaqinlashgan sari uch o‘rtoq soy bo‘yidagi ko‘rpaday qalin chimga cho‘zilib, yozda qiladigan ishlari to‘g‘risida uzoq-uzoq suhbatlashadigan bo‘lib qolishdi.

— O‘qish tugagan kunning ertasigayoq yaylovga ketaman, — dedi Karim. — Bo‘ribosarni ergashtirib, qo‘y boqishda otamga ko‘maklashaman. Katta bo‘lsam-chi, otamdek cho‘pon bo‘laman. Cho‘ponlikdan yaxshi kasb yo‘q olamda!

Karimning keyingi gapidan Halim bilan Salimning jahli chiqdi.

— Nega endi? — deyishdi ikkovlari birdaniga.

— Mana, masalan, mening otamday hisobchi bo‘lish yomon ekanmi? — dedi achchiqlanib Halim. — Fermer xo‘jaligida kim qanday ish qildi, qancha ish haqi oladi, cho‘ponlar davlatga qancha jun, go‘sht, yog‘, sut yetkazishini otam hisoblab beradi. Katta bo‘lsam, albatta, otamday hisobchi bo‘laman.

— I-i, anavini qaranglar! — ermak qildi Karim.

## II

Salim yuvosh bola edi. Lekin ikkala o‘rtog‘ining gapi g‘ashini keltirdi.

— Xo‘jalik mulki omborxonada saqlanadimi yo ko‘chadami? — deb so‘radi Salim.

— Albatta, omborxonada!

— Omborxonani kechasi otam qo‘riqlaydi. Xo‘jalik don-duni, go‘sht-yog‘i-yu asbob-uskunalarini otamga ishonib topshirib qo‘yibdi! Men katta bo‘lsam, albatta, otamdek qorovul bo‘laman.

Shunday qilib, uch o‘rtoqning bittasi unday deb, ikkinchisi bunday deb gap talashib qolishdi.

## III

O‘qishlar ham tugadi. Karim ertaga buvasi bilan tog‘ga jo‘naydi. Shunga yo‘l hozirligini ko‘rishdi. Lekin, negadir, qovog‘i soliq edi. Buvasi hayron bo‘ldi.

— Buva, cho‘ponlik yomonmi?— dedi Karim sekin.

— Yo‘q, chirog‘im.
— Qorovulchilik-chi?
— Qorovulchilik ham yomon emas.
— Hisobchi bo‘lish-chi?
— Hisobchilik ham yaxshi.
— Ichida eng yaxshisi qaysi?
— Kasbning yomoni bo‘lmaydi, — dedi buvasi.

Karim buvasining og‘zidan bu gapni eshitganda, yuzidan olov chiqib ketdi. Axir u: «Faqat dadamning kasbigina yaxshi», — deb do‘stlarini kamsitgan edi-da!

Karim yugurganicha soy bo‘yiga ketdi. O‘rtoqlari oldiga borib, chimga cho‘zildi-yu:

— Hech bir kasbning yomoni bo‘lmaydi! — dedi o‘pkasini bosolmay hansirab.

U o‘rtoqlari bilan arazlashganini ham unutib qo‘ygandi.

— Sening otangning qorovulchilik kasbi ham yaxshi, sening otangning hisobchilik kasbi ham yaxshi...

— Sening otangning cho‘ponlik kasbi ham yaxshi! — deb unga qo‘shimcha qildi Salim.

Uchovining ham ichlarida chiroq yonganday chehralari yorishib ketdi...

**Reja:**

1. Kasbning yomoni bo‘lmaydi.
2. Uch o‘rtoq.
3. Salimning achchig‘i chiqdi.
4. Salim yuvosh bola edi.

Reja qismlarini hikoya mazmunining izchilligiga asoslanib tartibga soling va so‘zlang.

# SPORT USTASI

Mirjalol Qosimov 1970-yil 17-sentabrda Toshkentda tug'ilgan.

U 179-maktabda o'qigan.

Otasi Qo'shoq aka yosh Mirjalolning futbolga havasi borligini sezdi. Shuning uchun u Mirjalolni Chig'atoy futbol maktabiga olib bordi.

Yosh Mirjalolning hayotida o'zgacha kunlar boshlandi: ertalab maktab, darslar. Tushdan keyin tramvayga o'tirib mashqqa boradi. Kechqurun mashqdan charchab kelib, dars tayyorlaydi.

Mirjalol chidamli, tirishqoq edi. Necha bor musobaqalardan oyoqlari ko'karib, badani mo'mataloq bo'lib qaytgandi.

Kechqurun uncha bilinmagan og'riq ertalab zo'rayib, oyoqlari shishib ketardi. Yurolmay qolgan kunlari ham bo'lgan edi.

Otasi har kuni futbol maktabiga borib kelishiga yetadigan pul berar edi. Kunlarning birida u pulini yo'qotib qo'yib, 15 chaqirimcha yo'lni piyoda bosib, qorong'i tushganda uyiga kirib keldi.

Shunda ham futbolni tashlamadi. Mashqlardan qay paytda qaytmasin, dars tayyorlashni unutmasdi, chunki otasi unga: «Yomon o'quvchidan hech qachon yaxshi futbolchi chiqmaydi», – deb uqtirardi.

Mirjalol burchakdan to‘p tepish va jarimadan zarba berishni yuz martalab takrorlardi.

Hatto mashq tugab, bolalar ketgach ham mashqni davom ettiraverar edi. Uning mehnatlari zoye ketmadi. Mirjalol maktabni va futbol maktabini tamomlab, Jismoniy tarbiya institutiga o‘qishga kirdi. O‘n yetti yoshidan «Paxtakor» jamoasida o‘ynay boshladi. Uning o‘yinlari millionlab futbol ishqibozlarini o‘ziga rom etdi.

Mirjalol Qosimov o‘smirlar o‘rtasida Jahon chempioni bo‘ldi. Unga «Oltin medal» ni mashhur futbol qiroli Pelening o‘zi topshirdi.

1994-yilda O‘zbekiston terma jamoasi Osiyo o‘yinlari g‘olibi bo‘ldi. Bunda Mirjalolning xizmatlari katta. U bir necha bor mamlakat kubogini qo‘lga kiritdi. Mirjalol Qosimov O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan sport ustasi, «Shuhrat» medali sohibidir.

U bolalarni yaxshi ko‘radi. Bo‘sh vaqti bo‘ldi deguncha «Paxtakor»dagi yoki o‘z mahallasidagi bolalarga futbol sirlarini o‘rgatadi. Kim biladi, ertaga ular orasidan yosh Mirjalollar chiqib, o‘zbek futboli dovrug‘ini yana olamga taratar.

*«O‘zbekiston iftixorlari» kitobidan*

1. Mirjalol Qosimov qachon, qayerda tug‘ildi? Otasi uni nima uchun Chig‘atoy futbol maktabiga olib bordi?
2. Yosh Mirjalolning hayotida qanday kunlar boshlandi?
3. Mirjalolning tirishqoq va chidamliligini ifodalovchi o‘rinlarni o‘qing.
4. Nima uchun Mirjalol dars tayyorlashni unutmasdi?
5. Mirjalol Qosimovga qanday unvon berilgan? U qanday medal bilan mukofotlangan?

# BOBONGIZ XAFA BO‘LSALAR MAYLIMI?

*Mirzakalon Ismoiliy*

Ravshanjonning bobosi hamma ishga chechanlar. U kishining qo‘llari gul deyishadi. Yer chopishmi, ariq olishmi, devor suvashmi, taxta randalashmi — hammasini havas bilan qiladilar.

Asboblarini aytmaysizmi? Juda ko‘pki, sanagan bilan ado bo‘lmaydi. Ketmon deysizmi, belkurak deysizmi, qo‘larra, oybolta, tesha, gulqaychi, randa, andava...

Bu asboblarni o‘zlari ishlatadilar. Ketmon bilan yer chopadilar. Belkurak bilan daraxtlarning tagini yumshatadilar. Oybolta, qo‘larra, tesha bilan daraxtlarning qing‘ir-qiyshiq o‘sgan shoxlarini kallaklaydilar. Randa bilan taxta randalaydilar, andava bilan devor suvaydilar. Shunisi qiziqki, u kishi ishlari ko‘p bo‘lsa ham shoshilmaydilar. Avval bitta ishni chiroyli qilib bajaradilar. Keyin boshqa ishga qo‘l uradilar. Innaykeyin, asboblarini ishlatgan joylarida tashlab ketmaydilar. Ularni tozalab, joy-joyiga keltirib qo‘yadilar.

Ravshan bo‘lsa bunaqa qilmaydi. U ishni qilsa, bu ish qolib ketadi. Asboblarni yig‘ishtirib qo‘ymaydi. Ishlatgan yerida qoldirib ketaveradi. Avvaliga bobosi nevaram o‘zi tushunib olar, deb hech nima demadi. Har yerda qolgan asboblarni o‘zi tozalab, joy-joyiga keltirib qo‘yib yurdi. Qarasa, bo‘lmaydigan. Biror asbob kerak bo‘lib qolsa, joyidan topolmaydi. U yoqni qidiradi, bu yoqni qidiradi — hech qayerda yo‘q.

Ravshandan so'rasa, u ham qayerdaligini bilmaydi. Qo'ying-chi, tartib degan narsa qolmadi.

Oxiri bobosi Ravshanni biroz koyidi.

— Asboblarni oldingmi, ishlatib bo'lgandan keyin darrov joyiga qo'yish kerak. Kimga kerak bo'lsa, u shu yerdan osongina oladi, qidirmaydi. Sen bo'lsang, mening asboblarimni har yerga tashlab ketasan. Bunday qilsang, men xafa bo'laman, — dedi.

— Yo'q, yo'q, bobojon. Sizni xafa qilmayman. Endi asboblaringizga tegmayman. Uydan bir nima olsam, ishlatganimdan keyin yana darrov joyiga keltirib qo'yaman. Xo'pmi? Shunday qilsam xafa bo'lmaysizmi?

— Shunday qilsang, xafa bo'lmayman, bolam, — dedi bobosi.

1. Ravshanning bobosi ish asboblari bilan qanday yumushlarni bajaradi?
2. Bobo qanday fazilatga ega?
3. Bobo Ravshanni qaysi ishlari uchun koyidi?
4. Ravshan nima qilsa bobosi xafa bo'lmaydi?

## Topishmoqlar

Og'zi yo'q,
Tishi ko'p.

(Arra)

Kelib og'zini ochar,
Tishlab olib qochar.

(Ombur)

# YAXSHILIK YERDA QOLMAS

*Abdulla Avloniy*

Bir Ari suv ustinda uchib borar edi. Birdan suvga yiqilib ketdi. Qanotlari ho‘l bo‘lib, ucharga kuchi yetmay qoldi. Buni Kabutar ko‘rib qoldi. Ariga rahmi keldi. Darhol cho‘pni tishlab, suvga tashladi. Bechora Ari bu cho‘pni kema qilib, suv balosidan qutuldi. Bir bola tuzoq qo‘yib, Kabutarni tutmoqchi bo‘ldi. Ari buni ko‘rgan zamon kelib, bolaning qulog‘idan chaqdi. Bola og‘riqning alamidan tuzoqni tashlab, qulog‘ini ushladi. Kabutar vaqtni g‘animat bilib, uchib ketib, o‘limdan qutuldi.

Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar,
So‘z yomon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar.

1. Ari va Kabutarning o‘zaro yordamini so‘zlang.
2. Matn oxiridagi to‘rt qator she’rni qayta o‘qib, tushunganingizni aytib bering.
3. Hikoyaga «Yaxshilik yerda qolmas» deb nom berilishi to‘g‘rimi?

**Bir odam uchragan kishiga avval salom bersa, u kishi Rasululloh oldida eng yaxshi kishilardan hisoblanadi.**

*«Hadis»dan*

## HUNARNI SEV

*Tolib Yo‘ldosh*

Hunarni sev, hunarni!
Hunar senga asqotar.
Hunar otin soni yo‘q,
Sanasang, qator-qator.

O‘rgan, sen ham yigitsan,
Yetmish turi oz senga.
«Hunarli er kam bo‘lmas»
Maqolin ol esingga.

Mayli, duradgor usta,
Chilangar bo‘l, xohishing.
Xalqqa biror manfaat
Yetkazsin qilgan ishing.

Binokor bo‘l, ha balli,
Bizga soz uylar kerak.
Bastakor bo‘l, marhamat,
Sho‘x, shirin kuylar kerak.

Hunarli bo‘l, ilm ol,
Har ikkisi ham zarur.
Hunar — bu baxt-u iqbol,
Belga quvvat, ko‘zga nur.

1. She’rni to‘xtamlarga rioya qilib, ifodali o‘qing.
2. Shoir yoshlarni nimaga chaqiryapti?
3. She’rda hunarga qanday ta’rif berilgan?
4. Siz kim bo‘lmoqchisiz?

## Maqol

- Avval o‘z aybingni bil,
  Keyin birovlardan kul.

## Topishmoqlar

- Oyna emas, jimirlar,
  Tek turolmas, qimirlar.
  (Suv)

- Ilon izi yorug‘ nur,
  Bulutlarni qiradi,
  Jarangdor ovozidan
  Yer-u osmon ko‘chadi.
  (Chaqmoq)

## Tez aytishlar

- Lola arralaydi, Sora allalaydi.

- Bir tup tut, bir tup tutning tagida bir tup turp.

# 9- MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI

## ENG MUQADDAS KUN

*Yoqutxon Rahimova*

Xalqimiz og'ir kunlarni boshidan kechirdi. Ikkinchi jahon urushida 50 mln. kishi halok bo'ldi.

Birgina bizning vatanimiz — O'zbekistonning 450 mingdan ortiq yigitlari jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo'ldilar. Ming-minglab yurtdoshlarimiz mayib-majruh bo'lib qaytdilar. Necha-necha minglab odamlar dom-daraksiz yo'q bo'lib ketdilar.

Yurtdoshlarimiz o'sha qonli urushda jonajon yurtimiz, uning ozodligi va mustaqilligi, yorug' kelajagi uchun jon fido qilganlar. Ularning xotira-

sini abadiylashtirish maqsadida 1999- yil 2- martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi.

Farmonga ko'ra 9- may «Xotira va Qadrlash kuni» deb belgilandi.

«Xotira va Qadrlash kuni» umumxalq bayrami sifatida O'zbekistonda birinchi marotaba keng nishonlandi.

Xotira kuni... Kimdir Xotira maydonida urushdan qaytmagan yaqinlarini eslasa, kimdir qarindoshlari qabrini ziyorat qiladi. Yana kimdir nuroniy ota-onasi, tabarruk buvi-buvalarining holidan xabar oladi, ko'ngillarini ko'taradi. Chunki bu kun Qadrlash kuni hamdir.

Xotira va qadrlash maydoni bizning baxtli kelajagimiz uchun jon berganlar ruhi yod etiladigan muqaddas qadamjo bo'lib qoldi.

U bizga bugungi shirin hayotimiz, totli turmushimiz qanday qurbonlar evaziga kelganligini, ularning qadriga yetishimiz darkorligini eslatib turadi.

1. Ikkinchi jahon urushi qanday oqibatlarga olib keldi?
2. Yurtdoshlarimiz nima uchun kurashdilar?
3. 9- may qanday kun deb e'lon qilindi? Qachon?
4. «Xotira va Qadrlash kuni» haqida so'zlang.
5. Mahallangizda «Xotira va Qadrlash kuni»ga atab qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

## YURTIM, ADO BO‘LMAS ARMONLARING BOR

*Muhammad Yusuf*

Yurtim, ado bo‘lmas armonlaring bor,
Toshlarni yig‘latgan dostonlaring bor.
O‘tmishingni o‘ylab og‘riydi jonim,
Ko‘ksing to‘la shahid o‘g‘lonlaring bor.

Yurtim, ko‘nglingdek keng osmonlaring bor,
Yulduzni yig‘latgan dostonlaring bor.
Osmonlaringdan ham diydoringga zor,
Jayrondek termulgan Cho‘lponlaring bor.

Qo‘ling qadog‘iga bosay yuzimni,
Onamsan-ku, og‘ir olma so‘zimni.
Qayinbarglar yopib qaro ko‘zini,
Olislarda qolgan Usmonlaring bor.

Qurboning bo‘layin, ey onajonim,
Sening faryodlaring — mening fig‘onim,
O‘tmishingni o‘ylab o‘rtanar jonim,
Aytsam ado bo‘lmas armonlaring bor.

She’rni ifodali o‘qing.

## E’ZOZ

*Ullibibi*

9- may. Mustaqillik maydoni odamlar bilan to‘la. Bobo Nodirning qo‘lidan ushlab chetga boshladi. U yerdan «Motamsaro ona» yodgorligi yaqqol ko‘rinib

turardi. Bobo va nabira yog‘och o‘rindiqqa yonma-yon o‘tirdilar. Bobo gap boshladi:

— Mana bu «Motamsaro ona» yodgorligi majmuasidagi metall «Xotira kitobi»ga urushda halok bo‘lgan yurtdoshlarimizning ism-shariflari yozilgan. Bularni o‘qir ekanmiz, «Qalbimizdasiz» deb xotirlaymiz.

Shu payt bobo o‘zlaridan sal narida kelayotgan keksalarni ko‘rib, o‘rnidan qo‘zg‘aldi va ular bilan ko‘rishmoqchi bo‘ldi.

— Biz ularni tanimaymiz-ku, — deb hayron bo‘ldi Nodir.

— Tanimasak ham mayli. Ular urush qatnashchilari. Anavi amaking esa urushga bormagan bo‘lsa ham, urushga borganlarni qadrlab shu yerga kelibdi. Qadrlash kunining ma’nosi ham shu, o‘g‘lim.

Bobo ular bilan xuddi qadrdonlardek quchoqlashib ko‘rishdi. Ko‘zlari yoshlandi.

Keksalar: — Endi hech qachon urush bo‘lmasin, o‘g‘lim. Sizlar baxtli yashanglar! Doimo tinchlik bo‘lsin! — dedilar.

1. Bobo bilan Nodir qayerda yonma-yon o‘tirishdi?
2. «Motamsaro ona» yodgorligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. «Xotira va Qadrlash kuni»ning ma’nosi nimadan iborat ekan?

4. Siz 9- mayda Mustaqillik maydonida bo‘lganmisiz?
5. Ko‘rganlaringiz, o‘qiganingiz asosida uyda insho yozing.

**Reja:**

1. Bobo bilan nabira.
2. «Motamsaro ona» yodgorligi.
3. Keksalar ko‘rindi.
4. Keksalar tilagi.

## MAG‘ZI SHIRIN

*Sobit G‘afurov*

Bahor keldi. O‘riklar gulga burkandi. Lekin Hamroboy otaning hovlisidagi bir tup o‘rik gullamadi. Har bahor o‘rik qiyg‘os gullaganda otaga olam-olam quvonch olib kelardi. Ammo bu yil...

Hamroboy ota hasrat bilan o‘rikning g‘adir-budur tanasini qo‘llari bilan ohista siypaladi. Uning ko‘z oldiga o‘g‘li Rustamjon keldi. Ota: «O‘g‘lim bu o‘rikni o‘z qo‘li bilan o‘tqazgan edi. Qaribdi, ha, qaribdi», — dedi va ko‘zlarida yosh qalqidi.

Otaning yosh, navqiron o‘g‘li Rustamjon jangda halok bo‘lgan edi. Ota shu o‘rik orqali o‘g‘lini eslab, Rustamjonni ko‘rganday bo‘lib yurardi.

Ota xayol surib:

— Men bu o‘rik daraxtini o‘g‘lim xotirasi uchun parvarish qilardim. Bu ham quribdi, — deb chuqur xo‘rsindi.

Shunda otadan xabar olgani kelgan bolalar:

— Yo‘q, xafa bo‘lmang, otajon! Bizning porloq kelajagimiz uchun jonini fido etgan Rustamjon aka

yashaydi. U hamisha biz bilan. O'rik qurib qolgan bo'lsa, atrofida danagidan chiqqan qancha nihollar bor. Biz ularni avaylab olib, maktabimiz bog'iga ekkani keldik. Bu o'rik avval bitta bo'lsa, endi yuzta, mingta bo'ladi, — deyishdi otani yupatib.

* * *

Hamroboy ota mayda o'rik nihollarini maktab bog'iga o'tqazishda qatnashdi.

Ko'p o'tmay maktab bog'idagi yosh o'rik daraxtlari hosilga kirdi. Ota va bolalarning quvonchi cheksiz edi.

Ota yirik-yirik, shirin-shakar o'rikdan bolalarga olib berib:

— Hayot totli, danagidan mag'zi shirin bo'larkan, deganlari shu ekan, — dedi.

1. Nima uchun otaning ko'zlarida yosh qalqidi?
2. Ota xayol surib nima dedi?
3. Bolalar otani nima deb yupatdilar?
4. Ota va bolalar nimadan quvondilar?
5. Sarlavha to'g'ri qo'yilganmi?

## Maqollar

Tinchlik bilan el ko'karar,
Yomg'ir bilan yer ko'karar.

Qo'shning tinch — sen tinch.

# YOZ MANZARASI VA MEHNAT

## YOZ

*Abdulla Avloniy*

Yozda pishar barcha ekin, mevalar,
Shod bo‘ladur katta-kichik bolalar.

Har yerga borsang, hama ma’murchilik,
Handalag-u, tarvuz-u, qovun — tilik.

Bog‘lari, bo‘stonlari rang-barang,
Mevasi-yu gullariga bir qarang.

Gullari, bulbullari bor, bog‘lari,
Qo‘ylari, qo‘zichoqlari bor, tog‘lari.

Sutlaru qaymoq-qimizlar serob,
Suvlar oqur soylar aro sharqirab.

Bir tarafda ekinchi — xirmonchilar,
Bir tarafda o'roqchi, ketmonchilar.

G'ayratlilar g'amini yer vaqtinda,
Tirishub ishlaydur g'animat kunda.

Ishyoqmaslar yozda yurur guldurab,
Qish kelganda qolgay ko'zi mo'ltirab.

1. She'rda nima haqida so'z boradi?
2. She'rni ovoz chiqarib, ifodali o'qing.

## YO'LDA

*(Hikoya)*

*Shukur Xolmirzayev*

### I

Ota, ona va o'g'il shaharga kelayotgan edilar. Onasi bilan otasi — otda, bola eshakda.

Dala yo'li. Kun isib ketdi. Bola chanqadi. Dadasidan suv so'radi.

— Chida, o'g'lim, chida. Shaharga tushaverishda buloq bor. O'shandan ichasan. Biz ham ichamiz. Ulovlarni ham sug'oramiz, — dedi otasi.

Bola chidab, eshakni haydayverdi.

Havo isigandan isidi. Tuproq yo'l ustida allanimalar jimir-jimir etardi. Tandir og'zidan chiqqan hovurga o'xshaydi.

Bolaning suv ichgisi kelib battar qiynaldi. Tanglayi qotib, lablari bir-biriga yopishib qola boshladi. Yig'lab yubordi. Suv so'radi.

— Suv yo'q-ku, o'g'lim. Ko'rib turibsan o'zing. Demak, chidash kerak. Chidamsiz kishi qiyinchilikka bardosh berolmaydi. «Men chidamliman!» deb o'yla. O'zingni chalg'it, atrofni tomosha qil, — deb maslahat berdi otasi.

## II

Ular yo'lda davom etishdi. Shaharga tushaverishda toshlar ostidan oqib chiqayotgan buloq bo'yiga yetishdi. Ulovlardan tushishdi.

Hamma xursand edi. O'zlari ham buloqdan suv ichdilar. Ulovlarini ham sug'orishdi. Keyin asta yo'lga tushishdi.

— Qalay endi, o'g'lim! Chidasa bo'lar ekanmi? — dedi otasi.

— Ha, odam chidasa bo'lar ekan. O'zini chalg'itadimi, boshqa ish qiladimi, baribir chidasa bo'lar ekan.

Otasi chidamlilik, qiyinchiliklarga bardosh bera olish odamning eng yaxshi fazilatlaridan biri ekanligini tushuntirdi.

1. Otaning bolaga bergan maslahatini so'zlang.
2. Siz insonga xos yana qanday fazilatlarni bilasiz?
3. Hikoyadan qanday xulosaga keldingiz?

# YETTINCHI OLIMPIYA SPORT MAKTAB-INTERNATI

*Mirzo Ahad*

Olot tumanida 7- Olimpiya sport maktab-internati bor. Maktab-internat direktori chempion polvon Rustam To'rayevdir. Rustam aka II darajali «Sog'lom avlod uchun» ordeni sohibi, «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustozi» unvoniga sazovor bo'lgan.

Direktor o'rinbosari Ilhom Avezovning aytishicha, ilgari maktab binosi tarqoq bo'lgan. Mashqlar bajariladigan bino yo'lning u chetida bo'lsa, saboq beriladigan bino yo'lning bu chetida ekan. Sport bilan shug'ullanish uchun sharoit, zarur anjomlar yetishmas ekan. Mustaqillik sharofati bilan o'quvchilarga alohida bino qurib berilibdi.

Yangi maktab-internatda 3 ta sport zali bo'lib, ular sport anjomlari bilan ta'minlangan. Maktabda 155 o'rinli yotoqxona ham mavjud. Yotoqxonada o'quvchilarning yashashi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Oshxona ham bor. Unda bir vaqtning o'zida 80 nafar o'quvchi ovqatlanadi. O'quvchilarning saboq olishlarida zamonaviy kompyuterlardan foydalaniladi.

Maktab-internatda «Shon-shuhrat» muzeyi tashkil etilgan. Muzeyda o'quvchilarning turli sport musobaqalarida erishgan yutuqlarini aks ettiradigan eksponat[1]lar qo'yilgan. Shuningdek, muzeyda sport ustalari va ziyoli kishilar bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari tez-tez o'tkazib turiladi. Bunday tadbirlar orqali o'quvchilar

---

[1]*Eksponat* – muzey va ko'rgazmalarda namoyish qilinadigan narsa.

ongiga Vatanga va sportga muhabbat tuyg‘ulari singdirilib boriladi.

Maktab tashkil topganiga uncha ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. Biroq o‘quvchilar sportda katta yutuqlarga erishdilar. Respublika va Xalqaro musobaqalarda oltita oltin, to‘rtta kumush, yettita bronza medallariga ega bo‘lishdi.

7- Olimpiya sport maktab-internatida tahsil olgan polvonlardan Abdulla Bozorov, Ramziddin Saidovlar ko‘plab mamlakatlarda o‘tkazilgan sport musobaqalarida muvaffaqiyatli ishtirok etishib, yurtimiz sha’nini himoya qilishib, Osiyo va Jahon chempionlari bo‘lishdi.

Bu yutuqlar murabbiylar – Dilshod To‘rayev, Elbek Umarovlarning xizmatlari va shogirdlarning tinimsiz mashqlari natijasidir. Fidoyi, jonkuyar Rustam To‘rayevning shogirdlariga omad tilaymiz.

1. Rustam To‘rayev haqida nimalar bildingiz?
2. Direktor o‘rinbosari nimalarni so‘zladi?
3. Yangi maktab-internat haqida so‘zlang.
4. Maktab-internat polvonlaridan kimlar Osiyo va Jahon chempionlari bo‘lishdi? Ular kimlardan saboq olishgan?

## O‘KTAM AVLOD

*(Qo‘shiq)*

*Anvar Obidjon*

Aziz ota-onamizning qalqonimiz,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.
Fidodir bu qutlug‘ Vatanga jonimiz,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.

Al-Buxoriy, at-Termiziy hazrat bizga.
Ulug‘beg-u al-Farg‘oniy savlat bizga.

Temur bobo, Manguberdi davlat bizga,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.

Yurtning do‘stga ochiq bag‘ri bag‘rimizdir,
Alpomishning yovga qahri qahrimizdir.
Navoiyning turkiy tili faxrimizdir,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.

Ilmu mehnat bilan inson nasli a’lo,
Inoq bo‘lsak, yuz o‘girmas tole aslo,
Ajdodlardek bizlar doim g‘olib, dono,
Buyuk xalqim, suyuk xalqim, bizga ishon.

She’rni ifodali o‘qishni mashq qiling.

## GULZORDA

*Abdulla Qodiriy*

Anvar yosh bo‘lsa ham jiddiy va kichkina miyasi o‘tkir edi. Uning bola chog‘idanoq sevgan narsasi gulzor va undagi gullar edi. Anvar Maxdumning oilasiga kelib tura boshlaganidan so‘ng, bog‘ning gulzor qismini o‘zi parvarishlaydigan bo‘ldi. Gullarni sug‘orish, o‘tlarni yulib, tozalash vazifalarini o‘zi bajarar edi. Gullardan hech kimga uzdirmas, agarda bir bolaning gulni uzib olganini ko‘rsa, o‘zi ham xafa bo‘lardi, bolani ham xafa qilar edi.

Anvar bolalarning daragi bilan har kimning uyidagi yangi gullardan ko‘chat va urug‘ olib, yildan yilga gulzorni boyitdi.

Yoz kunlari kelsa bolalarni kapalak va tillaqo‘ng‘iz tutib kelishga buyurardi. Qiynamay, ozor bermay, zaxasiz kapalak tutib kelganlarni sabog‘ini o‘qitib

qo‘yish bilan mukofotlar edi. Kapalak va tillaqo‘ng‘izlarni gulzorga uchirib yuborardi. Agar ular gullarga qo‘nib qolsalar, o‘zida yo‘q sevinar edi. Yoz kunlari Maxdumning bog‘i oq, nimrang, ola, zangor, malla, lojuvard va boshqa tus kapalaklarning yalt-yult uchishlari bilan alohida bir ko‘rinishga kirar edi. Anvar o‘qishdan bo‘sh paytlarini gullar ichida va shu kapalaklar orasida o‘tkazar edi. Ularni asrab-avaylardi.

**Reja:**

1. Anvar yosh bo‘lsa ham...
2. Anvar Maxdumning uyida.
3.
4.
5.

Rejani davom ettiring.

## QUVNOQ O‘TSIN TA’TILINGIZ!

*Ilyos Muslim*

Ko‘m-ko‘k baxmal tog‘lardan oshib,
O‘quvchilar, o‘ynab-kulingiz!
O‘lkamizda go‘zal yoz chog‘i,
Sizni kutar lola-gulingiz.
Bel baravar barra o‘tlarni
Kurt-kurt yeydi qo‘y-qo‘zichoqlar.
— Biz ham shodmiz siz kabi, — deya
Qirda kishnar toy-qulunchoqlar.

Bir zum o‘tmay moviy osmonda,
Turnalar keng yozar arg‘imchoq.
Qaytib kelgan laylak, qaldirg‘och,
Inlariga qo‘nib vaqti chog‘.
Shunday ko‘rkam faslni ko‘rib,
Kimning zavqi toshmaydi deysiz?..
Qanday fayzli tog‘, dala bizda,
Bolajonlar, o‘ynab-kulingiz!

1. She’rni ifodali o‘qing.
2. She’r mazmuniga mos rasm chizing.
3. Siz yozgi ta’tilda qayerda dam olmoqchisiz?
4. Bo‘limdagi qaysi asar sizga yoqdi? Nima uchun?
5. Tabiatning o‘zgaruvchan manzarasini kuzatishlaringiz asosida so‘zlab bering.

# LUG‘AT

## A

**Afv** — kechirim, uzr.

**Ajnabiy** — chet ellarga yoki chet elliklarga oid; xorijiy.

**Ardoqlaydi** — ayaydi, avaylaydi.

**Ark** — xon saroyining mustahkamlangan qismi; saroy.

**Armon** — amalga oshmagan orzu yoki o‘z vaqtida qilinmagan ish tufayli ko‘ngilda qolgan o‘kinch.

**Ayamajiz** — ayyom(i) ajuz — qishning oxirgi haftasi.

## B

**Bandi** – asir tushgan odam, tutqun.

**Bigiz** — poyabzaldo‘zlarning yog‘och sopli asbobi.

**Behuda** — foydasi yo‘q, hech keragi yo‘q, befoyda.

**Bemador** — madorsiz, kuchsiz, darmoni yo‘q.

**Bemajol** — kuchsiz, darmoni yo‘q.

## D

**Donishmand** — ko‘p narsani biladigan, bilimdon, olim, dono.

## E

**E’zoz** — hurmat, izzat.

## F

**Falakiyot** — o‘rta asrlardagi astronomiya va geografiyadan umumiy ma’lumotlar beruvchi fan.

**Faqirona** — hech narsasi yo‘q.

**Farovon** — har jihatdan to‘la-to‘kis, hamma narsasi mo‘l-ko‘l.

**Faxr** — mamnunlik hissi, mamnuniyat, g‘urur.

**Firqa** – guruh, to‘da.

**Fuqaro** — biror mamlakatning doimiy kishisi.

**Fursat** — biror ishni bajarish uchun eng qulay vaqt.

## G

**Go‘sha** — odamlar nazaridan uzoq yer, ovloq joy, turar joy.

## H

**Himmat** — birovga qilinadigan yaxshilik, marhamat, yordam.
**Hijron** — ayriliq, judolik.

## I

**Ittifoq** — guruh, jamiyat yoki davlatlarning birlikda ish olib borishi uchun tuzgan birlashmasi, uyushma.
**Iltifot** – kishiga yaxshi munosabat, diqqat-e’tibor.
**Iste’mol** — ishlatish, foydalanish, yeyish-ichish.
**Iymon** — ilohiy kuchga bo‘lgan ishonch, e’tiqod.

## J

**Jam** — yig‘ilgan, to‘plangan.
**Jarohat** — shikastlangan, singan, chiqqan, yaralangan joy.
**Jiddiy** — puxta o‘ylab ish ko‘radigan, mulohazali.
**Jur’at** — xavf-xatar, qiyinchiliklardan hayiqmay qilingan jasorat.

## K

**Kayfiyat** — ahvol, holat va kishining ruhiy holati.
**Kashf** — kashf qilmoq, yaratmoq.
**Klaviatura** — turli xil mexanizmlardagi klavishlarning jami.
**Knopka** — qog‘oz matolarni qattiq narsaga qadab qo‘yish uchun ishlatiladigan keng qalpoqchali, bosma mixcha.
**Kulfat** — qiynaydigan, azob beradigan holat.
**Kvant** — biror energiyaning eng kichik miqdori.
**Ko‘hna** — uzoq o‘tmishdan davom etib kelayotgan, qadimiy.

## L

**Lavozim** — amal, mansab.

## M

**Manzil** — safarda, yo'lda to'xtab o'tiladigan yoki yetib borish mo'ljallangan joy.

**Massoh** – yer o'lchovchi, tanobchi.

**Matonat** — bardosh, chidam, sabot.

**Maxluq** — inson va butun jonivorlarning, tirik mavjudotning umumiy nomi.

**Manglay** — peshana.

**Meteor** — uchar yulduz.

**Mezbon** — mehmon kutuvchi, ziyofat, to'y egasi.

**Mijoz** — doimiy xaridor.

**Minnat** — 1) qilingan xizmat, yaxshilik uchun bo'lgan qarzdorlik; 2) qilingan yaxshilikni yuzga solish yoki birovlarga gapirib berish.

**Misli** — kabi, singari, bamisoli.

**Mizoj** — kishining o'ziga xos tabiati.

**Model** — biror narsaning o'zidek kichraytirib olingan nusxasi.

**Moviy** — tiniq, ko'k, havorang.

**Mufti** — shariat qonunlarini talqin qiluvchi, shariat va huquq masalalari yuzasidan hukm chiqaruvchi lavozimli ulamo.

**Muguz** — hayvon shoxi.

**Mungli** — g'amgin, ma'yus.

## N

**Naf** — biror ish yoki narsadan olingan ijobiy natija, foyda.

**Navkar** — feodal hukmdorlarning harbiy xizmatkori, askari.

**Nizo** — o'zaro kelishmovchilik, dushmanlik orqasida tug'ilgan holat, munosabat.

## O

**Orbita** — osmon jismining fazoda boshqa bir jismning tortish quvvati ta'siridagi harakat yo'li.

**Otaliq** — moddiy, madaniy yordam ko'rsatishni nazarda tutib, tashkilot yoki kishilarni bir-biriga bog'lash asosidagi ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy burch.

## P

**Parhez** — sog'liqqa to'g'ri kelmaydigan ovqatlardan o'zini tiyish va uning tartibi.

**Parishon** — har tomonga sochilgan, tartibsiz, to'zg'igan.

**Planyor** — havoda motorsiz uchadigan apparat.

## Q

**Qadoq** — 400 grammcha keladigan og'irlik o'lchovi.

**Qadr** — hurmat, e'tibor.

**Qit'a** — Yerning dengiz va okeanlar bilan qurshalgan oltita alohida qismlaridan biri.

**Qiyofa** — tashqi ko'rinish, tus.

**Qulun** — bir yoshga to'lmagan toycha, toychoq.

**Qo'g'irmoch** – qozonda qovurilgan bug'doy.

## R

**Radiatsiya** — biror nurlanuvchi jismdan, masalan, Quyoshdan chiqadigan elektromagnit nur, energiya, *Quyosh radiatsiyasi.*

## S

**Samoviy** — osmonga, samoga oid.

**Sarbon** — karvonboshi (ko'chma ma'noda yo'lboshchi).

**Sarvar** — yo'lboshchi, rahnamo.

**Sayyora** — Quyosh atrofida aylanuvchi va undan nur oluvchi osmon jismi.

**Sekund** — soniya (daqiqaning 60 dan bir qismi).

**Suvoriy** — ot mingan kishi, otliq.

**Sur'at** — ish-harakatning jadalligi.

**So'lim** — beg'ubor, sof, go'zal va yoqimli.

**So'qa** – cho'yan tishli asbob, omoch.

**So'zan** — etikdo'z kosiblar ishlatadigan igna.

## T

**Tanob** — yer o‘lchovi.
**Tarh** — ko‘rinish, loyiha.

## U

**Ulamo** — olim, olimlar.
**Ummat** – bir millat, bir dinga mansub kishilar.
**Ungur** — tog‘liqlardagi tik o‘yiq joy, g‘or.

## X

**Xulq** — kishining xatti-harakati.

## Z

**Zabarjad** — shaffof och-yashil qimmatbaho tosh.
**Zarb** — qattiq urilish, kuch, shiddat.
**Zobit** — ofitser.

## O‘

**O‘zlik —** har bir kishining shaxsiyati, tabiiy holati, borligi.

## SH

**Sha’n** — yuksak insoniy fazilat, qadr-qimmat, yaxshi nom.
**Shon** — mahsi yoki etik qo‘njiga uriladigan qolip.

## CH

**Chilpish** – daraxtlarning, shoxlarning uchlarini kesish.

# MUNDARIJA

Agarki dunyo imoratlari. *I. Karimov*..........................3

## ONA BITTA, VATAN YAGONA

Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin....................................4
Salom, maktab! *Shuhrat*........................................5
O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i................6
O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi ....... ........8

Vatanni suymak. *Abdulla Avloniy*..........................10
Vatan mo‘tabardir. *Xurshid Davron* ........................10
Ona-Vatan. *Muhabbat Hamidova*............................12
Toshkentim — onam ..............................................13
O‘zbegim. *Erkin Vohidov* .....................................14
Mustaqillik ahillikdan. *Po‘lat Mo‘min*......................15
Matonatli ustoz...................................................16
Til qudrati. *(Rivoyat)*............................................18
Ona tilim. *Tursunboy Adashboyev*............................19
Vatan iftixori. *Asror Mo‘min*..................................20
O‘qituvchining o‘gitlari. *Anvar Obidjon*...................22
Muazzam san’at koshonasi.......................................24

## XALQ OG‘ZAKI IJODI

Qo‘shiq...........................................................26
Botir mergan va chaqimchi. *(O‘zbek xalq ertagi)*........27
Halollik. *(O‘zbek xalq ertagi)*................................29
Donishmand yigit. *(O‘zbek xalq ertagi)*..................30

**Dostonlar**
Rustamxon *(Parcha)*.............................................32
Alpomish *(Parcha)*...............................................35
Maqollar..........................................................38
Iboralar...........................................................39

**Masallar**

Qaysar buzoqcha. *Olim Qo'chqorbekov*......................40
Chumoli va Tipratikan........................................41
Topishmoqlar.................................................42
Tez aytishlar................................................43

## KUZ MANZARASI VA MEHNAT

Oltin kuz....................................................44
Kuz kelganda. *Tolib Yo'ldosh*...............................45
So'nggi axborot. *Anvar Obidjon*.............................46
Olma. *Mahmud Murodov*.......................................47
Kuz. *Yusuf Shomansur*.......................................49
Mehrjon sayili. *Malik Murodov*..............................50
Qo'riqchining sabog'i. *Feruza Jalilova*.....................51
Men dadamga yordamchi. *Quddus Muhammadiy*...................52
Bebaho boylik. *Hakim Nazir* ................................53
Ilmli ming yashar. *Nurmat Maqsudiy*.........................55
Xazonchinak. *O'tkir Hoshimov*...............................56
Qo'shterak. *Abdusodiq Irisov*...............................59
Va'da berdi. *K. Yersarin*...................................61

## O'TMISHNI O'RGANISH — BURCHIMIZ

Toshkent. *Erkin Malikov*...................................63
Jaloliddin Manguberdi.......................................64
Mehnatkash qiz. *Oybek («Qutlug' qon»* romanidan).....66
O'g'lon *(«Qirq hadis»*dan)................................68
Kitob. *Malik Murodov*.....................................70
Bola Alisher. *Oybek*.......................................71
Cho'pon yigit Shiroq *(Afsona)*.............................72
Oltmish gaz arqon. *(Ertak) Oydin*.........................74

## KUMUSH QISH

Qish........................................................77
Birinchi qor. *Shuhrat*.....................................78
O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi...........79
Bosh kitob. *Safar Barnoyev*................................80
Qish zavqi. *Hamidulla Yoqubov*...........................80

Chana. *O‘tkir Hoshimov*....................................81
Ayamajiz. *Qudrat Hikmat*....................................84
Qish ertagi. *Aziza Ahmedova* ....................................85
Yangi yil archasiga. *Erkin Vohidov*..........................90

## VATAN POSBONLARI

O‘zbekiston posbonlari. *Safar Barnoyev*.................92
Bugun bolasiz, ertaga askar bo‘lasiz.......................93
Dunyoni saqlar bolalar. *Kavsar Turdiyeva* .............95
Bobonur. *Safar Barnoyev*....................................96
Botir askarcha. *Habib Rahmat*.............................98
Istiqlolga sharaf-shon. *Abdulhay Nosirov*................99

## TENGDOSHLAR

Biz — istiqlol farzandlarimiz. *Rauf Tolib* ............101
Yaxshilik. *Farhod Musajonov*...............................102
Koinotga sayohat. *Abdusalom Umarov*....................103
Kompyuter olami. *Yoqutxon Rahimova*...................104
«Istiqlol» kemasi. *Abdusalom Umarov*...................105
Sayyoralar.........................................................107
Sohiba kimdan xafa? *Mahmud Murodov* ...............108
Ikki qiz. *Habib Sa’dulla*....................................110
Barakalla, bo‘tam. *(Ertak)*.................................111
Jigarlarga tilaklarim. *Maqsud Shayxzoda*..............113
To‘rtlik. *Tolib Yo‘ldosh*....................................114

## ULUG‘LARDAN O‘RGANMOQ — OQILLIK

Mustaqil O‘zbekistonning....................................115
Hadislardan naqllar.............................................118
Hisob ilmidagi yangilik. *Mirkarim Osim* ...............119
Kitobga ixlos. *Mirkarim Osim*...............................121
Ibn Sinoning shogirdlari.
*«Asotirlar va rivoyatlar»*dan...............................123
Ibn Sino bobo — ulashar davo.
*(O‘gitlar) Po‘lat Mo‘min* .................................124
Elim deb, yurtim deb yashagan inson.
*Bo‘riboy Ahmedov* .............................................125
Sohibqiron Temur bobo. *(Hikoyat)* ......................128

Amir Temur o‘gitlari....................................129
Donolarning donosi. *Po‘lat Mo‘min*........................130
Navoiy hikmatlari......................................133
Zahiriddin Muhammad Bobur.
*Xayriddin Sulton* ....................................133
Sayilda. *Mirzo Karim* ................................135
Ilm. *Hoji Abdurazzoq Yunus*...........................137
Hotami Toyi. *Sa’diy Sheroziy*..........................138

## BAHOR MANZARASI VA MEHNAT

Erta bahor. *Muzayyana Alaviya*dan ....................140
Bahor yaqin. *Zafar Diyor* .............................141
Tabiat bilan suhbat. *(Rivoyat)* ........................142
Boychechak. *G‘ayratiy* ...............................143
Quyoncha. *Nosir Fozilov* .............................145
Bayramingiz muborak. *Yusuf Shomansur* ...............146
Ko‘klam yomg‘iri. *Cho‘lpon* ..........................147
Varrak. *Yo‘ldosh Shamsharov* .........................148
Qaldirg‘och. *Sulton Jabbor* ...........................151
Navro‘z — bahor bayrami. *Muzayyana Alaviya* ..........151
Yurtim kamoli. *Rauf Tolib*............................153
Daraxtlarni oqlaganda. *Yusuf Shomansur* ...............154
Lola. *Ilyos Muslim* ...................................155

## TABIATNI SEVING VA ASRANG

Ona tabiat. *Toshpo‘lat Xolmatov*.........................157
Yer sevarni — el sevar. *Malik Murodov* ................158
Suhbat. *(Ertak) Yayra Sa’dullayeva* ...................159
Non haqida. *Tolib Yo‘ldosh* ...........................160
Non — inson hamrohi ....................................161
Soy suvi haqida ertak. *Zohir A’lam* ....................162

## GO‘ZAL FAZILAT — INSON HUSNI

Bir donishmanddan so‘radilar. *Sh. Zunnun va I. Zunnunovlar*ning «Donishmandlar odob-ahloq to‘g‘risida» kitobidan....................................165
Onani rozi qilish haqida. «*Hadis*»dan.....................166
Ota-onani hurmatlash haqida. *Qobusnoma*»dan............166

Bobur va Humoyun. *Pirimqul Qodirov*..................167
Ota-ona duosi. *Safo Ochil*..................................168
Ona mehri. *(Ertak) O'ktam Usmonov* ......................169
Qoida. *Hakim Nazir*........................................173
Yordam berdi. *Yayra Sa'dullayeva*........................176
Qalamning o'kinchi. *Shuhrat*..............................178
Hassa. *Xudoyberdi To'xtaboyev*............................179
Kamtarlik haqida. *Erkin Vohidov*..........................180
Chin o'rtoq. *Abdulla Qodiriy*
(«*Mehrobdan chayon*» romanidan) ......................181
Do'stlar. «*Kalila va Dimna*»dan...........................183
Chumoli bilan chivin. *Elbek*...............................186
Noahillik oqibati. *(Hind ertagi)*..........................187
Bolam. *Berdaq*................................................188
Bahs. *Sunnatilla Anorboyev* ..............................189
Sport ustasi....................................................192
Bobongiz xafa bo'lsalar maylimi?
*Mirzakalon Ismoiliy* ........................................194
Yaxshilik yerda qolmas.
*Abdulla Avloniy* ..............................................196
Hunarni sev. *Tolib Yo'ldosh*...............................197

## 9- MAY — XOTIRA VA QADRLASH KUNI

Eng muqaddas kun. *Yoqutxon Rahimova*..................199
Yurtim, ado bo'lmas armonlaring bor.
*Muhammad Yusuf* ............................................201
E'zoz. *Ullibibi* ...............................................201
Mag'zi shirin. *Sobit G'afurov*.............................203

## YOZ MANZARASI VA MEHNAT

Yoz. *Abdulla Avloniy* .......................................205
Yo'lda. *Shukur Xolmirzayev*...............................206
Yettinchi Olimpiya sport maktab-internati. *Mirzo Ahad*...208
O'ktam avlod. *Anvar Obidjon*..............................209
Gulzorda. *Abdulla Qodiriy* ................................210
Quvnoq o'tsin ta'tilingiz! *Ilyos Muslim*..................211
Lug'at ...........................................................213

**MUHABBAT UMAROVA,**
**SHAROFAT HAKIMOVA**

# O'QISH KITOBI

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining*
*3- sinfi uchun darslik*

*To'ldirilgan o'ninchi nashri*

Muharrir **Abdurahmon Akbar**

Badiiy muharrir **Uyg'un Solihov**

Texnik muharrir **Yelena Tolochko**

Dizayner **Shuhrat Odilov**

Musahhih **Mahmuda Usmonova**

Kompyuterda teruvchi **Gulbayra Yeraliyeva**

Bosishga ruxsat etildi 11.02.2010. Bichimi 70×90 $^1/_{16}$. Kegli 14,12 shponli. School garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b.t. 16,38. Nashr. b.t. 11,54. Shartnoma № 17—2010. 365199 nusxada bosildi. Buyurtma № 10—560.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 100129. Navoiy ko'chasi, 30- uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bosildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

U 44

**Umarova M., Hakimova Sh.**

O'qish kitobi: 3- sinf uchun darslik. / Mualliflar: M.Umarova, Sh.Hakimova. 10- nashri. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. — 224 b.

**BBK 81.2 O'z — 922**

***Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval.***

| T.r. | O'quvchining ismi, familiyasi | O'quv yili | Darslikning olingandagi holati | Sinf rahbarining imzosi | Darslikning topshirilgandagi holati | Sinf rahbarining imzosi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | | | | | | |
| 2. | | | | | | |
| 3. | | | | | | |
| 4. | | | | | | |
| 5. | | | | | | |
| 6. | | | | | | |

***Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:***

| | |
|---|---|
| **Yangi** | Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati |
| **Yaxshi** | Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q |
| **Qoniqarli** | Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan |
| **Qoniqarsiz** | Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi |